



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**"TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO'JALIGINI  
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI" MILLIY  
TADQIQOT UNIVERSITETI**

**DENMUXAMMADIYEV A.M.**

**ELEKTRONIKA VA ELEKTROTEXNIKA ASOSLARI**

**O'QUV QO'LLANMA  
(texnikum uchun)**



**Toshkent – 2022**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA  
O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**Denmuxammadiyev Aktam Mavlonovich**

**ELEKTRONIKA VA ELEKTROTEXNIKA ASOSLARI**

**fanidan**

**O'QUV QO'LLANMA**

5.55.01.01 – Telekommunikatsiya texnologiyalari kasbi “Uzatish tizimlari, kommutatsiya tizimlari va axborot tizimlarini montajlash va ishlatish mutaxassisi” malakasidagi texnikum talabalarini uchun mo'ljallangan

**Toshkent – 2022**

## **Annotatsiya**

Ushbu o‘quv qo‘llanma 5.55.01.01 – Telekommunikatsiya texnologiyalari kasbi “Uzatish tizimlari, kommutatsiya tizimlari va axborot tizimlarini montajlash va ishlatish mutaxassisi” malakasidagi texnikum talabalari uchun mo‘ljallangan.

O‘quv qo‘llanmasi 25 ta bobdan tashkil topgan. Unda o‘zgarmas tok(DC) va bir va uch fazali sinusoidal o‘zgaruvchan tok elektr zanjirlari, yarim o‘tkazgich materiallari va qurilmalari, kuchaytirgichlar, operatsion kuchaytirgichlar, filtrlar, signal generatorlari kabi mavzular o‘rin olgan. Bob yakunida mavzuga oid sinov savollari berilgan. O‘quv qo‘llanma yakunida talabalar mashq qilishi uchun test savollaridan namunalar keltirilgan.

## **Аннотация**

Настоящее учебное пособие предназначено для студентов техникумов с квалификацией 5.55.01.01 - «Специалист по монтажу и эксплуатации систем передачи, систем коммутации и информационных систем» по специальности телекоммуникационных технологий.

Учебное пособие состоит из 25 глав. Он включает в себе такие темы, как электрические цепи постоянного тока (DC) и одно- и трехфазного синусоидального переменного тока, полупроводниковые материалы и устройства, усилители, операционные усилители, фильтры, генераторы сигналов. В конце каждой главы есть контрольные вопросы по теме. В конце учебного пособия приведены примеры тестовых контрольных вопросов, которые учащиеся могут попрактиковать.

## **Annotation**

This manual is intended for students of technical schools with the qualification 5.55.01.01 – “Specialist in the installation and operation of transmission systems, switching systems and information systems” in the specialty of telecommunication technologies.

The manual consists of 25 chapters. It includes topics such as direct current (DC) electrical circuits and single- and three-phase sinusoidal alternating current, semiconductor materials and devices, amplifiers, operational amplifiers, filters, signal generators. There are quiz questions at the end of each chapter. At the end of the tutorial, there are examples of quiz questions for students to practice.

### **Taqrizchilar:**

**Tashqi taqriz:** Islom Karimov nomidagi TDTU “Elektr texnikasi” kafedrasи professori, t.f.d. Q.G‘. Abidov

**Ichki taqriz:** “TIQXMMI” milliy tadqiqot universiteti "Elektr ta’minoti va qayta tiklanuvchan energiya manbalari" kafedrasи dotsenti, t.f.n. A.D. Raxmatov

## **So‘z boshi**

Jahonda energiya resurslar narxini oshib borishi barcha korxonalarda energiya tejamkorlik masalasini ilgari suradi. Mamlakat iqtisodiyotining ko‘pgina ishlab chiqarish korxonalarda mahsulot tannarxini asosiy tashkil etuvchisi bo‘lgan energiyaga to‘lovlар tashkil etmoqda. Energiya resurslarini tejash orqali mahsulot tannarxini kamaytirish ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni tashqi va ichki bozordagi raqobatbardoshligini oshirishning asosiy omillaridan biridir. Bu esa elektr energiya nisbiy sarfini kamaytirish bo‘yicha imkoniyatlarimiz borligini ko‘rsatadi va ishlab chiqarish korxonalarida elektr energiyaini tejovchi oddiy va arzon texnik qurilmalarni tadbiq qilishni taqozo qiladi.

Keyingi yillarda Respublikamizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar ishlab chiqarishdagi iqtisodiy munosabatlarni, korxonalarni faoliyat yurgizish shart - sharoitlarini o‘zgartirib yubordi. Bundan tashqari, Respublikamiz korxonalariga chet el investitsiyalari keng jalb qilinib xorijiy elektr uskunalar o‘rnatalmoqda. Bu esa elektr energiyasi sifati ko‘rsatkichlariga, elektr ta’minoti tizimi ishonchligiga va energiya iste’moli jarayonlarini avtomatlashtirishga o‘ziga xos talablar qo‘ymoqda. Yuqoridagilar korxonalarni elektr ta’minoti tizimini zamonaviylashtirish nuqtai nazaridan qayta rekonstruktsiyalashni – eski va samarasiz ishlaydigan tizim elementlarini yangisiga almashtirishni taqozo qilmoqda.

“Elektronika va elektrotexnika asoslari” fani 5.55.01.01– Telekommunikatsiya texnologiyalari kasbi “Uzatish tizimlari, kommutatsiya tizimlari va axborot tizimlarini montajlash va ishlatish mutaxassis” malakasidagi texnikum talabalari uchun mo‘ljallangan hamda uning ta’lim dasturi elektr energetika sistemalarida elektrotexnika va elektronika asoslari, elektr motor quvvatini hisoblash va tarmoqlangan elektr zanjirlarini tuzishni hisoblash usullari, bundan tashqari fan tarixi va rivojining tendentsiyasi, istiqboli hamda respublikamizdagi ijtimoiy-iqtisodiy islohatlar natijalari va hududiy muammolarning suv xo‘jalik sohasida ishlatiladigan vositalari istiqboliga ta’siri masalalarini ham qamraydi.

**Fan o‘qitilishidan maqsad** – bo‘lajak texnikum talabalarini elektrotexnika va elektronika asoslaridan ham nazariy, ham amaliy jihatdan puxta tayyorlab, avtomatlashtirilgan uskuna va qurulmalarini malakali ishlata olish ko‘nikmalarini shakllantirish va o‘rgatishdan iboratdir.

### **Fanning vazifasi:**

- talabalarga elektrotexnika qonunlari va elektr zanjirlari va suv xo‘jaligida qo‘llaniladigan avtomatik jihozlarning tuzilishini, ishlash tamoyilini, ularni yig‘ish va ishga tushirish, tavsiflarini olish hamda elektronika elementlari

klassifikatsiyasi, boshqarish va himoya jihozlari va avtomatik boshqarish sxemalarini tuzishni o‘rgatishdan iborat.

Mazkur o‘quv qo‘llanmada mavzuga kirish, o‘zgarmas tok(DC) elektr zanjirlarining elementlari, rezistorlarning ketma-ket, parallel va aralash ulanishi, Kirxgofning birinchi va ikkinchi qonunlari, murakkab o‘zgarmas tok elektr zanjirlarini hisoblash usullari, o‘zgaruvchan tok elektr zanjirining elementlari, sinusoidal kattaliklarni ifodalanishning qiymatlari va usullari, o‘zgaruvchan tok elektr zanjirlari, RLC zanjirini tahlil qilish, elektr zanjirlarida rezonans hodisasi, uch fazali elektr zanjiri, yarim o‘tkazgich materiallari haqida tushuncha va ularning tuzilishi, o‘tkazuvchilar turlari, o‘tish va uning xususiyatlarini yaratish, yarimo‘tkazgichli diodlar va ularning tasnifi, to‘g‘rilovchi diodlar, fotodioldar, svetodioldar(yoritish diodlari), tranzistorlar, bipolyar tranzitorlar, maydoniy tranzistorlar, tiristorlar, kuchaytirgichlar, kaskadlarni qurish tamoyillari, kaskadlararo bog‘lanish, kuchaytirgichlarda teskari aloqa, operatsion kuchaytirgichlar, kuchlanish va tokni stabillash(barqarorlashtirish) tushunchasi, filtrlar va ularning qo‘llanilishi, signal generatorlari, muqobil elektr stantsiyalar va muntazam takrorlanuvchi energiya manbaalari(mustaqil o‘rganish uchun mavzu) kabi boblar batafsil yoritilgan.

# **1 - bob Mavzuga kirish. O‘zgarmas tok(DC) elektr zanjirlarining elementlari**

## **1.1 Elektr zanjiri haqida tushuncha**

## **1.2 Elektr sxemasi tushunchasi**

## **1.3 Elektr zanjirining asosiy elementlari**

## **1.4 Oddiy elektr zanjiri**

## **1.5 Chiziqli va nochiziqli elektr zanjirlari tushunchasi**

## **1.6 Om qonuni. Om qonunining qo‘llash**

### **1.1 Elektr zanjiri haqida tushuncha**

Ma’lumki, elektrotexnika fanining rivojlanishiga buyuk olimlar: G. Om, E. Lens, D. Djoul, G. Kirxgoflar asos solgan bo‘lib, 1827-yilda nemis olimi Om tok, kuchlanish va qarshiliklarning orasida o‘zaro bog‘lanish qonunini yaratdi. 1842-yilda rus olimi E. Lens va ingiliz olimi D. Djoullar elektr tok energiyasining issiqlik energiya o‘zgartirish qonuniga asos soldi. 1845-yilda G. Kirxgof elektr tok zanjirlarini hisoblash uchun asosiy qonunlarni tadbiq etdi.

**O‘zgarmas tok** – vaqt bo‘yicha o‘zgarmas bo‘lib,  $I = \frac{q}{t}$  (A). O‘zgarmas tok generatori, akkumulyator, galvanik elementlar, fotoelementlar, termopara, p’ezodatchik va hakozolar o‘zgarmas tok manbai hisoblanadi.

Amalda; mexanik, kimiyoziy, yorug‘lik va boshqa xildagi energiyalarni elektr tok energiyasi o‘zgartirish bilan **elektr tok manbai** hosil qilinadi. Elektr tok energiyasini iste’molchilarga; uzatish liniyasi, kabel simlari orqali yetkaziladi va bunday bog‘lanishni elektrotexnikada **berk elektr tok zanjiri** deyiladi.

Agar tok manbaining ichki o‘tkazuvchanligi( $g=0$ ) nolga teng bo‘lsa, u holda tashqi zanjirdagi to‘la tok manba tokiga teng bo‘ladi(ya’ni,  $i=I=const$ ) va bunday manba ideal tok manbai hisoblanadi. Aksincha,  $g\neq0$  bo‘lsa, iste’molchiga borayotgan tok I manba tokidan kichikroq bo‘ladi( $i < I$ ). Mazkur holatda tok manbai real tok manbai hisoblanadi.

EYuK manbai deb manba tushuniladiki, undan energiya iste’mol qilayotgan zanjirdagi tok qanchalik miqdorga o‘zgarmasin manba qismlaridagi EYuK(kuchlanish) o‘zgarmay qolaveradi. Aynan manbaning ichki qarshiligi  $r_{ich}$  nolga teng bo‘lganida EYuK manbasi ideal hisoblanadi. Real EYuK manbasida  $r_{ich} \neq 0$  qiymatga ega bo‘ladi.

Elektr zanjirida tok yurishi uchun quyidagi uchta shart bajarilishi talab etiladi:

**1-shart:** Manbaning mavjudligi (ya’ni, o‘zgarmas yoki o‘zgaruvchan tok manabasining mavjudligi).

**2-shart:** O'tkazgich similar (masalan: alyumen, mis yoki po'lat sim) va iste'molchilarning mavjudligi (masalan: lampochka, elektr dazmoli, elektr suv qizdirgichi va boshq.).

**3-shart:** 1-shart va 2-shartlardan iborat zanjirning ulovchi kalit orqali berk bo'lishi (masalan: uzgich orqali ulanishi).


Yuqorida sanalgan uchta shartdan birontasining bo'lmasligi zanjirning nosozligini (yoki to'liq emasligini) anglatadi va bunaqa zanjirda tok yurmaydi.

Sanab o'tilgan shartlarning bajarilishini tekshirish orqali zanjidagi nosozliklar tezroq topilib mutaxassis tomonidan qisqa vaqtida bartaraf etiladi.

Berk zanjirlarda Kirxgof va Om qonunlari bajariladi.

## 1.2 Elektr sxemasi tushunchasi

Berk zanjirni quyidagi sxema ko'rinishida ifodalash mumkin.




**1.1-rasm. Sodda berk zanjir sxemasi**


$E$  – manba EYuK,  $R$  – iste'molchi qarshiligi,  $R_0$  – manba ichki qarshiligi.

Iste'molchilarda esa elektr tok energiyasi, boshqa xildagi energiyalarga o'zgartiriladi (mexanik, issiqlik, yorug'lik, ximiyaviy va hakozolar).

Elektr tok zanjirlari tarmoqlanmagan va tarmoqlangan bo'lib, iste'molchilarni birlashtiruvchi simlarga – **tarmoq** va uchtadan ko'p tarmoqlarni birlashtiruvchi nuqtalarga – **tugun** deb ataladi.



a



b

**1.2-rasm. Qarshiliklarning ketma-ket(a) va parallael(b) ulanishi**

Ikki qutbli elektr tok zanjirlari tarkibida elektr energiya manbai bo'lganda **aktiv** yoki aksincha **passiv** bo'lishi mumkin.



### 1.3-rasm. Ikkiquitblilar: aktiv(a); passiv(b)


Elektr tok zanjirlarini hisoblashdagi asosiy maqsad iste'molchilardagi tarmoq toklari, kuchlanishlari va sarf bo'ladigan elektr energiya quvvatini hisoblab topishdan iborat bo'lib, Om va Kirxgof qonunlaridan foydalaniladi.

### 1.3 Elektr zanjirining asosiy elementlari

**Elektr kuchlanish** yoki **potensillar farqi** deb – elektr maydon  $E$  (manba) tasirida biror musbat  $q$  zaryadning  $l$  masofaga ko'chirilishida bajarilgan ishga aytildi va Voltda o'lchanadi.

$$U_{AB} = \frac{\mathbf{A}}{\mathbf{q}} = \int_A^B \mathbf{E} d\mathbf{l} = \varphi_a - \varphi_b \quad (\text{V})$$

**Masalan:**  $R$  – qarshilikdagi kuchlanish patensiallar ayirmasiga yoki manba kuchlanishiga teng:



$$\varphi_a - \varphi_b = U_{AB} = IR; \quad \varphi_b - \varphi_a = U_{>ab} = E$$

Bunda:

$$U_{>ab} = -U_{ab}$$

### 1.4 Oddiy elektr zanjiri

#### **Elektr manbai ekvivalent sxemalari:**

Amalda elektr tok zanjiri va tashqi Volt - Amper tavsiflari  $U(I)$  quydagichaga ifodalaniladi(4-rasm):

$$\text{Ushbu zanjirdan oqib o'tuvchi tok: } I = \frac{E}{R_0 + R} \quad (*)$$


yoki:

$$U = RI$$


Kirxgofning 2- qonuniga asosan:  $R_0 I + RI = E$

yoki:

$$U = E - R_0 I$$



a



b



**1.4-rasm. Elektr tok zanjiri(a) va tashqi Volt - Amper tavsifi  $U(I)$ (b)**

Volt – Amper tavsifidan yani (\*) tenglamadan:  $E=const$  va  $R_0=const$  tavsifi to‘g‘ri chiziqli bo‘lib, kuchlanish manbai tashqi tavsifini  $U(I)$  ifodalarydi:

a) salt holatda  $R=\infty$ ,  $I=0$  bo‘lib:  $U=U_0=E$

b) qisqa tutashtirilganda:  $R=0, U=0$  bo‘lib:  $I=I_{qt}=\frac{E}{R_0}$  (\*\*)

$R_0=0$  bo‘lganda esa ideal kuchlanish manbai bo‘lib:  $U=E=const$



**1.5-rasm.Sodda elektr sxemasining salt(a) va qisqa tutasuv(b) ish rejimi**

Ushbu sxemani iste’molchi qarshiligiga nisbatan boshqa ko‘rinishda keltirish mumkin. Buning uchun (\*) tenglamadan manba ichki qarshiligi  $R_0$  ga bo‘lib yuborilsa:

$$\frac{U}{R_0} = \frac{E}{R_0} - I$$

(\*\*) tenglamaga asosan:


$$I_{qt} = \frac{E}{R_0} = J \quad va \quad \frac{U}{R_0} = I_0 \quad yoki \quad I_0 = J - I$$

Bundan:  $J=I_0+I$  tok manbai bo‘ladi.


Yoki:

$$I = J - \frac{U}{R_0} \quad (***)$$

(\*\*\*) tenglamaga asosan tok manbai (energiya) ekvivalent sxemasi va tashqi tavsifi quydagicha ifodalilaniladi:



a



b


### 1.6-rasm. Tok manbai ekvivalent sxemasi(a) va tashqi tavsifi(b)

Tok manbai tashqi tavsifidan:

a) salt holatda:  $R=\infty, I=0$  yoki  $J=I_K = \frac{U}{R_0}$ ;  $U=U_0 = I_K R_0 = E$

b) qisqa tutashuvda:  $R=0; U=0$  yoki  $I=I_K = J = \frac{E}{R_0}$

Bunga asosan:



### 1.7-rasm. Tok manbaining turli rejimlari bo'yicha ekvivalent sxemalar

Agar  $R_0=\infty, (g_0=0)$  bo'lsa, ideal tok manbai bo'ladi:  $J=I=const.$

Natijada elektr tok zanjirlarining hisoblashda ideal e.yu.k manbaini ekvivalent tok manbaiga almashtirish yoki aksincha amalga oshirish mumkin bo'ladi.


**Masalan:** Berilgan sxemada e.yu.k manbasi  $E=12 V$  ichki qarshiligi  $R_0=2 \Omega m$ . Tok manbai ekvivalent sxemasi tuzilsin:

**Yechish:**

Tok manbai qiymatini aniqlaymiz.

Om qonunidan:  $J = \frac{E}{R_0} = \frac{12}{2} = 6 A$

Ekvivalent sxemasini quydagicha ifodalanadi:



Bunda EYuK manba bilan tok manbai  $J$  yo‘nalishlari bir xil bo‘ladi.

### **Elektr tok zanjirlari uchun Kirxgof qonunlari**

Kirxgof qonunlari elektr tok zanjirlarini hisoblashda asosiy qonunlardan bo‘lib, barcha hisoblash usullarning ham negizi hisoblanadi.

Kirxgof qonunlariga asosan  $\rho$  - tarmoq.  $q$ - tugundan tashkil topgan elektr tok zanjirini hisoblab tarmoq toklari uchun  $K = \rho \cdot (q-1)$  tuzilgan tenglamani yechish bilan bajariladi.

**Kirxgofning 1 – qonuni:**  $\sum I = 0$  - tarmoq toklarining algebraik yig‘indisi nolga teng.

**Kirxgofning 2 – qonuni:**  $\sum E = \sum RI$  - kontur e.yu.k. algebraik yig‘indisi shu konturga kiruvchi qarshiliklardagi kuchlanishlarning algebraik yig‘indisiga teng.

### **Elektr zanjirlarida quvvatlar muvozanati**

Elektr zanjirlarida energiya muvozanatlanishi qonuniga asosan: manbalar elektr tok quvvati, iste’molchilarda sarf bo‘ladigan elektr tok quvvatlariga teng bo‘ladi.

$$\sum P_{gen} = \sum P_{ist}$$

yoki: 
$$\sum_m E_m I + \sum_n J_n U = \sum_k I^2 R_k$$


bunda: m – e.yu.k manbalar soni

n – tok manbalar soni

k – iste’molchi qarshiliklar soni

$U, I$  – bir xil yo‘nalishdagi tok va kuchlanishlar.

**Masalan:** Ketma – ket ulangan elektr tok zanjirining EYuK lari  $E_1=4$  V,  $E_2=2$  V, qarshiliklari  $R_1=4$  Om,  $R_2=6$  Om teng. Tok qiymati va potensallari aniqlanib, diagrammasi tuzilsin



**Yechish:** Om qonuniga asosan tok qiymatini topamiz:

$$I = \frac{E_1 - E_2}{R_{um}} = \frac{4 - 2}{R_1 + R_2} = \frac{2}{10} = 0,2 \text{ (A)}$$

### 1.8-rasm. Zanjir sxemasi

Bunda:  $E_1 > E_2$  bo‘lganligi uchun tok soat strelkasiga mos yo‘nalgan bo‘ladi.

Potensiallar farqini aniqlash uchun  $\varphi_a = 0$  deb olamiz.

Bunda:  $\varphi_b - \varphi_a = R_1 I$ , yoki  $\varphi_b = \varphi_a + IR_1 = 0 + 0,2 \cdot 4 = 0,8 \text{ (V)}$

$\varphi_v$  - potensiali:

$$\varphi_b - \varphi_c = E_1 \text{ yoki } \varphi_c = \varphi_b - E_1 = -3,2 \text{ (V)}$$


$\varphi_g$  -potensiali:

$$\varphi_d - \varphi_c = IR_2 \text{ yoki } \varphi_d = IR_2 + \varphi_c = 0,2 \cdot 6 - 3,2 = -2 \text{ (V)}$$

Ushbu tenglamalardan:  $\varphi_a - \varphi_d = E_2$  bo‘lib:

$$\varphi_a = E_2 + \varphi_d = 2 - 2 = 0 \text{ (V)}$$

Potensial diagrammasini tuzamiz.



### 1.9-rasm. Zanjirning potensial diagrammasi


## 1.5 Chiziqli va nochiziqli elektr zanjirlari tushunchasi

Agarda zanjir elementining chiqish parametri kirish parametri bilan chiziqli bog‘lanishga ega bo‘lsa u holda mazkur zanjir elementi chiziqli hisoblanadi, va aksincha, elementining chiqish parametri kirish parametri bilan nochiziqli bog‘lanishga ega bo‘lsa u holda mazkur zanjir elementi nochiziqli bo‘ladi.

Aslida elektr janjirlarida yuz foiz aniqlikdagi chiziqli elementlar bo‘lmaydi. Ba’zi farazlar kiritish orqali elementni chiziqli deb hisoblaymiz.

**Masalan:** Aralash sxemada ulangan tok zanjiri parametrlari:  $R_1=19 \text{ Om}$ ,  $R_2=2 \text{ Om}$ ,  $R_3=4 \text{ Om}$ ,  $R_4=4 \text{ Om}$ ,  $R_5=0,6 \text{ Om}$  bo‘lib,  $R_2$  qarshilikda  $P_2=32 \text{ Vt}$  elektr quvvati sarflanadi.

Zanjirning tarmoq toklari manba kuchlanishi va quvvati aniqlansin.



1.10-rasm. Aralash ulangan zanjirning elektr sxemasi

**Yechish:**

$R_2$  qarshilikdan oqib o‘tuvchi  $I_2$  tokni topamiz:

$$I_2 = \sqrt{\frac{P_2}{R_2}} = \sqrt{\frac{32}{2}} = 4 \text{ A}$$

$a$  va  $b$  potentsial kuchlanishni aniqlaymiz:

$$U_{ab} = I_2(R_2 + R_3) = 4(2 + 4) = 24 \text{ V}$$

$R_4$  qarshilikdan oqib o‘tuvchi tok:

$$I_3 = \frac{U_{ab}}{R_4} = \frac{24}{4} = 6 \text{ A}$$

Umumiy tok:  $I_1 = I_2 + I_3 = 4 + 6 = 10 \text{ A}$

Zanjirning umumiy qarshiligini aniqlaymiz:

$$R_{y_M} = R_1 + \frac{R_4(R_2 + R_3)}{R_4 + R_2 + R_3} + R_5 = 19 + \frac{4(2 + 4)}{4 + 2 + 4} + 0,6 = 19 + 0,6 + \frac{24}{10} = 22 \text{ Om}$$

$$\text{Manba kuchlanishi: } U = I_1 R_{um} = 10 \cdot 22 = 220 \text{ V}$$


$$\text{Manba quvvati: } P = U \cdot I_1 = 220 \cdot 10 = 2200 \text{ W.}$$

**Masalan:** Ikki konturli elektr tok zanjiri manba kuchlanishlari:  $E_1=8 \text{ V}$ ,  $E_2=6 \text{ V}$ ,  $E_3=36 \text{ V}$  qarshiliklari:  $R_1=3 \text{ Om}$ ,  $R_2=1 \text{ Om}$ ,  $R_3=2 \text{ Om}$ ,  $R_{01}=1,3 \text{ Om}$ ,  $R_{03}=1,2 \text{ Om}$ ,  $R_4=6 \text{ Om}$ ,  $R_5=8 \text{ Om}$  teng. Konturli tok va tugunlararo kuchlanishlar usuliga asosan tarmoq toklari, voltmetr kuchlanishi va quvvatlar balansi aniqlansin.

### Yechish:

Mustaqil konturlardagi kontur toklari  $I_a$ ,  $I_v$  yo‘nalishlarini belgilaymiz.

**1.11-rasm. Ikki konturli sxema**



Kirxgofning 2- qonuniga asosan, kontur toklar tenglamasi quyidagicha ifodalanadi:

$$\left. \begin{aligned} R_{11} \cdot I_a - R_{12} \cdot I_a &= E_{11} \\ -R_{21} \cdot I_B + R_{22} \cdot I_B &= E_{22} \end{aligned} \right\}$$

Bu yerda:  $R_{11}$ ,  $R_{22}$  – konturlarning xususiy qarshiliklari.

$$R_{11} = R_1 + R_{01} + R_2 + R_4$$

$$R_{22} = R_1 + R_{01} + R_3 + R_{03} + R_5$$

$R_{12} = R_{21}$  – konturlararo qarshilik:

$$R_{12} = R_{21} = R_1 + R_{01}$$

$E_{11}$  va  $E_{22}$  – mos konturga alaqodor bo‘lgan manbalarning EYuK larning algebrik yig‘indisi.

Bu xolda, agar manbai e.yu.k yo‘nalishi bilan kontur toki yo‘nalish mos bo‘lsa , uning ishorasi **musbat** olinadi va aksincha **manfiy** ishorali olinadi.

Shunga asosan:

$$E_{11} = E_2 - E_1$$

$$E_{22} = E_1 - E_3$$

Tenglamalarga son qiymatlarini qo‘ysak :

$$\left. \begin{array}{l} (3+1,3+6+2) \cdot I_a - (3+1,3) \cdot I_e = 6-8 \\ -(3+1,3) \cdot I_a + (3+1,3+1+1,2) \cdot I_e = 8-36 \end{array} \right\}$$

yoki:

$$\left. \begin{array}{l} 12,3 \cdot I_a - 4,3 \cdot I_e = -2 \\ -4,3 \cdot I_a + 14,5 \cdot I_e = -28 \end{array} \right\}$$

Tenglamalar sistemasini Kramer usulida yechamiz:

$$\begin{aligned} \Delta &= \begin{vmatrix} 12,3 & -4,3 \\ -4,3 & 14,5 \end{vmatrix} = 178,35 - 18,49 = 159,86 \\ \Delta_1 &= \begin{vmatrix} -2 & -4,3 \\ -2,8 & 14,5 \end{vmatrix} = -29 - 120,4 = -149,4 \\ \Delta_2 &= \begin{vmatrix} 12,3 & -2 \\ -4,3 & -28 \end{vmatrix} = -344,4 - 8,6 = -353,0 \end{aligned}$$

Bundan:

$$\begin{aligned} I_a &= \frac{\Delta_1}{\Delta} = \frac{-149,4}{159,86} = -0,93A \\ I_e &= \frac{\Delta_2}{\Delta} = \frac{-353,0}{159,86} = -2,21A \end{aligned}$$

Endi shaxobchalar dagi toklarni aniqlaymiz:

$$I_1 = I_v - I_a = -2,21 - (-0,93) = -1,28 A;$$

$$I_2 = I_a = -0,93 A;$$

$$I_3 = -I_v = 2,21 A;$$

$I_1$  va  $I_2$  toklarning minus ishorali bo‘lishi, ularning zanjirdagi haqiqiy yo‘nalishi, biz qabul qilganga nisbatan teskari ekanligini ifodalaydi.


## 1.6 Om qonuni. Om qonunining qo‘llanishi

Aktiv qarshiligi bo‘lgan zanjirning bir qismi uchun Om qonuni

$$U_{ac} = U = RI \text{ (V)} \quad \text{yoki} \quad I = \frac{U}{R} \text{ (A)}$$

Bundan:  $R = \frac{U}{I}$  (Om);  $\sigma = \frac{I}{R}$  ( $\frac{1}{\Omega m} = \text{Simens}$ ) – o'tkazuvchanlik

U xolda qarshilik Volt–Amper tavsifi  $I = f(U)$  chiziqli o'zgaradi.



**1.12-rasm.**  
**Qarshilikning**  
**Volt-amper tavsifi**

**1.13-rasm. Butun zanjir uchun Om qonunini hisoblashga oid sxema**

Elektr tok zanjiriga manba ulangan holda butun zanjir uchun Om qonuni quydagicha tenglama bilan ifodalaniladi.

Potensiallar tenglamasiga asosan:


$$\varphi_d = \varphi_2 + R_3 I, \quad \varphi_c = \varphi_d + E_2, \quad \varphi_e = \varphi_c + R_2 I, \quad \varphi_a = \varphi_e - E_1, \quad \varphi_1 = \varphi_a + R_1 I$$

$$\text{yoki} \quad \varphi_1 = \varphi_2 + R_3 I + E_2 + R_2 I - E_1 + R_1 I, \quad \varphi_1 - \varphi_c = U_{12}$$

$$U_{12} = (R_1 + R_2 + R_3)I - E_1 + E_2$$

Bundan:

$$I = \frac{E_1 - E_2 + U_{12}}{R_1 + R_2 + R_3}$$



**Mavzuga oid pedtexnologiya**

## **O‘z-o‘zini nazorat qilish savollari:**

1. Elektronika va elekrotexnika fani nimani o‘rgatadi?
2. Elektrotexnika fanining rivojlanishiga xissa qo‘shtan buyuk olimlarni bilasizmi?
3. Elektr tok zanjiri qaysi qismlardan iborat?
4. O‘zgarmas tok manbalarini bilasizmi?
5. Tarmoqlangan elektr tok zanjirlarini chizib, tarmoq tugun, kontur nima ekanligini izoxlab bering.
6. Elektr maydon kuchlanganligi nima?
7. Elektr sig‘imini izohlab bering va miqdor kattaligini ayting?
8. Nuqtaviy zaryadlangan zarrachalarning o‘zaro ta’sir kuchi qaysi qonunga asosan aniqlanadi?
9. Potensiallar farqi, kuchlanish nima va ularning miqdor kattaliklarini ayting?
10. Zanjirning bir qismi va butun zanjir uchun Om qonunini yozing.
11. Elektr zanjirlari uchun Kirxgof qonunlarini ifodalab bering.
12. Elektr tok quvvati, (aktiv quvvat) qanday ifodalanadi va nimada o‘lchanadi?
13. Elektr o‘lchash asboblari: ampermetr. voltmetr va vattmetrlar elektr sxemasiga qanday ulanadi?
14. Elektr manbai tashqi tavsifini chizing va izox bering. Qisqa tutashuv va salt holat deganda nima tushunasiz?
15. Potensial diagramma nima va qanday quriladi?
16. Quvvatlar balansi tenglamasini yozing.
17. Aktiv va passiv 2-qutblik zanjir nima?
18. Elektr va magnit maydon energiyasi ifodasini yozing.
19. EYuK manbadan ekvivalent tok manbara o‘zgartirish qoidasi qanday?

## **2 - bob Rezistorlarning ketma-ket, parallel va aralash ulanishi**

### **2.1 Rezistorlarning ketma-ket ulanishi**

### **2.2 Rezistorlarning parallel ulanishi**

### **2.3 Rezistorlarning aralash ulanishi. Ekvivalent qarshiliklarni hisoblash**

#### **2.1 Rezistorlarning ketma-ket ulanishi**

**Elektr zanjiri** deb, elektr tokini hosil qiluvchi va uning oqib o‘tishini ta’minlash uchun berk yo‘l hosil qiladigan qurilmalar yig‘indisiga aytildi.

Elektr zanjirlarini shartli belgilari yordamida tasvirlash **elektrik sxema** deb ataladi.

O‘zgarmas tok manbalari, iste’molchilari va ularni simlar bilan o‘zaro ulashdan hosil qilingan berk kontur o‘zgarmas tok zanjiri deyiladi.

Turli elektr zanjirlarining ish jarayoni tahlil qilinganda zanjirdagi iste’molchilarining ekvivalent qarshiligidini aniqlash kerak bo‘ladi. Umuman, elektr iste’molchilarni zanjirga ketma-ket, parallel va aralash ulash sxemalari mavjud. Qarshiliklarni (iste’molchilarni) ketma-ket, ulash deb, bir qarshilik ( $R_1$ ) ning oxirgi uchini ikkinchi qarshilik ( $R_2$ ) ning bosh uchiga va hokazo birlashtirishga aytildi. Qarshiliklarni ketma-ket birlashtirilgan, ya’ni tarmoqlanmagan elektr zanjirining o‘ziga xos xususiyati shundaki, unda tok o‘tkazadigan bitta yopiq kontur bo‘lib, konturning barcha qismlaridan bir xil qiymatga ega bo‘lgan tok o‘tadi. Bunday zanjirda unga berilgan kuchlanishlar pasayishining algebraik yig‘indisiga teng (Kirxgofning II qonuniga asosan)

$$U = Ur_1 + Ur_2 + Ur_3 + Ur_4$$


$$I = Ir_1 = Ir_2 = Ir_3 = Ir_4$$

$$R = R_1 + R_2 + R_3 + R_4$$

$$U = I \bullet Ur_1 + I \bullet Ur_2 + I \bullet Ur_3 + I \bullet Ur_4$$

Bu yerda:  $R_1$ ,  $R_2$ ,  $R_3, \dots, R_n$  -zanjir qismlarining qarshiliklari;  $R$  -zanjirning ekvivalent qarshiligi. Demak, ekvivalent qarshilik  $R$  zanjir ayrim qismlari qarshiligining yig‘indisiga teng. Bunday zanjirdagi tok  $Om$  qonuniga binoan quydagicha ifodalanadi:


$$I = U / R$$



**2.1-rasm. Qarshiliklari ketma-ket ulangan zanjir**

Qarshiliklarni *ketma-ket ulash* elektrotexnikaning turli sohalarida uchraydi. Masalan, o‘zgarmas tok dvigatelinini ishga tushirishda ishga tushirish tokini cheklash maqsadida yakor bilan ishga tushirish reastoti ketma-ket ulanadi. Shuningdek, aylanish tezligini rostlash maqsadida rostlash reastati qo‘llanadi. Voltmetrga qo‘sishma qarshilikni ketma-ket ulash bilan uning o‘lchash chegarasini kengaytirish mumkin. masalan, akkumulyator va batareya elementlari o‘zaro ketma-ket ulab, kerakli kuchlanishni hosil qilish mukin.

Qarshiliklari ketma-ket birlashtirilgan zanjirning biron qismida uzilish sodir bo‘lganida uning tamomila ishdan chiqishi qarshiliklarni ketma-ket ulash usulining asosiy kamchiligidir.



**2.2-rasm. Elektr lampasini tarmoqqa ulash sxemasi**

## 2.2 Rezistorlarning parallel ulanishi


Qarshiliklarni (iste’molchilarini) *parallel ulash* deb,  $R_1$ ,  $R_2$ ,  $R_3$ , ...,  $R_n$  va hokazo qarshiliklarning oxirgi uchlarini ikkinchi tugunga birlashtirishga aytildi.

Qarshiliklari parallel ulangan elektr zanjirining (bunday zanjirlarni tarmoqlangan yoki ko‘p konturli elektr zanjirlari, deb ham atash mumkin) o‘ziga xos xususiyati zanjirga ulangan barcha qarshiliklar qismlaridagi kuchlanishning bir xil qiymatga ega bo‘lishidir.

$R_1, R_2, R_3, \dots, R_n$  qarshiliklar bosh uchlarining ulanish nuqtalariga keluvchi tok (I) shu nuqtalardan (tugunlardan) tarqaluvchi  $I_1, I_2, I_3, \dots, I_n$  toklarning yig‘indisiga teng (Kirxgofning I qonuniga asosan):


$$I = I_1 + I_2 + I_3 + \dots + I_n$$

$$I = U/R_1 + U/R_2 + U/R_3 + \dots + U/R_n = U(1/R_1 + 1/R_2 + 1/R_3 + \dots + 1/R_n) = U/\text{Re}$$



### 2.3-rasm. Elektr iste'molchilarini tarmoq bilan parallel ulanishi

Qarshiliklarni paralell ulangan elektr zanjirining ekvivalent o‘tkazuvchanligi ( $\text{G}_e$ ) shu zanjir tarmoqlar o‘tkazuvchanliklari ( $G_1, G_2, G_3, \dots, G_n$ ) ning



### 2.4-rasm. Qarshiliklari parallel ulangan zanjir

yig‘ndisiga teng. Agar elektr zanjiridagi Paralell ulangan tarmoqlarning soni ikkita bo‘lsa, ularning ekvivalent qarshiligi quydagи formula bo‘yicha aniqlanadi:


$$\frac{1}{\text{Re}} = \frac{1}{R_1} + \frac{1}{R_2} + \frac{1}{R_3}$$

Qarshiliklari parallel ulangan zanjirning asosiy afzalligi shundaki, bunday zanjirning biron tarmog‘ida uzilish sodir bulganida qolgan tarmoqlar normal


ishlayveradi. Shuning uchun ham elektr energiyasining iste'molchilari tarmoqqa, asosan, parallel usulda ulanadi.

### 2.3 Rezistorlarning aralash ulanishi. Ekvivalent qarshiliklarni hisoblash

Qarshilkarni aralash ulangan zanjirlarning ekvivalent qarshiligidini hisoblash zanjirni oq oxirgi qismidan manba tomon olib boriladi (2.6-rasm. b). Bunday zanjir tobora soddalashib borib, bitta ekvivalent qarshilikli zanjir ko'rinishiga keltiriladi (2.6-rasm, c). Zanjirning xar bir qismidagi tok va kuchlanish Om qonuniga binoan hisoblanadi.




2.5-rasm. Qarshiliklari aralash ulangan zanjir



2.6-rasm. Ekvivalent qarshiliklarni aniqlash ketma-ketligi

|   |  |        |
|---|--|--------|
| $R_{13} = R_1 + R_2 + \frac{R_1 \cdot R_3}{R_2};$ | $R_{57} = R_5 + R_7 + \frac{R_5 \cdot R_7}{R_8};$  | (1.21) |
| $R_{12} = R_1 + R_2 + \frac{R_1 \cdot R_2}{R_3};$ | $R_{5.8} = R_5 + R_8 + \frac{R_5 \cdot R_8}{R_7};$ |        |
| $R_{23} = R_2 + R_3 + \frac{R_2 \cdot R_3}{R_2};$ | $R_{7.8} = R_7 + R_8 + \frac{R_7 \cdot R_8}{R_5};$ |        |



### Mavzuga oid pedtexnologiya

#### O‘z-o‘zini nazorat qilish savollari:

1. Elektr zanjiri nima?
2. Elektr sxemani tariflang?
3. Elektr istemolchilarni ulanish usullari qanday?
4. Iste'molchilarni zanjirga ketma-ket ulash sxemalari
5. Iste'molchilarni zanjirga parallel ulash sxemalari
6. Iste'molchilarni zanjirga aralash ulash sxemalari

### **3 - bob Kirxgofning birinchi qonuni**

#### **3.1 Kirxgofning birinchi qonuni**

#### **3.2 Kirxgofning birinchi qonuni va Om qonuni asosida elektr zanjirini hisoblash**

##### **3.1 Kirxgofning birinchi qonuni**

Robert Gustav Kirxgof (1824-1887) Nemis fizigi Kirxgof 1824-yilda tavallud topgan. U fizikaning elektr, elektrostatika, mexanika, matematik fizika, gidrodinamika, optika bo‘limlarida o‘z ishlarini amalga oshirib fizika faniga ulkan hissa qo‘shgan. 1869-yilda ideal suyuqliqdagi qattiq jism harakati to‘g‘risidagi teoremani kashf qildi. Umumiy tok harakatlarining teoremasini kashf etdi

Kirxgof qonunlarini bevosita qo‘llash usuli. Kirxgofning birinchi va ikkinchi qonunlaridan foydalanib, xar qanday murakkablikdagi tarmoqlangan elektr zanjiri uchun kerakli tenglamalarni tuzgandan so‘ng ularni birqalikda yechib, zarur kattaliklarni (masalan, toklarni) aniqlash mumkin.

Berilgan elektr zanjiri uchun Kirxgof qonunlariga asoslanib tenglamalar tuzishdan avval quyidagi tartib va qoidalarga rioya qilish lozim.

1. Berilgan elektr zanjiri sxemasini iloji boricha soddalashtirish.
2. Berilgan elektr zanjiri sxemasini mustaqil konturlarga ajratish.

3. Sxemada avvaldan berilgan EYuK, kuchlanish va toklarning xamda avvaldan noma'lum bo‘lgan toklarning ixtiyoriy shartli musbat yo‘nalishini ko‘rsatish (tanlash).

4. Sxemadagi xar bir berk konturni aylanib chiqishning ixiyoriy yo‘nalishini ko‘rsatish (tanlangan yo‘nalish bo‘yicha tuzilgan tenglamalar o‘zaro bog‘liq bo‘lmasisin).


**Tarmoq** - elektr zanjirining ma'lum bir qismi bulib, ketma-ket birlashtirilgan qarshiliklar (rezistorlar), energiya manbalari va hokazolardan iborat.

**Tugun** - elektr zanjirining uchta va undan ortiq tarmoqlarning birlashgan joyi.

**Kontur** - zanjirning bir nechta tarmoqlaridan iborat yo‘l.

Kirxgofning birinchi qonuni.

Elektr zanjiri biror-bir tugunga oqib kelayotgan toklar yig‘indisi shu tugundan oqib kelayotgan toklar yig‘indisiga teng yoki istalgan tugun uchun toklarning algebrfik yig‘indisi 0 ga teng.



### 3.1-rasm. Kirxgofning birinchi qonuniga tegishli tasvir

$$I = I_1 + I_2$$

Kirxgofning 1-qonuniga asoslangan va o‘zaro bog‘liq bo‘lмаган tenglamalar sistemasini tuzish uchun tugunlar sonidan bitta kam tenglama tuzish kerak.

Kirxgofning 2-qonuniga asoslanib tuzilgan tenglamalar soni umumiyl shoxobchalar sonidan tok manbalari ulangan shoxobchalari soni va Kirxgofning 1-qonuni bo‘yicha tuzilgan tenglamalar sonini ayirib topiladi.

### 3.2 Kirxgofning birinchi qonuni va Om qonuni asosida elektr zanjirini hisoblash

Georg Simon Om (1787-1854) Nemis fizigi Georg Om 1787-yil tug‘ulgan. U 1826-yilda elektr zanjirlarining asosiy qununini kashf qildi. Ammo, dastlab bu qonun bir qator olimlar tomonidan tan olinmadidi. E.X.Lens, B.S.Yakobi, K.Gauss, G.Kirxgof va boshqa olimlarning o‘z ilmiy ishlarida Om qonunlarini asos qilib olishganlaridan keyingina bu qonun tan olindi. 1827- yilda tajriba usuli bilan zanjirda EYuK va tok kuchi orasidagi bog‘lanishni topdi. Elektr qarshiligi sifati Simonning sharafiga Om qabul qilindi.

Om qonuni elektr zanjiriga oid asosiy qonun bo‘lib, zanjirdagi tok va kuchlanish o‘zaro qanday nisbatda bog‘langanligini ifodalaydi. Bu qonunga ko‘ra tarmoqlanmagan berk zanjirdagi tok EYuK ga to‘g‘ri prporsional zanjirning to‘la qarshiligiga teskari proporsionaldir. Mazkur qonunga binoan quyida **rasmda** kursatilgan elektr zanjirdagi tok quyidagicha ifodalanadi.


$$I = \frac{E}{r_o + R}$$

E-manbaa EYuK si;

R<sub>0</sub>-manbaa ichki qarshiligi;

R-iste’molchi qarshiligi:

Zanjirni bir qismi uchun Om qonuni:  $I = \frac{U}{R}$



**3.2-rasm. Mavzuga oid pedtexnologiya**

### **O‘z-o‘zini nazorat qilish savollari**

1. Kontur tushunchasini tariflang?
2. Tugun tushunchasini tariflang?
3. Kirxgofning birinchi qonuni va Om qonunini ta’riflang?

## 4 -bob Murakkab o‘zgarmas tok elektr zanjirlarini hisoblash usullari

### 4.1 Murakkab o‘zgarmas tok elektr zanjirlari


### 4.2 Kirxgofning ikkinchi qonuni

### 4.3 Kontur tokini hisoblash

#### 4.1 Murakkab o‘zgarmas tok elektr zanjirlari

Ikki va undan ortiq manbaga ega elektr zanjiri murakkab hisoblanadi. Bunday murakkab zanjirlarni bir necha usulda o‘rganish.

Bunday murakkab zanjirlarni bir necha usulda o‘rganish mumkin, masalan, Kirxgof qonunlarini bevosita qo‘llash usulida I va II qonunlar asosida elektr zanjirini tugunlari va konturlari uchun tenglamalar tuziladi va bu tenglamalar yechilib noma’lum toklar topiladi. Tenglamalarni umumiyl soni noma’lum toklar soniga teng bo‘lishi kerak. Kirxgofning I qonuni asosida tuzilgan tenglamalar soni zanjir tugunlari sonidan bitta kam bo‘lishi kerak. Qolgan tenglamalar Kirxgofning II qonuni asosida tuziladi. Masalan, quyidagi rasmida keltirilgan zanjirda tugunlar soni 2-ta, demak I qonun bilan bitta tenglama tuzamiz.



4.1-rasm. Murakkab zanjirga tegishli tasvir

Zanjirda uchta noma’lum tok kuchi bor, demak yana ikkita tenglamani Kirxgofning II qonuniga binoan tuzamiz, masalan I va II belgilangan konturlar uchun:

$$I_1(r_1 + r_{u1}) - I_2(r_2 + r_{u2}) = E_1 - E_2$$

$$I_2(r_2 + r_{u2}) + I_3(r_3 + r_{u3}) = E_2 - E_3$$


Konturlarni aylanish yo‘nalishini (4.1-rasmda ko‘rsatilgan) soat ko‘rsatkichini aylanishi yo‘nalishida oldik. Tuzilgan uch tenglamani yechib, noma’lum tok kuchlarini topami, masalan:

$$I_1 = \frac{(E_1 - E_2)(R_2 + R_{u2} + R_3 + R_{U2}) + (E_2 - E_3)(R_2 + R_{u2})}{(R_1 + R_{u1})(R_2 + R_{u2}) + (R_2 + R_{u2})(R_3 + R_{u3}) + (R_3 + R_{u3})(R_1 + R_{u1})}$$

$$I_2 = \frac{I_1(R_1 + R_{u1}) - E_1 + E_2}{R_2 + R_{u2}}; \quad I_3 = I_1 + I_2$$

## 4.2 Kirxgofning ikkinchi qonuni

Kirxgofning *II - qonuni*: Zanjir berk konturida EYuK larning algebraik yig‘indisi kuchlanishlar tushuvi algebraik yig‘indisiga teng:



**4.2-rasm. Bir konturli tasvir**

$$\sum E = \sum RI$$

$$E_1 + E_2 = IR_1 + IR_2 + IR_3 + IR_4$$

a) yo‘nalishi konturni aylanib chiqish yo‘nalishi bilan mos bo‘lgan barcha EYuK larni musbat ishora bilan, yo‘nalishi qarama-qarshi bo‘lgan barcha EYuK larni manfiy ishora bilan tenglamaning bir tomoniga yozish;


b) yo‘nalishi konturni aylanib chiqish yo‘nalishi bilan mos bo‘lgan toklarning (ichki va tashqi qarshilikda) barcha tarmoqlarda hosil qilgan kuchlanishlar pasayishini musbat ishora bilan, yo‘nalishi qarama-qarshi bo‘lgan barcha tarmoqlardagi kuchlanishlarning pasayishini esa manfiy ishora bilan tenglamaning ikkinchi tomoniga yozish;

Kirxgof qonunlari bo‘yicha tuzilgan tenglamalar soni sxemadagi tarmoqlar soniga teng bo‘lishi kerak.

Misol tariqasida 4.3-rasmda ko‘rsatilgan elektr zanjirdagi toklarni aniqlaylik (EYuK va qarshiliklar ma’lum, deb faraz qilamiz).

Berilgan boshlang‘ich sxemani (4.3-rasm, a) soddalashtirgandan so‘ng 4.3-rasm, b dagi sxema hosil bo‘ladi.

$$R_{11} = R_1 + R_7 + R_8; \quad R_{33} = R_3 + R_6 + \frac{R_4 \cdot R_5}{R_4 + R_5}.$$



**4.3-rasm. Ikki konturli murakkab zanjirni hisoblashga oid tasvir**

Sxemada avvaldan ma'lum bo'lgan EYuK yo'nalishini va aniqlanishi lozim bo'lgan toklarning ixtiyoriy musbat yo'nalishini ko'rsatib, Kirxgof qonunlariga ko'ra tenglamalar sistemasini tuzamiz. Tarmoqlar soni uchta bo'lgani uchun tenglamalar soni ham uchta bo'lishi kerak:

$$\begin{cases} I_1 + I_2 - I_3 = 0 \\ R_{11} \cdot I_1 - R_2 \cdot I_2 = E_1 - E_2 \\ R_1 \cdot I_1 + R_1 \cdot I_1 = E_2 + E_3 \end{cases} \quad (*)$$

(\*) tenglamalar sistemasini yechish natijasida ayrim toklar musbat yoki manfiy ishoraga ega bo'lishi mumkin. Musbat ishoralar toklarning haqiqiy yo'nalishlari to'g'ri belgilanganligini, manfiylari esa toklarning yo'nalishi teskari belgilanganligidan darak beradi.

### 4.3. Kontur tokini hisoblash

Murakkab elektr zanjirlarini analiz qilish uchun bir necha xil hisoblash usullari qo'llanilishi mumkin.

1. Klassik usul;
2. Kontur toklar usuli;
3. Ustma - ustlash (superpozitsiya) usuli;
4. Tugun potensiallari usuli;
5. Ekvivalent generator (manbaa) usuli;

Kirxgof qonunlarini bevosita qo'llash usuli. Kirxgofning birinchi va ikkinchi qonunlaridan foydalanib, har qanday murakkablikdagi tarmoqlangan elektr zanjiri uchun kerakli tenglamalarni tuzgandan so'ng ularni birqalikda yechib, zarur kattaliklarni (masalan, toklarni) aniqlash mumkin.

Berilgan elektr zanjiri uchun Kirxgof qonunlariga asoslanib tenglamalar tuzishdan avval quyidagi tartib va qoidalarga rioya qilish lozim.

1. Berilgan elektr zanjiri sxemasini iloji boricha soddalashtirish.
2. Berilgan elektr zanjiri sxemasini mustaqil konturlarga ajratish.
3. Sxemada avvaldan berilgan EYuK, kuchlanish va toklarning hamda avvaldan noma'lum bo'lgan toklarning ixtiyoriy shartli musbat yo'nalishini ko'rsatish (tanlash).
4. Sxemadagi har bir berk konturni aylanib chiqishning ixtiyoriy yo'nalishini ko'rsatish (tanlangan yo'nalish bo'yicha tuzilgan tenglamalar o'zaro bog'liq bo'lmasin).

**Kontur toklari usuli.** Bu usul murakkab elektr zanjirlarini hisoblashda amalda keng qo'llaniladigan usullardan biri bo'lib, Kirxgofning ikkinchi qonuniga binoan tuzilgan tenglamalar bo'yicha taxlil qilinadi. Kontur toklari usuli tugun nuqtalari ko'p bo'lgan murakkab elektr zanjirlarni hisoblashda samarali bo'lib, u yordamida tenglamalar sistemasi tuzilganda, Kirxgofning birinchi qonuni bo'yicha tuziladigan tenglamalardan farqli o'laroq, umumiyl yechiladigan tenglamalarning soni avvalgi usulga qaraganda bittaga kamayadi.

**Tugun potensiallari (kuchlanishlari) usuli.** Ma'lumki, agar zanjirdagi berilgan EYUK (tok) manbalari va qarshiliklari bo'yicha zanjirning tarmoqlaridagi toklar va barcha tugunlari orasidagi kuchlanishlar pasayshini aniqlash mumkin bo'lsa, bunday zanjirni taxlil qilish mumkin, deb hisoblanadi.

Agar ixtiyoriy murakkab elektr zanjiridagi ( $m+1$ ) tugunlardan bittasini [masalan, ( $m+1$ ) tugunni] ajratib olib, uning potentsialini nolga tenglashtirilsa(\*\*\*), u holda qolgan barcha tugunlarning potentsiali aynan shu tugunga nisbatan quyidagicha aniqlanadi:

$$\varphi_{10} = \varphi_1 - \varphi_0 = \varphi_1; \quad \varphi_{20} = \varphi_2 - \varphi_0 = \varphi_2; \dots; \quad \varphi_{m0} = \varphi_m - \varphi_0 = \varphi_m.$$

**Ustma-ustlash (superpozitsiya) usuli.** Bu usuldan, asosan, chiziqli elektr zanjirlari (qarshiligi o'zidan o'tayotgan tokka bog'liq bo'lmagan elektr zanjirlari)ni hisoblashda foydalaniadi.

Ushbu usulga asosan sxemada birdan ortiq EYuK manbalari bo'lsa, elektr zanjiri har bir EYuK manbaining ta'siridan hosil bo'lgan hususiy toklar uchun aloxida (bosqichma-bosqich) hisoblanadi. Har bir bosqichda sxemada bitta EYuK manbai qoldirilib, qolgan barcha manbalar vaqtincha nolga teng, deb faraz qilinadi va barcha tarmoqlarda shu EYuK ta'siridan qayotgan toklar topiladi.

Zanjirda nechta EYuK manbai bo‘lsa, hisoblash ishlari shuncha marta bajariladi. Ammo zanjirdagi barcha qarshiliklar va sxemadan vaqtincha ajratilgan manbalarning ichki qarshiliklari o‘zgarishsiz qoldiriladi. Agar manbalarning ichki qarshiligi berilmagan bo‘lsa, u nolga teng deb qabul qilinadi.

**Ekvivalent generator (manba) usuli.** Murakkab elektr zanjirining ixtiyoriy bitta tarmog‘idagi tokning qiymatini aniqlash kerak bo‘lganda ekvivalent generator usuli bir muncha qulay hisoblanadi.



### Mavzuga oid pedtexnologiya

#### O‘z-o‘zini nazorat qilish savollari

1. Konturlarni aylanish yo‘nalishini tushintiring?
2. Kontur tokini hisoblash usullari?
3. Kirxgofning birinchi qonunu va Om qonunini ta’riflang?

**5-bob O‘zgaruvchan tok elektr zanjirining elementlari. Sinusoidal kattaliklarni ifodalanishning qiymatlari va usullari**

### **5.1 O‘zgaruvchan tok elektr zanjirining elementlari**

### **5.2 Kondensator, g‘altak induktivligi va qarshilagini hisoblash**

### **5.3 Sinusoidal qiymatlarni ifodalanishning usullari**

#### **5.1 O‘zgaruvchan tok elektr zanjirining elementlari**

Yo‘nalishi va qiymati davriy ravishda o‘zgarib turadigan xar qanday tok o‘zgaruvchan tok deyiladi.

O‘zgaruvchan tok vaqt bo‘yicha ma’lum qonun asosida o‘zgaradi, ya’ni tokning qiymati vaqtning funksiyasidir. Shuningdek, elektromagnit energiyasini bir turdan boshqa turga aylantirishning barcha fizikaviy jarayonlari xozirgi zamон elektrotexnikasi barcha soxalari (elektr mashinalar, radiotexnika, aloqa, elektroavtomatika, yarim o‘tkazgichlar, hisoblash texnikasi va boshqalar)ning asosini tashkil etadi. Ayrim elektr qurilmalarda esa qiymati davriy ravishda o‘zgaruvchi toklar ishlataladi.

Umuman o‘zgaruvchan tokni shartli ravishda uchta turga bo‘lish mumkin:

- 1) Qiymati o‘zgaruvchan, ammo yo‘nalishi o‘zgarmas tok.
- 2) Qiymati va yo‘nalishi o‘zgaruvchan tok.
- 3) Davriy o‘zgaruvchan tok.

Sanoatda va turmushda foydalaniladigan o‘zgaruvchan tok sinusoidal qonun bo‘yicha o‘zgaradigan o‘zgaruvchan tokdir.

Bu tokni yuqori kuchlanish bilan uzoq masofalarga uzatish hamda o‘zgaruvchan tokda ishlovchi mashina va apparatlar (transformatorlar, asinxron va sinxron dvigatellar)ni ishga tushirishda ishlatish mumkin.

Sinusoidal qonun bo‘yicha o‘zgaradigan EYuK, kuchlanish va toklar sinusoidal o‘zgaruvchan kattaliklar hisoblanadi.

Sinusoidal o‘zgaruvchan kattaliklar bo‘lmish EYUK, kuchlanish, tok va quvvatlarning ixtiyoriy vaqt lahzasidagi qiymatlari oniy qiymatlar deyilib,  $e$ ,  $u$ ,  $i$ ,  $p$  harflari bilan belgilanadi.

Shu oniy qiymatlarning davr ichidagi eng kattasi maksimal yoki amplituda qiymatlar deyilib,  $E_m$ ,  $U_m$ ,  $I_m$ ,  $P_m$  harflari bilan belgilanadi.

Sinusoidal o‘zgaruvchan katgaliklarning ta’sir etuvchi (effektiv) va o‘rtacha qiymatlari (bat afsil keyinroq ko‘rib chiqiladi) tegishlicha  $E$ ,  $U$ ,  $I$ ,  $r$  va  $E_{o'r}$ ,  $U_{o'r}$ ,  $I_{o'r}$ ,  $r_{o'r}$  harflari bilan belgilanadi.

Sinusoidal o‘zgaruvchan tok, asosan, elektrostansiyalarda bug‘ va gidravlik turbinali generatorlar yordamida xosil qilinadi. Mazkur generatorlarning ishlashi

esa elektromagnit induksiyasi va elektromagnit kuch qonunlariga asoslangan. Rotor o‘zgarmas magnit yoki elektromagnitning bir turi hisoblanib, generatorning asosiy magnit maydonini xosil qilish uchun hizmat qiladi.

Kuchli generatorlarning rotori elektromagnit rejimida ishlaydi, bunda u hosil qilgan magnit maydonining magnit oqimini boshqarish mumkin. Rotor o‘zgarmas burchak tezlik bilan aylanganda uning magnit kuch chiziqlari har bir pazdag'i o‘tkazgichda qiymati  $e=Blv$  ga teng bo‘lgan EYuK ni hosil qiladi (induksiyalanadi).


Bunda V-magnit induksiyasi, ( $Vb/m^2$ )= $Tl$ ;

$l$ -o‘tkazgichning aktiv uzunligi, m;

$v$  -o‘tkazgichning nisbiy harakat tezligi, m/s.

$e$  ning o‘zgarish harakteri rotorning qutbi bilan stator oralig‘idagi magnit induksiyasining taqsimlanish qonuniga asoslanadi. Sinusoidal o‘zgaruvchan EYuK ni hosil qilish uchun rotorning magnit qutblariga mahsus konstruktiv shakl beriladi. Bunda stator bilan qutb orasidagi havo bo‘shlig‘i qutbning o‘rtasida minimal bo‘lib, uning chekka tomon kattalasha boradi.


Bunda havoli oraliqdagi muhitning magnit qarshiligi bir hil bo‘lmasligi tufayli magnit induksiyasi qutbning o‘rtasida, ya’ni oraliq minimal bo‘lgan joyda maksimal qiymatga ega bo‘lib, uning chekkasi tomon sinusoidal qonun bo‘yicha tekis kamaya boradi. Magnit induksiyasining bunday taqsimoti ko‘rsatilgan.



**5.1-rasm. Shimoliy(N) va Janubiy(S) magnit qutblari va hosil bo‘lgan magnit induksiyasi  $Bm$  ning kuch chiziqlari tasviri**

Bir fazali sinusoidal tok zanjiri-bu bitta chastotali sinusoidal quvvat manbai ta’siridagi elektr zanjiri.

Agar shakli sinusoidalga yaqin bo‘lgan elektr zanjirida quvvat manbai bo‘lsa, chiziqli elektr zanjirida barcha toklar va kuchlanishlar sinusoidal shaklga ega bo‘ladi.



### 5.2-rasm. Sinusoidal tebranishning asosiy parametrlari

$I_m$ - amplitudali(eng yuqori) qiymat;

$i(t)$ - oniy qiymat;

$\varphi$ -boshlang‘ich faza;

$$\omega = \frac{2\pi}{T};$$

$\omega$ - burchak chastotasi;

$(\omega t + \varphi)$ - tebranish fazasi;

$$i(t) = I_m \sin(\omega t + \varphi_i);$$

$$u(t) = U_m \sin(\omega t + \varphi_u);$$

$$e(t) = E_m \sin(\omega t + \varphi_e).$$

**e(t), u (t), i (t)** – EYuK, kuchlanish, tokning oniy qiymatlari,

**I<sub>m</sub>, U<sub>m</sub>, E<sub>m</sub>** – tok, kuchlanish, EYuK ning amplitudali qiymatlari.

$\varphi_i, \varphi_u, \varphi_E$ - tok, kuchlanish, EYuK ning boshlang‘ich fazalari.

Sinusoidal tok, kuchlanish va EYuKning maksimal, o‘rtacha va effektiv(samarali) qiymatlari.

O‘zgaruvchan sinusoidal tokning o‘rtacha qiymati yarim davr uchun o‘rtacha-integral qiymati sifatida tushuniladi

$$I_{o'r} = \frac{1}{T} \int_0^{\frac{T}{2}} I_m \sin \omega t dt = \frac{2}{T} \int_0^{\frac{T}{2}} I_m \sin \frac{2\pi}{T} t dt = \frac{2}{T} \cdot \frac{T}{2\pi} \cdot I_m \left[ -\cos \frac{2\pi}{T} t \right] \int_0^{\frac{T}{2}} = \frac{I_m}{\pi} [-\cos \pi + \cos 0]$$

$$= \frac{2 \cdot I_m}{\pi}$$

$$I_{o'r} = \frac{2 \cdot I_m}{\pi} \quad U_{o'r} = \frac{2 \cdot U_m}{\pi} \quad E_{o'r} = \frac{2 \cdot E_m}{\pi}$$


O‘zgaruvchan tokning effektiv qiymati uning o‘rtacha kvadratik qiymati sifatida tushuniladi:

$$I_{eff} = \sqrt{\frac{1}{T} \int_0^T i^2(t) dt} = \sqrt{\frac{1}{T} \int_0^T I_m^2 \sin^2 \omega t dt} = \sqrt{\frac{I_m^2}{2T} \left( \int_0^T dt - \int_0^T \cos 2\omega t dt \right)}$$

$$= \sqrt{\frac{1}{T} \int_0^T I_m^2 \frac{1}{2} (1 - \cos 2\omega t) dt} = \sqrt{\frac{I_m^2}{2T} \cdot T} = \frac{I_m}{\sqrt{2}}$$

$$I_{eff} = \frac{I_m}{\sqrt{2}} \quad U_{eff} = \frac{U_m}{\sqrt{2}} \quad E_{eff} = \frac{E_m}{\sqrt{2}}$$

Fizik jihatdan o‘zgaruvchan tokning effektiv qiymati o‘zgarmas tok bilan bir vaqtning o‘zida aktiv qarshilikda bir xil quvvat chiqariladigan o‘zgaruvchan tokga teng. Qandaydir bir qarshilik o‘zgarmas **I** toki ta’sirida bo‘lsin




**5.3-rasm. R ni DC zanjiriga ulanish tasviri**

Bu qarshilikda quyidagi quvvat ajralib chiqariladi:

$$P = I \cdot U = I^2 \cdot R$$

Yuqoridagi qarshilik o‘zgaruvchan sinusoidal tok ta’sirida bo‘lsin



**5.4-rasm. R ni AC zanjiriga ulanish tasviri**

Oniy quvvat tushunchasini kiritamiz  $p=i(t) \cdot u(t)$ .

Mazkur qarshilikda davrga teng vaqt davomida ajralib chiqadigan aktiv quvvat quyidagicha:

$$P = \frac{1}{T} \int_0^T p(t) dt = \frac{1}{T} \int_0^T u(t)i(t) dt = \frac{1}{T} \int_0^T \left( U_m \sin \frac{2\pi}{T} t \right) \left( I_m \sin \frac{2\pi}{T} t \right) dt =$$
$$\frac{U_m I_m}{T} \left[ \frac{1}{2} \left( \int_0^T \cos 0 dt - \int_0^T \cos \left( 2 \cdot \frac{2\pi}{T} t \right) dt \right) \right] = \frac{U_m I_m}{2T} t = \frac{U_m I_m}{2} = \frac{U_m}{\sqrt{2}} \cdot \frac{I_m}{\sqrt{2}} = U \cdot I = I^2 R$$

O‘zgaruvchan tokda  $P = I^2 \cdot R$ , bu yerda I -o‘zgaruvchan tokning effektiv qiymati

EYuK

Kuchlanish

Tok

## Bular Sinusoidal qonun bo‘yicha o‘zgaradigan kattaliklar

Mavzuga oid pedtexnologiya

### O‘z-o‘zini nazorat qilish savollari

1. O‘zgaruvchan tok deb nimaga aytiladi?
2. EYuK manbasi nima?
3. Amlitudali(eng yuqori) qiymat nima?
4. o‘zgaruvchan tok zanjiriga ulangan R elementda kuchlanish va tok qanday qonuniyat bo‘yicha o‘zgaradi?

## 6 - bob O‘zgaruvchan tok elektr zanjirlari

### 6.1 Aktiv qarshilikli o‘zgaruvchan tok elektr zanjiri


### 6.2 Induktivlikda yig‘ilgan o‘zgaruvchan tok zanjiri

### 6.3 Imkoniyatli o‘zgaruvchan tok davri

### 6.4 Sig‘imlda yig‘ilgan o‘zgaruvchan tok zanjiri

### 6.1 Aktiv qarshilikli o‘zgaruvchan tok elektr zanjiri

#### Aktiv qarshilikda sinusoidal tok



**6.1-rasm. Aktiv qarshilikli o‘zgaruvchan tok elektr zanjiri**

$$i(t) = I_m \sin(\omega t + \psi_u)$$

$$u(t) = I(t) \cdot R$$

$$u(t) = I_m \cdot R \cdot \sin(\omega t + \psi_u)$$

Belgilaymiz  $I_m \cdot R = U_m$ , u holda  $u(t) = U_m \sin(\omega t + \psi_u)$ ;

$I_m \cdot R = U_m$  -amplitudali qiymatlar uchun Om qonuni;

$I = \frac{I_m}{\sqrt{2}}$  -tokning effektiv qiymati;

$U = \frac{U_m}{\sqrt{2}}$  -kuchlanishning effektiv qiymati;

$I \cdot R = U$  -effektiv qiymatlar uchun Om qonuni.

Yuqoridagi zanjir uchun oniy quvvat quyidagi ifoda yordamida hisoblanadi:

$$\begin{aligned} p &= ui = U_m I_m \sin^2(\omega t + \psi_u) = U_m I_m \left[ \frac{1 - \cos 2(\omega t + \psi_u)}{2} \right] \\ &= UI - UI \cos 2(\omega t + \psi_u) \end{aligned}$$

Tokning boshlang‘ich fazasi  $\psi_i = 0$  bo‘lsin



### 6.2-rasm. Aktiv qarshilikli o‘zgaruvchan tok elektr zanjirining vektor diagrammasi

$$i(t) = I_m \sin \omega t$$

$$u(t) = U_m \sin \omega t$$


Aktiv qarshilikda tok va kuchlanish fazada bo‘ladi(ustma-ust tushadi).

Ma’lumki, rezistiv elementli zanjirda tok va kuchlanish oniy qiymatlarining vektorli diagrammasi yuqoridagi rasmida keltirilgandek bo‘lib unda tok va kuchlanish ustma-ust tushadi. Aktiv quvvat tok va kuchlanish oniy qiymatlarining ko‘paytmasidan iborat bo‘lganligi uchun mazkur quvvatning  $\mathbf{T}$  davrdagi o‘rtacha qiymati quyidagi ifodadan aniqlanadi:

$$P = \frac{1}{T} \int_0^t p dt = \frac{1}{T} UI \int_0^T dt - \frac{1}{T} UI \int_0^T \cos 2(\omega t + \psi_u) dt = UI = rI^2$$

### 6.2 Induktivlikda yig‘ilgan o‘zgaruvchan tok zanjiri

#### 1. Induktivlikda sinusoidal tok



### 6.3-rasm. Induktiv g‘altakdagi fizik jarayonlar

$H$  - magnit maydon kuchlanganligi [A/m];


$B = \mu \cdot H$  - magnit maydon induktsiyasi [Tl];

$\Phi = \int_s B ds$  - Magnit oqimi [Vb];

$\Psi = w \cdot \Phi$  - oqim ilashuvchanligi;

$$L = \frac{\Psi}{I} \quad [\text{Gn}].$$

L - oqim ilashuvchanligi va tok o'rta sidagi proportsionallik koeffitsienti



**6.4-rasm. Induktiv g'altak tasviri**

$$i(t) = I_m \sin \omega t;$$

$$u(t) = -e(t) = \frac{d\Psi}{dt};$$


$$\Psi(t) = L i(t);$$

$$u(t) = L \frac{di(t)}{dt}.$$

$$u(t) = L \frac{di(t)}{dt} = L \frac{d}{dt} (I_m \sin \omega t) = L \omega I_m \cos \omega t = \omega L I_m \sin (\omega t + \frac{\pi}{2})$$

Belgi kiritamiz:  $\omega L I_m = U_m$ , va  $\omega L = X_L$

$X_L = \omega L$  – Induktivlikning reaktiv qarshiligi (induktiv qarshilik)






-Induktivlikda kuchlanish tokdan 90 gradus burchak bilan ilgarilab ketadi.

### 6.3 Imkoniyatli o‘zgaruvchan tok davri

#### Vektorli diagrammalar

Kompleks tekislikda qandaydir bir kompleks sonni tasvirlovchi A vektorni qarab chiqamiz.



#### 6.5-rasm. Kompeks sonlari tekisligida vektorli tasvir

$j = \sqrt{-1}$  - mavhum birlik;

$b = A \sin \varphi$  - kompleks sonning mavhum qismi;

$a = A \cos \varphi$  - kompleks sonning xaqiqiy qismi;

$A = a + jb$  - algebraik shakldagi kompleks son;

$A$  – kompleks sonning moduli.

Agar  $\bar{A}$  vektor  $\omega$  tezligi bilan soat miliga teskari aylana boshlasa, uning tasavvur o‘qiga proektsiyasini quyidagicha yozish mumkin  $J_m(A) = A \sin(\omega t +$

$b$ ), bu tokning oniy qiymatini quyidagicha qayd etish bilan mos keladi [ $i(t) = I_m \sin(\omega t + \varphi)$ ]. Shunday qilib, tokning  $i(t)$  oniy qiymati kompleks o‘qlar tekisligida  $\omega$  burchak tezligida aylanadigan vektor bilan ifodalanishi mumkin.

A- kompleks son. Bu osti chizilgan harf bilan ko‘rsatiladi.

Algebraik shakl  $A = a + jb$ ;

a - kompleks sonning haqiqiy qismi;

b - kompleks sonning mavhum qismi.

Ko‘rsatkichli shaklda  $A \cdot e^{j\beta}$ .

$A$ - kompleks sonning moduli(osti chizilmagan harf);

$\beta$  - kompleks sonning argumenti.

Trigonometrik shaklda  $A = A(\cos\beta + j\sin\beta)$

Mazkur holda

$$a = A \cdot \cos\beta;$$

$$ab = A \cdot \sin\beta;$$

$$A = \sqrt{a^2 + b^2};$$

$$\beta = \operatorname{arctg} \frac{b}{a}.$$

Kompleks tekislikdagi toklar va kuchlanishlarni ifodalovchi vektorlar to‘plami vektor diagrammasi deb ataladi.

Vektorli diagrammani kompleks tekisliksiz va vektorlar masshtabini kuzatmasdan tasvirlash mumkin. Bunday diagramma sifatli deb ataladi. Yuqori sifatli vektorli diagramma tuzishda, shunga qaramay, vektorlarning nisbiy fazaviy siljishi saqlanib qoladi (iloji bo‘lsa). Ushbu diagramma o‘garuvchan tokli elektr zanjirlarini hisoblash uchun ishlatiladi.

**Sof sinus to‘lqinli** invertorlar bir nechta qurilmalardan iborat: uzluksiz quvvat manbai; kuchlanish stabilizatori; DC ni AC sinusoidal o‘zgartirgich; zaryadlovchi (har doim ham emas).

**Sof sinus to‘lqinli** invertorlar eng qimmat kuchlanish o‘zgartirgichlaridir. Bunday o‘zgartirgichning chiqishi to‘g‘ri **sinusoidal shaklda** kuchlanishga ega bo‘ladi va shuning uchun bu invertorlar ishonchli ta’minalash uchun javob beradi.

Iqtisodiyotning sezgir elektronika bilan sezgir elektron uskunalari mavjud jihozlarida quyidagi texnologik jarayonlarni boshqarish va nazorat qilishda ishlatiladi:

- ✓ isitish qozonlari;
- ✓ sirkulyatsion(aylanma) nasoslar;
- ✓ tibbiy asbob-uskunalar;
- ✓ telekommunikatsiya, o‘lchash, laboratoriya asboblari;
- ✓ audiotexnika(uskunalar);
- ✓ o‘rnatilgan mikrosxemalar, platalar va chiplar mavjud bo‘lgan barcha elektr jihozlari.

Bundan tashqari, to‘g‘ri sinusoidal shakldagi elektr toki har qanday elektr jihozlarining ishlash muddatini sezilarli darajada oshiradi.

*Sof sinus to‘lqinli* invertorlar noutbuklarni mashinada ham, uyda ham quvvatlantirish uchun ishlatilishi mumkin va kerak. Axir, zamonaviy noutbuklarda aqlii batareyalar mavjudligini esdan chiqarmaslik kerak, bu ularni quvvatlantirish uchun eng toza kuchlanishni talab qiladi. *Sof sinus to‘lqinli* kuchlanish invertoridan foydalanish noutbuk batareyasining ishlash muddatini deyarli ikki baravar oshiradi.

*Sof sinus to‘lqinli* invertorlarning asosiy xususiyatlari va afzalliklari:

- ✓ chiqish kuchlanish shakli: sof sinus to‘lqin;
- ✓ kengaytirilgan quvvat manbai kuchlanish diapazoni;
- ✓ o‘rnatilgan kuchlanish stabilizatoriga ega;
- ✓ avtomatik tartibga solinadigan batareya zaryadlash toki;
- ✓ o‘rnatilgan ortiqcha yuklanishdan himoya, issiqlik himoyasi, shuningdek batareyaning chuqr zaryadsizlanishidan himoya qilish mavjud;
- ✓ tarmoqda uzoq vaqt davomida kuchlanish bo‘limganda qurilmalarning ishlashini qo‘llab-quvvatlash uchun tashqi batareyadan foydalanish;
- ✓ mikroprotsessorli boshqarishga(nazoratga) ega.

<https://greenchip.com.ua/36-0-0-0.html>

### Nogarmonik tebranishlar generatorlari

Ma’lumki, impulsli radiotexnikada nosinusoidal shaklli – relaksatsion tebranishlarni olish zarurati tug‘iladi[\*]. Tashqaridan mazkur tebranishlar shakli jihatidan sinusoidal tebranishlardan keskin farq qiladi. Va impuls shaklli tavsifga, ya’ni: arrasimon, to‘g‘ri burchakli, zinapoyasimon yoki murakkabroq shaklda bo‘lishi mumkin. Nogarmonik tebranishlar turidagi impuls signallar televiedenie, hisoblash-yechish texnikasi, radionavigatsiya, radiolokatsiya, radiorele aloqasi va

boshqalarda foydalaniladi. Amalda, ayrim impulslar ma'lum qaytarilish chastotasi bilan ketma-ket keladi va elektr sistemaga bir-biriga bog'liq bo'lman holda ta'sir ko'rsatadi. Natijada, navbatdagi impuls etib kelguncha oldingisining ta'siri to'xtatiladi hamda sistemav boshlang'ich qiymatini egallaydi[\*].

Sinusoidal tebranishlar generatorining elektromagnit(EM) tebranish konturida aktiv qarshilikdagi EM to'lqin tebranishining yagona davriga energiya juda kam sarflanadi. Ushbu holatdan farqli ravishda relaksatsion tebranishlar generatorida galtak va sig'im elementida hosil bo 'lgan energiya hamda aktiv qarshiliklarda sarflanadigan energiya miqdori bir xil tartibga ega bo'ladi.

[\*] Uralov B., Uralov R. Televidenie asoslari: Kasb-hunar kollejlarining talabalari uchun o'quv qo'llanma. – T.: "O'qituvchi", 2002. – 160 b.

<https://vols.expert/useful-information/princzipy-raboty-opticheskogo-kabelya/>

### **Optik tolali kabel qanday ishlaydi**

Butun dunyoda telekommunikatsiya tarmoqlarining rivojlanishi birinchi navbatda optik tolali aloqa liniyalaridan (ВОЛС-ОТАЛ) foydalanishga asoslangan.

Optik tolalarga (OB-OT) asoslangan optik tolali kabel (BOK-OTK) hozirgi vaqtida shaharlararo telekommunikatsiya magistrallari va mahalliy ma'lumotlarni uzatish tarmoqlari uchun eng ilg'or boshqaruv tizimi hisoblanadi. Bu OK ning tavsiflari bo'yicha elektr kabellaridan sezilarli darajada ustun ekanligi bilan izohlanadi.

Elektr aloqa kabellarida qurilgan liniyalar bilan taqqoslaganda, ВОЛС ning afzalliklari quyidagilardan iborat:

Kabelning keng o'tkazish polosasi (yuzlab gigagertsgacha) bir OB orqali turli maqsadlar uchun sezilarli darajada ko'proq kanallar va yo'llarni olish imkonini beradi - bitta OB orqali o'tkazuvchanlik o'nlab Gbit / s gacha bo'lishi mumkin.

OB ning past susaytirish koeffitsienti (dB/km ning o'ndan bir qismigacha) rele uchastkasining uzunligini yuzlab kilometrgacha oshirish imkonini beradi.

BOK-OTKning kichik umumiyligi o'lchamlari va og'irligi ularni ishlab chiqarish va yotqizishni osonlashtiradi.

BOK-OTK ishlab chiqarish texnologiyasini doimiy va uzlusiz takomillashtirish ularning narxini pasaytirishni ta'minlaydi. Hozirgi vaqtida kvarts OB narxi mis sim juftligining yarmidan oshmaydi.

Tashqi elektromagnit ta'sirlarning yo'qligi va BOK-OTK tolalari orasidagi o'zaro bog'liqlik axborot uzatish sifati va ishonchlilagini oshiradi.

Tashqi elektromagnit nurlanishning virtual yo'qligi aloqaning yuqori maxfiyligini, ya'ni ruxsatsiz kirishdan himoya qilishni ta'minlaydi.

Optik nurlanishning yangi manbalari, optik tolalar, fotodetektorlar va yaxshilangan xususiyatlarga ega optik kuchaytirgichlar paydo bo'lishi bilan ВОЛСning doimiy takomillashtirilishi mavjud yo'llarning sig'imini oshirishga imkon beradi.

To'liq elektr izolyatsiyasi (optik tolali - dielektrik) portlovchi muhitda ish xavfsizligini ta'minlaydi. Binobarin, ВОЛС-OTAL qurilishi va BOK-OTKnii loyihalashda rangli metallarning yo'qligi ekspluatatsiyasi jarayonida xavfsizlik shartlari yaxshilanadi.

Zamonaviy ВОЛС-OTAL larning ayrim kamchiliklari interfeys va o'rnatish uskunalarining yuqori narxidir. Shu bilan birga, optik uzatgichlar, qabul qiluvchilar va liniyaning passiv elementlarining dizaynnini takomillashtirish va ishonchlilagini oshirish optik tolali mahsulotlarni ishlab chiqarish xarajatlarini doimiy ravishda kamaytirishi va BOK-OTK va ulash elementlarini o'rnatish texnologiyasini takomillashtirish, shuningdek, uskunani soddalashtirish imkonini beradi. foydalaniladi, qurilish-montaj ishlarining mehnat sarfini sezilarli darajada pasayishiga olib keladi.

Rossiyada aloqa vazifalari uchun BOK-OTK-dan keng miqyosda foydalanishning boshlanishi Rossiyadagi eng yirik aloqa operatori - "Rostelekom" OAJ tomonidan trans-Rossiya aloqa liniyasi, xalqaro va xalqaro optik aloqa uchun milliy raqamlı transport liniyasi loyihasini amalga oshirish deb hisoblanishi kerak. uzoq masofali optik aloqa. Taxminan 1996 yildan boshlab magistral va intrazonal tarmoqlarni rivojlantirish optik tolali kabellardan foydalangan holda amalga oshirildi, bu tarmoqlarda yangi qurilish vaqtida mis o'zakli aloqa kabellaridan foydalanish deyarli to'xtatildi.

BOK-OTKnii amalga oshirishning dastlabki bosqichida ularni etkazib berish xorijiy kompaniyalar tomonidan amalga oshirildi, Rossiya kabel zavodlari ular bilan raqobatlasha olmadi. 2000 yilga kelib, vaziyat allaqachon Rossiya korxonalari foydasiga o'zgargan edi.

### **ВОЛС-OTALning asosiy elementi: optik tola**

Optik tolali kabelning (OTK) asosiy elementi - bu tolali yorug'lik o'tkazgichidir. 1014 ... 1015 Gts chastota diapazoniga to'g'ri keladigan mikronli to'lqin uzunliklari uzatiladigan tolali yorug'lik o'tkazgichi yoki, odatda, optik tola

(OT). Optik tola, qoida tariqasida, ikki qatlamlı konstruktсиyaga ega va turli xil sindirish ko'rsatkichlari n1 va n2 bo'lган yadro va qoplamadan iborat.


### **Signal optik tolalar orqali qanday uzatiladi?**

Sindirish ko'rsatkichi yuqori bo'lган muhit optik jihatdan zichroq muhit deb ataladi. Tolada bunday muhit yorug'lik tarqalish muhiti rolini o'ynaydigan yadro hisoblanadi. Yadroni o'rabi turgan qobiqning sindirish ko'rsatkichi yadronikidan bir oz kamroq bo'ladi va shuning uchun yadro va qobiq interfeysida yorug'lik aks etadi. Bu ta'sir ma'lumotni tola orqali uzatishga asoslangan.

Optik tolaning yadrosi optik tolaning markaziy hududi bo'lib, u orqali signal optik kuchining asosiy qismi uzatiladi. Eritilgan kvarts (kvarts shishasi), sof yoki kimyoviy elementlar va ularning birikmalarining aralashmalari bilan, kichik nisbatlari eritilgan kvartsning optik xususiyatlarini to'g'ri o'zgartirishga yordam beradi, OT yadrosi va qobig'i uchun dielektrik material bo'lib xizmat qiladi. Eritilgan kvarts kremniy (silikon) dioksid SiO<sub>2</sub> kimyoviy formulasiga ega bo'lган amorf, shaffof moddadir. Agar yadro elektromagnit energiyani uzatish uchun ishlatilsa, u holda qoplama yadro qoplamasini interfeysida aks ettirish uchun yaxshiroq sharoitlar yaratish, tola yadrosini mexanik shikastlanishdan himoya qilish, shuningdek, atrofdagi bo'shliqqa energiya nurlanishidan himoya qilish va tashqaridan radiatsiya kiruvchi radiatsiya kabi keraksiz narsalarni to'sish uchun ishlatiladi. Tashqarida tolani mexanik ta'sirdan himoya qilish va farqlovchi(markirlovchi) ranglarni qo'llash uchun himoya qoplamasini mavjud.

| T/r | Harfiy belgisi | Diapazoni (Chastota poyoni) | Nomlanishi                                 |
|-----|----------------|-----------------------------|--|
| 1.  | O              | 1260...1360                 | Asosiy(Original)                           |
| 2.  | E              | 1360...1460                 | Kengaytirilgan(Extended)                   |
| 3.  | S              | 1460...1530                 | Qisqa to'lqinli(short wavelength)          |
| 4.  | C              | 1530...1565                 | Standart(Conventional)                     |
| 5.  | L              | 1565...1625                 | Uzun to'lqinli(long wavelength)            |
| 6.  | U              | 1625...1675                 | O'ta uzun to'lqinli(ultra long wavelength) |

## 6.4 Sig‘imda yig‘ilgan o‘zgaruvchan tok zanjiri Sig‘imda sinusoidal tok



**6.6-rasm. Sig‘imli elektr zanjiri tasviri**

$$u_c(t) = U_m \sin \omega t;$$

$$q(t) = C u(t);$$

$$q(t) = C \cdot U_m \sin \omega t;$$

$$i(t) = \frac{dq(t)}{dt}.$$


$$i_c(t) = C \cdot \omega \cdot U_m \cos \omega t = \omega \cdot C \cdot U_m \sin (\omega t + \frac{\pi}{2})$$

$I_m = \omega \cdot C \cdot U_m$ ,  $I = \omega \cdot C \cdot U$  - Sig‘imdagi amplituda va effektiv qiyatlari uchun Om qonuni;

$b_c = \omega \cdot C$  - sig‘imning reaktiv o‘tkazuvchanligi;

$X_c = \frac{1}{b_c} = \frac{1}{\omega \cdot C}$  - sig‘imning reaktiv qarshiligi.

### Sig‘imdafi vektor diagramma



$$U_c(t) = U_m \sin \omega t;$$


$$i_c(t) = I_m \sin (\omega t + \frac{\pi}{2}).$$



-Sig‘imdagi tok unga berilgan kuchlanishdan 90 gradusga oldinda bo‘ladi(ilgarilab ketadi).

$X_L = \omega \cdot L$  - Induktiv qarshilik;

$X_C = \frac{1}{\omega \cdot C}$  - Sig‘im qarshiligi.



### Mavzuga oid pedtexnologiya

#### O‘z-o‘zini nazorat qilish savollari

1. Aktiv qarshilikda sinusoidal tok qanday o‘zgaradi ?
2. Sig‘imdagi vektor diagramma qanday quriladi?
3. Induktiv elementdagi vektor diagramma qanday quriladi?
4. Kompleks sonlari tekisligini tasvirlang va koordinata o‘qlarining fizik mohiyatini tushuntiring.
5. Vektor diagrammasini qurishda qaysi parametr doimiu bo‘lishi kerak ?
6. Sig‘im va Induktiv qarshilikning ifodalarini yozib tushuntiring.


## 7 - bob RLC zanjirini tahlil qilish

### 7.1 RLCga ketma-ket ulanish

### 7.2 RLCga parallel ulanish

#### 7.1 RLCga ketma-ket ulanish

**R, L, C lar ketma-ket ulangandagi tok**




#### 7.1-rasm. R, L, C lar ketma-ket ulangandagi elektr zanjiri

(3) ga muvofiq, biz quyidagi vektor diagrammalarini quramiz.

$\underline{U}_R = \underline{I} \cdot R$  – kuchlanish  $\underline{I}$  tok bilan ustma-ust tushadi;

$\underline{U}_L = \underline{I} \cdot jX_L$  - kuchlanish  $\underline{I}$  dan faza bo‘yicha  $90^0$  ilgarilab ketadi;

$\underline{U}_C = \underline{I} \cdot (-jX_C)$  - kuchlanish  $\underline{I}$  dan faza bo‘yicha  $90^0$  orqada qoladi.



$\underline{I} \cdot R$  - kuchlanishning qiymatini qo‘yib, quyidagini olamiz:

$$U = \sqrt{I^2 \cdot R^2 + I^2(X_L - X_C)^2} = I \sqrt{R^2 + (X_L - X_C)^2}$$

$Z = \sqrt{R^2 + (X_L - X_C)^2}$  - elektr zanjiri bir qismining to‘la qarshiligi;

$X = X_L - X_C$  – elektr zanjiri bir qismining yig‘indi reaktiv qarshiligi.

Bunda:

$Z$  – elektr zanjiri bir qismining to‘la qarshiligi;


$X$  - elektr zanjiri bir qismining to‘la reaktiv qarshiligi.

Agar elektr zanjirida bir-nechta ketma-ket ulangan induktiv qarshiliklar bo‘lsa, u holda umumiyl induktiv qarshilik ularning yig‘indisiga teng bo‘ladi

$$X_L = X_{L1} + X_{L2} + X_{L3} + \dots + X_{Ln}$$


Agar elektr zanjirida bir-nechta ketma-ket ulangan sig‘im qarshiliklari bo‘lsa, u holda umumiyl sig‘im qarshilik ularning yig‘indisiga teng bo‘ladi

$$X_C = X_{C1} + X_{C2} + X_{C3} + \dots + X_{Cn}$$



Agar 40-rasmdagi diagrammaning har bir vektorini tokga bo‘linsa, u holda biz qarshiliklar vektorini olamiz(41-rasm).

**7.2-rasm. R, L, C lar ketma-ket ulangan zanjir kuchlanishlarining vektor diagrammasi**



$$R = Z \cdot \cos\varphi$$

$$X = Z \cdot \sin\varphi$$


$$X = X_L - X_C$$

$$\varphi = \arctg \frac{X}{R} = \arctg \frac{X_L - X_C}{R}$$

**7.3-rasm. R, L, C lar ketma-ket ulangan zanjir qarshiliklarining vektor diagrammasi**

$Z = \frac{U_m}{I_m} = \frac{U}{I}$  - Elektr zanjiri bir qismining to‘la qarshiligi – qisim uchlaridagi kuchlanishning amplitudasi yoki effektiv(samarali) qiymatlarining undagi tokga nisbatiga teng.

Elektr zanjiri bir qismining to‘la qarshiligi har doim musbat bo‘ladi ( $Z>0$ ). Elektr zanjiri bir qismining reaktiv qarshiligi( $x$ ) musbat ham, yoki manfiy ham bo‘lishi mumkin. Agarda  $x>0$  bo‘lsa, u holda elektr zanjiri induktiv xarakteriga ega bo‘ladi. Bunday holda, zanjirdagi kuchlanish tokdan ilgarilab ketadi va  $\varphi>0$ . (41-rasm).




**7.4-rasm. Zanjirdagi kuchlanish tokdan ilgarilab ketadigan va  $\varphi>0$  holat uchun**

Agar  $X<0$  bo‘lsa, u holda  $X_L < X_C$ , elektr zanjiri sig‘im xarakteriga ega bo‘ladi. Unda kuchlanish tokdan ma’lum bir  $\varphi$  burchakga orqada qoladi.(43-rasm)



**7.5-rasm. Zanjirdagi kuchlanish tokdan ilgarilab ketadigan va  $\varphi>0$  holat uchun**

## 7.2 RLCga parallel ulanish




**7.6-rasm. RLCga parallel ulanish sxemasi**

Oniy tokning qiymatlari uchun Kirxgoff qonunlari amal qiladi. Kirxgoffning tugun uchun 1 - qonuni

$$i(t) = i_R(t) + i_L(t) + i_c(t)$$

Kirxgoffning tugun uchun 1 - qonuni kompleks shaklda yozamiz

$$\underline{I} = \underline{I}_R + \underline{I}_L + \underline{I}_C$$



Keling, aktiv va reaktiv o'tkazuvchanlik tushunchalarini kiritaylik


$g$  - aktiv o'tkazuvchanlik  $b_L = \frac{1}{X_L}$  - Induktivlikning reaktiv o'tkazuvchanligi

$I = U \sqrt{g^2 + (b_L - b_C)^2}$  - Ildiz ostidagi ifoda o'tkazuvchanlik o'lchamiga ega, uni  $Y$  bilan belgilaymiz.

$Y = \sqrt{g^2 + (b_L - b_C)^2}$  -  $Y$ -elektr zanjiri bir qismining to'la o'tkazuvchanligi


$b = (b_L - b_C)$  - elektr zanjiri bir qismining to‘la reaktiv o‘tkazuvchanligi.

Agarda  $b_L > b_C$  bo‘lsa, zanjir induktiv xarakterga ega, zanjirda kuchlanish tokdan ilgarilab ketadi.



Agar toklarning vektor diagrammasi (7.7-rasm) kuchlanishga bo‘linsa, biz o‘tkazuvchanlik diagrammasini olamiz (7.8-rasm).

**7.7-rasm. Parallel ulangan zanjirdagi kuchlanish tokdan ilgarilab ketadigan va  $\varphi < 0$  holat uchun toklarning vektor diagrammasi**



$$g = Y \cdot \cos\varphi$$


$$Y = \sqrt{g^2 + b^2}$$

$$b = Y \cdot \sin\varphi$$

$$\varphi = \operatorname{arctg} \frac{b}{g} = \operatorname{arctg} \frac{b_L}{b_C}$$

**7.8 –rasm. Parallel ulangan R, L va C elementli zanjirda o‘tkazuvchanlik diagrammasi**


To‘la, aktiv va reaktiv o‘tkazuvchanliklarni bog‘laydigan ekvivalent ifodalar



$$\cos\varphi = \frac{R}{Z}$$

$$\sin\varphi = \frac{X}{Z}$$

$$Z = \frac{1}{Y}$$



$$\cos\varphi = \frac{g}{Y}$$

$$\sin\varphi = \frac{b}{Y}$$

$$Y = \frac{1}{Z}$$

### O‘zgaruvchan tok zanjiridagi quvvat

#### Aktiv quvvat

$$u(t) = U_m \sin\omega t;$$

$$i(t) = I_m \sin(\omega t - \varphi).$$

Keling, oniy quvvat tushunchasini kiritaylik:

$p = u(t) i(t)$  - oniy quvvat.

Aktiv quvvat katta P harfi bilan belgilanadi hamda oniy quvvatning bir davr ichidagi o‘rtacha qiymatiga teng bo‘ladi.

$$P = UI \cos\varphi$$

Aktiv quvvatni hisoblashning boshqa formulalari:

$$P = I^2 \cdot R;$$

$$P = U_a \cdot R;$$

$$P = U \cdot I_a;$$


$$P = \frac{U^2}{R}.$$

#### Reaktiv quvvat

$$Q = UI \sin\varphi; Q = I^2 \cdot X; Q = U_p \cdot I; Q = U \cdot I_p; Q = \frac{U^2}{X}.$$

#### To‘la quvvat

Quvvatlar uchburchagi



$S = U \cdot I$  - to'la quvvat;

$P = U \cdot I \cdot \cos\varphi$  - aktiv quvvat;

$Q = U \cdot I \cdot \sin\varphi$  - reaktiv quvvat;

$S = \sqrt{P^2 + Q^2}$  - to'la quvvat;


$$\varphi = \arctg \frac{Q}{P};$$

$\cos\varphi$  - quvvat koeffitsienti.


### 7.9-rasm. Quvvatlar uchburghagi

$$P = S \cdot \cos\varphi; \quad Q = S \cdot \sin\varphi.$$

Elektr zanjiridagi aktiv quvvat vattmetr deb nomlangan qurilmalar bilan o'lchanadi.




Vattmetr



### 7.10-rasm. Vattmetrning ulanish sxemalari

Kuchlanish chulg'aming qarshiligi juda katta bo'ladi ( $Z_U=\infty$ );

Tok chulg'aming qarshiligi amalda nolga teng bo'ladi ( $Z_I=0$ ).



### 7.11-rasm.Elektr zanjirining parametrlarini voltmeter, ampermetr va vattmetr bilan aniqlash sxemasi

Elektr zanjirining parametrlarini ( $Z$ ,  $R$ ,  $L$ ,  $C$ ,  $X$ ) sxemaga kiritilgan asboblarni o‘lchash natijalariga ko‘ra aniqlash kerak.

Hisob - kitoblarda biz ampermetrning va vattmetrning tokli chulg‘ami qarshiligi nolga teng, vattmetrning voltmetr va kuchlanish chulg‘ami qarshiligi esa cheksizlikka teng deb hisoblaymiz.



#### Mavzuga oid pedtexnologiya

#### O‘z-o‘zini nazorat qilish savollari

1. O‘zgaruvchan tok deb nimaga aytiladi?
2. EYuK manbasi nima?
3. Elektr zanjiri nima? Amalda ishlatiladigan elektr uskunalarini ekvivalent elektr zanjirlari misolida izohlang.
4. Kuchlanish va tok manbalari nima?
5. Elektr zanjirining bir qismi va to‘liq elektr zanjiri uchun Om qonunlari qanday ifodalanadi.
6. Elektr zanjiri uchun Kirxgofning ikkinchi qonuni qanday ifodalanadi?
7. Har xil quvvatga ega bo‘lgan yoritgichlarni ketma - ket ulab bo‘ladimi?
8. Elektr zanjiri uchun quvvat balansi nima?
9. Parallel ulangan rezistorlardan iborat elektr zanjiri uchun Kirxgofning birinchi qonuni ifodasini yozing.
10. Keltirilgan elektr zanjir uchun ekvivalent qarshilik qanday hisoblanadi?

11. Parallel ulangan zanjirda bir qarshilikning o‘zgarishi boshqa rezistorlardan o‘tadigan tokka ta’sir qiladimi?
12. Elementning VAX si deb nimaga aytildi?
13. Kirxgofning birinchi qonunining fizik ma’nosini qanday tushundingiz?

## **8 - bob Elektr zanjirlarida rezonans hodisasi**

### **8.1 Tebranish konturlari**

#### **8.2 Elektr zanjirlarida rezonans hodisasi**

### **8.1 Tebranish konturlari**

O‘zgaruvchan tok zanjirlarida reaktiv qarshiliklar har xil qiymatga ega yoki har xil nisbatda, ya’ni  $X_L > X_C$ ,  $X_L < X_C$  yoki  $X_L = X_C$  bo‘lishi mumkin. Ba’zi hollarda esa reaktiv qarshilik umuman  $X=0$  bo‘lishi mumkin. Bunday holda elektr zanjiri aktiv xarakterga ega bo‘lib zanjirning toki va kuchlanishi fazasini bo‘yicha ustma-ust tushadi yoki  $\phi=0$  bo‘ladi. Bu holda zanjirda rezonans hodisasini kuzatish mumkin bo‘ladi.

$R$ ,  $L$  va  $C$  elementlardan tashkil topgan elektr zanjirining xususiy chastotasi quyidagiga teng:

$$\omega_{\text{rez}} = \frac{1}{\sqrt{L \cdot C}}$$

Agar ushbu  $\omega_{\text{rez}}$  chastota elektr manbai chastotasi  $\omega=2\pi f$  bilan o‘zaro tenglashsa u holda zanjirning reaktiv qarshiliklari  $X_L = X_C$  bo‘ladi va reaktiv elementlardagi kuchlanish yoki tok quyidagiga teng:


$$|U_L| = |U_C|, \quad |I_L| = |I_C|$$

Bunday holda reaktiv elementlar  $L$  va  $C$  da kuchlanish modul bo‘yicha o‘zaro teng yoki manba kuchlanishiga nisbatan bir necha marta ortib ketishi mumkin. Bunday holat zanjirda rezonans ro‘y bergan holda kuzatiladi.

Elektr zanjirida rezonans rejimlari elektrotexnikada, radiotexnikada, avtomatik boshqaruva va aloqa tizimlarida keng qo‘llaniladi.

Ba’zi hollarda esa elektr zanjirlarida rezonans hosil bo‘lishi ba’zi – bir avariya vaziyatlarni keltirib chiqaraishi (masalan, uzatish liniyalari va transformatorlarda) mumkin.

## Tebranma konturdagi fizik jarayonlar.



### 8.1-rasm. L va C elementlardan iborat tebranma kontur

Yuqorida keltirilgan 8.1-rasmda elektr zanjiridagi fizik jarayonni tahlil qilamiz. Agar ulab – uzhgich 1 holatga ulansa u holda kondensator manbagaga ulanadi va \$E\$ qiymatigacha zaryadlana boshlaydi. Bu holda zanjirdan zaryad toki o‘tadi va u kondensator to‘la zaryadlangan holda toki 0 ga teng bo‘ladi.

Zaryad toki:

$$i_{zar} = \frac{(E - u_c)}{R}$$

Kondensator zaryadlanish paytida uning elektr maydon energiyasi:

$$W_c = \frac{CU^2}{2}$$


Demak, kondensator elektr energiya manbaiga aylanadi.

Agar ulab – uzhgich 2 holatga o‘zgartirilsa zaryadlangan kondensator ideal g‘altakka ulanadi. U holda kondensator zaryadsizlana boshlaydi va zanjirning o‘ng tomonidagi konturda razryad toki paydo bo‘ladi. Bu razryad toki esa esa induktiv g‘altak atrofida magnit madon va uning energiyasi paydo bo‘ladi.

Agar zanjirning aktiv qarshiligi \$R=0\$ bo‘lsa u holda kondensator to‘la zaryadsizlangan holda uning barcha elektr maydon energiyasi g‘altak magnit maydoni va uning energiyasiga aylanadi. Bu holda magnit maydon energiyasi o‘zining maksimum qiymatiga erishadi, ya’ni:

$$W_L = \frac{LI^2}{2}$$

Demak, bu holda zanjirdagi tok o‘zining amplituda qiymatiga yetadi. Bu fizik jarayon esa quyidagi grafiklarda aks etgan (8.2-rasm).




**8.2-rasm.**  $U_c$ ,  $E$  va  $i$  parametrlarining vaqtga bog'liqlik tebranishlari tasviri

Davrning birinchi  $1/4$  qismi oxirida tok maksimum, ammo kondensatordagi kuchlanish  $U_c$  va EYuK  $E$  nolga teng va g'altakning magnit maydoni maksimum. Davrning ikkinchi  $1/4$  qismida esa tok manbadan ta'minlanmaganligi uchun 0 gachga kamayadi. Bu holda magnit maydon ham kamaya boshlaydi. G'altak energiya manbaiga aylanadi.

Kondensator zaryadlana boshlaydi, ammo bu holda u teskari qutb bilan zaryadlanadi(8.2-rasm). Davrning ikkinchi  $1/4$  qismi oxirida kondensator yana to'liq zaryadlanadi. Tok yana 0 ga teng bo'ladi. Erkin elektronlarning kondensatorning pastki qoplamasidan yuqori qoplamasiga harakati natijasi esa zaryad tokini tashkil etadi. Davrning uchinchi va to'rtinchi  $1/4$  qismida esa davrning birinchi va ikkinchi  $1/4$  qismi bilan bir xil fizik jarayon ro'y beradi.

Demak  $LC$  zanjirda elektr va magnit maydon energiyalarining uzluksiz bir – biriga aylanishi ro'y beradi. Shuning uchun bunday zanjir tebranish zanjiri deb ataladi.

Real zanjir aktiv qarshilikka ega bo'ladi va kondensator zaryadlanganda hosil bo'lgan energiya aktiv qarshilikda issiqlikka aylanadi. Natijada energiya zahirasi kamayib boradi, kondensatorning navbatdagi zaryadsizlanishida kuchlanish kamayadi va tok amplitudasi ham kamayib boradi (8.3-rasm).




### 8.3-rasm.Kondensatorning zaryadsizlanishidagi tokning kamayish tasviri

Demak zanjirdagi erkin tebranish so‘nuvchandir. Zanjirda aktiv qarshilikning mavjud bo‘lishi erkin tebranishning davri va chastotasiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Aktiv qarshilik qancha katta bo‘lsa kondensatning zaryadlanish va razryadlanish vaqtini ham shuncha katta bo‘ladi.

## 8.2 Elektr zanjirlarida rezonans hodisasi

### Elementlari ketma-ket ulangan real zanjirda rezonans. Kuchlanish rezonansi.

R, L va C elementlari ketma-ket ulangan zanjir berilgan bo‘lsin. Bunday zanjirda rezonans quyidagi holda yuzaga keladi:



### 8.4-rasm. R, L va C elementlari ketma-ket ulangan zanjir tasviri

$$X = X_L - X_C = 0 \text{ yoki}$$

$$X_L = X_C$$

$$\omega L = \frac{1}{\omega C}$$

Reaktiv qarshiliklar o‘zaro teng bo‘lgan holda zanjirning to‘la qarshiligi esa quyidagicha:

$$Z = \sqrt{R^2 + (X_L - X_C)^2} = R$$

Demak rezonansli zanjirda zanjirning to‘la qarshiligi minimal, tok esa o‘zining maksimal qiymatiga ega bo‘ladi:

$$I = \frac{U}{Z} = \frac{U}{R}$$

Nazariy holda  $R=0$  bo‘lganda zanjirning to‘la qarshiligi ham 0 ga teng bo‘ladi. Bu holda zanjirdagi tok esa cheksiz katta qiymatga ega bo‘ladi. Shu tufayli induktivlik va sig‘imdagи kuchlanish ham cheksiz katta bo‘lishi mumkin. Rezonans paytida L va C da kuchlanish teng shuning uchun bu rezonans kuchlanish rezonansi ham deb ataladi.

$$U_L = I \cdot X_L;$$

$$U_C = I \cdot X_C;$$

$$U_L = U_C.$$

Zanjirning umumi kuchlanishi:

$$U = \sqrt{U_R^2 + (U_L - U_C)^2} = U_R$$

Reaktiv qarshiliklarning bir – biriga teng bo‘lishi rezonans sharti deb ataladi, ya’ni (6.4) ifodaga qarang, undan esa zanjirning rezonans chastotasini topish mumkin:


$$\omega_0 = \frac{1}{\sqrt{L \cdot C}}$$

$$2\pi f_0 = \frac{1}{\sqrt{L \cdot C}}$$


$$f_0 = \frac{1}{2\pi\sqrt{L \cdot C}}$$

Demak zanjirda manba kuchlanishi chastotasini o‘zgartirish bilan yoki L hamda C ni rostlash bilan rezonans hosil qilishi mumkin.

Rezonansli zanjirning tok va kuchlanishlari sinusoidal grafiklari va vektor diagrammasi quyidagi 8.5- va 8.6- rasmlarda keltirilgan.



**8.5-rasm. Rezonansli zanjirning tok va kuchlanishlari sinusoidal grafiklari tasviri**



**8.6-rasm. Rezonansli zanjirning tok va kuchlanishlari vektor diagrammasi tasviri**


Rezonans egri chiziqlari va chastota tavsifi:

Zanjirdagi tok va elementlarda kuchlanishlarning chastotaga bog'liqlik grafiklari rezonans egri chiziqlari deb ataladi. Faraz qilaylik zanjirga berilayotgan kuchlanish sinusoidal bo'lib uning amplitudasi o'zgarmas va chastota 0 dan  $\infty$  gacha o'zgarsin. Chastotaning o'zgarishi esa zanjir parametrlarining, reaktiv qarshiliklarininig va to'la qarshilikning hamda tok va kuchlanishlar orasidagi faza


burchagining o‘zgarishiga sabab bo‘ladi. Zanjir parametrlarining chastotaga bog‘liqlik grafiklari esa zanjirning chastota tavsiflari deb ataladi.

Quyida rasmlarda zanjirning chastota tavsifi va rezonans egri chiziqlari keltirilgan.

Rezonans egri chiziqlari va chastota tavsifi:



**8.7–rasm. Zanjirning chastota tavsifi**



**8.8–rasm.Zanjirning rezonans egri chiziqlari**

Kuchlanish rezonansli zanjirning xususiyatlari:


1.  $\omega_0=\omega$  bo‘lganda  $\varphi = 0$  bo‘lib zanjir kuchlanishi va toki faza bo‘yicha mos va zanjir aktiv xarakterga ega.
2.  $\omega_0 < \omega$  bo‘lganda  $X_L > X_C$  bo‘lib zanjir aktiv – induktiv xarakterga ega.

3.  $\omega_0 > \omega$  bo‘lganda  $X_L < X_C$  bo‘lib zanjir aktiv – sig‘imiy xarakterga ega.
4. Zanjirming to‘la qarshiligi minimal bo‘lib  $Z=R$ .
5. Zanjirdagi tok maksimal va  $I = \frac{U}{R}$
6. L va C dagi kuchlanish manba kuchlanishidan bir necha marta katta yoki  $U_r=U$ .

7. Zanjirda magnit va elektr maydon energiyasi almashinuvni ro‘y beradi va manbagaga energiya qaytarilmaydi. Manbadan faqat aktiv qarshilikda sarflanadigan energiya uzatiladi. Shu tufayli so‘nmaydigan tebranish hosil qilinadi.

### **Elementlari parallel ulangan zanjirda rezonans. Toklar rezonansi.**

Aktiv qarshiliklari  $R_1$  va  $R_2$  bo‘lgan ikkita reaktiv elementlari parallel ulangan zanjirni tahlil etamiz(8.9-rasm).



**8.9-rasm.Elementlari parallel ulangan zanjir tasviri**

Bunday zanjirda quyidagi holda rezonans ro‘y beradi:

$$\underline{y} = g - jb = \underline{y}_1 + \underline{y}_2 = \frac{1}{R_1 + j\omega L} + \frac{1}{R_2 - j\frac{1}{\omega C}}$$


Zanjir o‘tkazuvchanligining reaktiv tashkil etuvchilari:

$$b = b_1 + b_2 = 0 \text{ yoki } b_2 = -b_1$$

Bu yerda

$$b_1 = \frac{\omega L}{R_1^2 + (\omega L)^2}$$

$$b_2 = \frac{-1/\omega C}{R_2^2 + (1/\omega C)^2}$$



## Mavzuga oid pedtexnologiya

### O‘z-o‘zini nazorat qilish savollari

1. O‘zgaruvchan tok zanjirida rezonans hosil bo‘lish shartlarini ayting.
2. Kondensatorda qanday turdagি energiya hosil bo‘ladi?
3. Induktiv g‘altakda qanday turdagи energiya hosil bo‘ladi?
4. Oddiy elektromagnit tebranish konturini tasvirlang.
5. Rezonansga erishish uchun qaysi parametrlar o‘zgartiriladi ?
6. Elektr zanjirining bir qismi uchun Om qonunlari qanday ifodalanadi.
7. Tomson qonuni qanday ifodalanadi?
8. Elementlari ketma-ket ulangan zanjirda sodir bo‘ladigan rezonansni tushuntiring.
9. Elementlari parallel ulangan zanjirda sodir bo‘ladigan rezonansni tushuntiring.

## **9 - bob Uch fazali elektr zanjiri**

### **9.1 Uch fazali elektr zanjiri haqida asosiy tushuncha**


### **9.2 Balansli va muvozanatsiz zanjirlar(simmetrik va nosimetrik)**

### **9.3 Fazalarni energiya manbai va iste'molchiga yulduzsimon va uchburchak shaklida ularash**

#### **9.1 Uch fazali elektr zanjiri haqida asosiy tushuncha**

**Uch fazali zanjirlar bir fazali zanjirlarga nisbatan bir qator afzalliklarga ega:**

1. Energiya uzatishning iqtisodiyligi
2. Aylanuvchi magnit maydon momentini olish imkoniyati
3. Bitta qurilmada ikki xil kuchlanishni olish mumkinligi



A,B,C – fazalarning boshlanishi X,Y,Z – fazalarning tugashi

#### **9.1–rasm. Uch fazali generatorning qirqimi**


Uch fazali sxemaning asosiy elementlari:

- 1.Uch fazali generator;
- 2.Uzatish liniyalari;
- 3.Qabul qiluvchilar (iste'molchilar)

Generatorning asosiy elementlari:

1.Qo‘zg‘almas stator (uchta chulg‘amdan iborat); 2.Aylanadigan rotor (elektromagnit)

### Uch fazali EYuK tizimi




$$e_A = E_m \sin \omega t$$


$$e_B = E_m \sin (\omega t - \frac{2\pi}{3})$$

$$e_C = E_m \sin (\omega t + \frac{2\pi}{3})$$

### Simmetrik EYuK tizimining vektor diagrammasi




### Ta'minot manbalarining fazalarini ulash usullari yulduzsimon ulanish




9.2–rasm. Uch fazali to‘rt simli manbaa sxemasi

Faza kuchlanishi har bir fazaning boshi va oxiri orasidagi kuchlanishni bildiradi. Musbat yo‘nalishlar:  $U_{AN}$ ,  $U_{BN}$ ,  $U_{CN}$  ni  $U_A$ ,  $U_B$ ,  $U_C$  deb nomlash qabul qilingan. Ikki fazaning bosqlanishi orasidagi kuchlanishga Liniya kuchlanishi deb aytildi, ya’ni  $U_{AB}$ ,  $U_{BC}$ ,  $U_{CA}$



$$U_L = \sqrt{3}U_f$$


$$I_L = I_f$$



$$I_L = \sqrt{3}I_f$$


$$U_L = U_f$$

Ta’mnot manbasi simlarini va iste’molchi fazalarini yulduzsimon ulanishi




**9.3-rasm. Uch fazali to‘rt simli elektr ta’mnot sxemasi**


## Vektorli diagrammalar tuzishning umumiy qoidasi




### Simmetrikli yuklama shartlari:



### Neytral simli nosimmetrik yuklama shartlari:



**Iste'molchilar fazalarining uchburchak ulanishi:**



**9.4-rasm. Iste'molchilar fazalarining uchburchak ulanish sxemasi**

Iste'molchining fazaviy kuchlanishlari elektr ta'minotining mos keladigan liniyalı kuchlanishiga teng.

$$\dot{U}_{ab} = \dot{U}_{AB}$$

$$\dot{U}_{bc} = \dot{U}_{BC}$$

$$\dot{U}_{ca} = \dot{U}_{CA}$$

$$U_L = U_F$$

Liniya toklari Kirxgofning birinchi qonuniga binoan faza toklar bilan quyidagicha aniqlanadi

$$I_A = I_{ab} - I_{ca}$$

$$I_B = I_{bc} - I_{ab}$$

$$I_C = I_{ca} - I_{bc}$$

$$I_L = \sqrt{3} I_F$$

$$\dot{I}_A + \dot{I}_B + \dot{I}_C = 0$$

Uch fazali elektr energiyasi manbasining oniy quvvati:

$$p = p_A + p_B + p_C = u_A i_A + u_B i_B + u_C i_C$$

Bir davrdagi quvvatning o‘rtacha qiymati:

$$P = \frac{1}{T} \int_0^T p dt = P_A + P_B + P_C = U_A I_A \cos \varphi_A + U_B I_B \cos \varphi_B + U_C I_C \cos \varphi_C$$

Nosimmetrik yuklamada uch fazali elektr quvvati

**Aktiv quvvat:**



$$P = P_a + P_b + P_c$$

**Reaktiv quvvat:**



$$Q = Q_a + Q_b + Q_c$$



$$P = P_{ab} + P_{bc} + P_{ca}$$



$$Q = Q_{ab} + Q_{bc} + Q_{ca}$$

$$P_f = U_f I_f \cos \varphi_f = R_f I_f^2$$

$$Q_f = U_f I_f \sin \varphi_f = X_f I_f^2$$

Uch fazali zanjirning to‘la quvvat moduli:

$$S = \sqrt{P^2 + Q^2}$$

Simmetrik yuklamada uch fazali quvvat

$$P = 3P_f = 3U_f I_f \cos \varphi_f$$

$$Q = 3Q_f = 3U_f I_f \sin \varphi_f$$

$$S = 3S_f = 3U_f I_f$$

Simmetrik yuklamada uch fazali zanjirning quvvati

Yulduzli sxemada ulanish:

$$U_f = \frac{U_L}{\sqrt{3}}$$

$$I_L = I_f$$

$$P = 3\left(\frac{U_L}{\sqrt{3}}\right)I_L \cos \varphi_f = \sqrt{3}U_L I_L \cos \varphi_f$$

Uchburchak sxemada ulanish:

$$I_f = \frac{I_L}{\sqrt{3}}$$

$$U_L = U_f$$

$$P = 3\left(\frac{I_L}{\sqrt{3}}\right)U_L \cos \varphi_f = \sqrt{3}U_L I_L \cos \varphi_f$$

Simmetrik yuklamada, iste'molchining ulanishidan qat'i nazar, quvvat formulalari bir xil bo'ladi.

## Uch fazali zanjirlar bir fazali zanjirlarga nisbatan quyidagi afzalliklarga ega:

**1. Energiya uzatishning iqtisodiyligi**

**2. Aylanuvchi magnit maydon momentini olish imkoniyati**

**3. Bir qurilmada ikki xil kuchlanishni olish mumkinligi**

### Mavzuga oid pedtexnologiya

#### O‘z-o‘zini nazorat qilish savollari

1. Uch fazali zanjirlar bir fazali zanjirlarga nisbatan qanday afzalliklarga ega?
2. Uch fazali zanjirlarda energiya uzatishning iqtisodiyligi nimalar bilan bog'langan ?
3. Uch fazali sxemaning asosiy elementlarini ayting.
4. Uch fazali generator qirqimini tasvirlang.
5. Simmetrik yuklamada uch fazali elektr quvvati qanday hisoblanadi?
6. Nosimmetrik yuklamada uch fazali elektr quvvati qanday hisoblanadi?
7. Yulduzsimon sxemada ulanish uchun liniya va faza toklar hamda kuchlanishlarini yozing
8. Uchburchak sxemada ulanish uchun liniya va faza I va U larini yozing.

## **10-bob Yarim o‘tkazgich materiallari haqida tushuncha va ularning tuzilishi.**

### **O‘tkazuvchilar turlari**

**10.1 Qanday materiallar yarim o‘tkazgichlar deb hisoblanadi va nima uchun**

**10.2 Kovalent aloqalar(bog‘lanishlar)**

**10.3 Energiya darajasi (Energetik sath) va zonalari**

**10.4 Elektr zaryadlari - elektronlar va g‘ovaklar(teshiklar)**

**10.5 p va n tip(tur)dagi o‘tkazuvchanlik**

**10.6 Xususiy va aralashmali o‘tkazuvchanlik.**

**10.7 Yarimo‘tkazgichlarda zaryad o‘tkazish(ko‘chirish) jarayonlari**

**10.1 Qanday materiallar yarim o‘tkazgichlar deb hisoblanadi va nima uchun**


Yarimo‘tkazgich deb solishtirma o‘tkazuvchanligi metallardan katta, dielektriklardan kichik bo‘lgan jismlarga aytildi. Har qanday jismni solishtirma o‘tkazuvchanlik xossasi, jismning ichki tuzilishini, ularni tarkibida (atomida) elektronlarni qanday joylashganiga(strukturasiga) bog‘liq bo‘ladi.

Yarimo‘tkazgichlar o‘tkazuvchanligi jihatidan metall va dielektriklar orasidagi moddalar bo‘lib, o‘z fizik xususiyatlarini turli tashqi ta’sirlar (masalan: yoritish, isitish va hokazo) natijasida keng intervalda o‘zgartira olish xususiyatiga ega. Yarimo‘tkazgichlar elektronika va mikroelektronikada juda keng qo‘llanilib, zamонавиј elektr jihozlarning deyarli hammasi - kompyuterlardan tortib to uyali aloqa telefonlarigacha barchasi yarimo‘tkazgichli texnologiyaga asoslangan. Eng keng qo‘llaniladigan yarimo‘tkazgich modda kremniy bo‘lib, boshqa moddalar ham keng qo‘llaniladi.

Yarimo‘tkazgichlar-elektr tokini yaxshi o‘tkazuvchi moddalar (o‘tkazgichlar, asosan, metallar) va elektr tokini amalda o‘tkazmaydigan moddalar (dielektriklar) orasidagi oraliq vaziyatni egallaydigan moddalar. Mendeleyev davriy sistemasida II, III, IV, V va VI guruhlarda joylashgan ko‘pchilik elementlar. Ularning bir qator birikmalari yarimo‘tkazgichlar jumlasiga kiradi. Yarimo‘tkazgichlarda ham metallardagi kabi elektr o‘tkazuvchanlik elektronlarning harakati tufayli yuzaga keladi. Biroq elektronlarning harakatlanish sharoitlari metallar va yarimo‘tkazgichlarda turlicha bo‘ladi. Yarimo‘tkazgich quyidagi asosiy xususiyatlarga ega: yarimo‘tkazgichning elektr o‘tkazuvchanligi harorat ko‘tarilishi bilan ortib boradi (masalan, harorat 1 K ga ortganda yarimo‘tkazgichning solishtirma o‘tkazuvchanligi 16-17 marta ortadi); yarimo‘tkazgichning elektr o‘tkazuvchanligida erkin elektronlardan tashqari atom bilan bog‘langan elektronlar ham ishtirok etadi (ba’zi hollarda bog‘langan elektronlar asosiy rol o‘ynaydi); sof yarimo‘tkazgichga oz miqdorda qo‘shilma

kiritib, uning o‘tkazuvchanligini keskin o‘zgartirish mumkin (masalan, 0,01% qo‘shilma kiritilganda yarimo‘tkazgichning o‘tkazuvchanligi 10000 marta ortib ketadi). Tabiatda mavjud bo‘lgan mikroskopik jismlar molekulalardan, molekulalar esa atomlardan tuzilgandir. (quyidagi rasmga qarang)

Atomlar yadrosi “musbat” zaryadlangan, yadroning atrofida elektron aylanib turadi, uning zaryadi “manfiy”dir. Yadro bilan elektronlar orasida tortishish kuchi doimiy o‘zaro muvozanat holatida turadi.





**10.1–rasm. Tabiatda mavjud bo‘lgan mikroskopik jismlar molekulalardan, molekulalar esa atomlardan tuzilganligi tasviri**

$$F_{yadro} = F_e \dots \dots F_{yadro} = \frac{q_e q_n}{R^2} \dots \dots F_e = \frac{m_0 v_0^2}{2}$$

Atom yadrosi atrofida elektronlar ma’lum orbita bo‘ylab harakatlanadi. Orbitadagi har bir elektron ma’lum energiyaga ega. Kimyoviy elementlarda elektronlarning orbitalar bo‘ylab harakatlanishiga qarab, ular shartli ravishda o‘tkazgichlar, dielektriklar va yarimo‘tkazgichlarga bo‘linadi.

| O‘tkazgichlar  | Dielektriklar   | Yarimo‘tkazgichlar  |
|--|---|---|
| Jismda elektr zaryad-lari sirt bo‘yicha erkin harakatlana olsa, bunday jismlar o‘tkazgichlar deb yuritiladi.               | Jism atomida elektronlar yadro bilan mustahkam bog‘langan bo‘lsa, bunday jism dielektriklar (izolyatorlar) deyiladi.    | O‘tkazgich va dielektriklar orasidagi jismlar yarimo‘tkazgichlar deyiladi.  |
| O‘tkazgichlarga metallarni hamma turi, elektrolitlar, tuzlar, kislotalar, ishqoriy eritmalar va qizdirilgan gazlar kiradi. | Dielektriklarga qaxrab, ebonit, shisha, chinni, kauchuk, moylar, oltingugurt, slyuda, normal sharoitdagi gazlar kiradi. | Yarimo‘tkazgichga kremniy, germaniy, tellur, metall oksidlari, sulfidlar va boshqa shu kabi xossalarga ega bo‘lgan moddalar kiradi. |

## Yarimo‘tkazgichli asboblarning elektr chizmalarda belgilanishi.

| T/r. | Yarim o‘tkazgich nomi  | Chizmada belgilanishi   |
|------|--|---|
| 1    | 2  | 3   |
| 1    | Yarim o‘tkazgichli to‘g‘rilagich diodi                         |    |
| 2    | Tunelli diodlar  |    |
| 3    | Teskarilangan diodlar  |    |
| 4    | Bir tomonlama o‘tkazuvchan diodlar(stabiletron)                |    |
| 5    | Ikki tomonlama o‘tkazuvchan diodlar(stabililtron)              |    |
| 6    | Varikap diodlar  |    |
| 7    | Diodli tiristorlar   |  |
| 8    | Anodi boshqariladigan tiristorlar                              |  |
| 9    | Katodi boshqariladigan tiristorlar                             |  |
| 10   | Anodi boshqariladigan va ochib yopiladigan tiristorli diodlar  |  |
| 11   | Katodi boshqariladigan va ochib yopiladigan tiristorli diodlar |  |
| 12   | Nur sochuvchi diodlar  |  |
| 13   | Juft diodlar (optopora)  |  |
| 14   | Juft tiristorli diordlar                                       |  |

Barcha ishlab chiqarilgan diodlar tashqi harorati 60-70°C bo‘lganda ham nuqsonziz va behato ishlayveradi.

## 10.2 Kovalent aloqalar(bog‘lanishlar)

**Kovalent bog‘lanish** - bu metall bo‘lman elementlarning ikkita atomini birlashtirib, molekula hosil qiluvchi kuch. Ushbu birikmaning asosiy jihat shundaki, atomlar o‘zaro bog‘lanish natijasida hosil bo‘lgan molekulaning barqarorligiga erishish uchun elektronlarning juftliklarini o‘zlarining eng yuzaki qatlamidan (valentlik qatlami deb ataladi) bo‘lishadi.

Elementlarning barqaror konfiguratsiyaga erishish tendentsiyasi **oktet qoidasi** deb nomlanadi(mazkur qoidaga binoan - atomlar tashqi qatlamida 8 ta elektron bo‘lgunga qadar elektronlarni beradi yoki qabul qiladi) va bu kovalent bog‘lanishlar va boshqa turdagи kimyoviy bog‘lanishlarning (masalan, ionli) hosil bo‘lishi uchun juda muhimdir.

Atomlarning elektronlarni jalb qilish qobiliyatiga qarab, kovalent bog‘lanishlar **qutbli** va **qutbsiz** bo‘lishi mumkin. Ular, shuningdek, qancha elektroni bo‘lishiga qarab, bitta, ikki yoki uch marta bo‘lishi mumkin.

### Kovalent bog‘lanishlarning xususiyatlari

- Kovalent aloqalar qutbsiz bo‘lganda, ya’ni atomlarning elektr manfiyligi o‘xhash bo‘lganda barqarorroq bo‘ladi.
- Ular faqat metall bo‘lman elementlar (kislород (**O**), vodorод (**H**), azot (**N**) va boshqalar orasida hosil bo‘ladi.
- Elektronlar har doim juft juft (to‘rt elektron) yoki uch (oltita elektron) bog‘lanishda bo‘linadi.

### Kovalent bog‘lanishlarning xususiyatlari

Kovalent bog‘lar bog‘lanish atomlarining elektr manfiyligi va ular orasida taqsimlangan elektronlar soniga qarab tasniflanadi.

Molekula bir nechta atomlardan iborat. Agar ko‘proq intensivlik bilan elektronlarni o‘ziga tortadigan atom bo‘lsa, molekulaning o‘sha qismida elektronlarning katta kontsentratsiyasi hosil bo‘ladi. Ushbu hodisa qutblanish deb ataladi.

Molekulaning elektronlar kontsentrlangan qismi qisman salbiy zaryadga ega, molekulaning boshqa mintaqasi esa musbat qisman zaryadga ega.

Shu sababli, bog‘lanishning bu turi “qutbli“ deb nomlanadi, chunki u yerda molekulani tashkil etuvchi elektronlarning notekis qutblanishi yoki taqsimlanishi mavjud.

Suv molekulasida ( $H_2O$ ), kislород atomi eng yuqori qutblanuvchidir, shuning uchun u elektronlarni vodoroddan tortib oladi.


## Qutbsiz kovalent bog'lanish

Bu bir xil yoki juda o'xshash elektromanfiylikka ega bo'lgan atomlar o'rtaida juft juft elektronlar bo'lishganda paydo bo'ladi. Bu elektronlarning teng taqsimlanishiga yordam beradi. Ikki vodorod atomidan tashkil topgan vodorod molekulasi ( $H_2$ ) qutbsiz kovalent bog'lanishning misoli.



### Kovalent boglanishning koefitsienti

Ushbu turdag'i bog'lanish ushbu nomni oladi, chunki bog'lanishdagi atomlardan faqat bittasi o'z elektronlarini qo'shami. Ushbu atom deyish, elektronlarni qabul qiladigan atom esa retseptorlar atomi deb ataladi. Grafik jihatdan u o'q bilan aniqlanadi.

Suvning molekulasi( $H_2O$ )



Vodorodning molekulasi( $H_2$ )




### 10.2–rasm. Vodorodli molekulalar tasviri

Vodorod ioni yoki gidroniy ioni molekulasida ( $H_3O^+$ ), kislород vodorod ioniga (proton) bir juft elektronni qo'shami.

## Oddiy kovalent bog‘lanish

Bu har bir atom bog‘lanishdagi elektron juftligini to‘ldirish uchun elektronni bo‘lishganda paydo bo‘ladi.




**10.3-rasm. Xlor molekulasining tasviri**

Xlor molekulasi ( $\text{Cl}_2$ ) atomlar har birida valentlik qobig‘ida 8 ta elektronni to‘ldirish uchun elektronni bo‘lishganda hosil bo‘ladi.

### 10.3 Energiya darajasi (energetik sath) va zonalari

Kristall jismlarda elektr o‘tkazuvchanlik xossasi paydo bo‘lishi uchun unda ishtirok etuvchi elektronlar “valentlik” elektronlardir.



**10.4-rasm. Yarim o‘tkazgichlarni energetik diagrammasi**

Chunki, energetik diagrammada eng oxirgi to‘ldirilgan yoki qisman to‘ldirilgan energetik zonalardagi valentlik elektronlardir. Shu sababli, yarim o‘tkazgichlarda


T=0 da oxirgi to‘ldirilgan energetik zona “valentlik zonası” deb, keyingi bo‘sh zonani esa “o‘tkazuvchanlik zonası” deb yuritiladi. To‘ldirilgan zona “valentlik zona” faqatgina absolyut nol haroratda elektronlar bilan to‘lgan bo‘lib, “o‘tkazuvchanlik zonası” esa butunlay bo‘sh bo‘ladi. Yuqori haroratlarda esa valentlik zonasida elektronlar bilan band qilinmagan energetik sathlar, “o‘tkazuvchanlik zonasida” esa band qilingan energetik sathlar mavjud bo‘ladi (yuqoridagi rasm). Bundan ko‘rinadiki, harorat pasayib borishi bilan yarim o‘tkazgichlarning elektr o‘tkazuvchanligi kamayib, “izolyatorga” yaqinlashib boradi. Absolyut nol haroratga yaqinlashib borsa yarim o‘tkazgich izolyatorlik xossaga aylanib boradi.

#### **10.4 Elektr zaryadlari - elektronlar va g‘ovaklar(teshiklar)**

*Elektr razryadi* - elektrlangan jismlarning tashqi ta’sir natijasida zaryad yo‘qotishi. Akkumulyatorlar va boshqalar kimyoviy elektr manbalarida, kondensatorlarda turli ishorali zaryadlar bilan zaryadlangan o‘tkazgichlar o‘zaro ta’sirlashganda sodir bo‘ladi. Elektr razryadi gaz, vakuum va dielektriklarda ham ro‘y beradi. Gazdan tok o‘tishi gaz razryadi deb ataladi. Gaz razryadning mustaqil va nomustaqlil turlari mavjud. Gazning o‘tkazuvchanligi ionizatorga bog‘liq bo‘lsa, nomustaqlil, tashqi ta’sirsiz gazdan tok o‘tsa, mustaqil razryad bo‘ladi. Gazlarning xossa va holatlariga, elektrodlarning materiali, shakli, o‘lchamlari va o‘zaro joylashishiga, elektrodlardagi kuchlanish kattaligiga bog‘liq ravishda mustaqil razryadning miltillama razryad, yoy razryad, toj razryad, uchqun razryad, yashin kabi turlari kuzatiladi. Miltillama razryad gazda past bosimlarda kuzatiladi. Bunda elektrodlar orasidagi masofa 30-50 sm, elektrodlardagi kuchlanish o‘zgarmas va bir necha yuz voltga teng bo‘ladi. Nurlanishning rangi nay ichiga to‘ldirilgan gaz turiga bog‘liq. Bu xildagi razryad kunduzgi yorug‘lik lampalarida, gaz razryadli naylor dekoratsiya maqsadlarida yoki reklama yozuvlarida ishlataladi. Yuqori chastotali o‘zgaruvchan elektr maydon ta’sirida yuqori chastotali gaz razryad paydo bo‘ladi. Yuqori chastotali razryaddan spektroskopiyada yorug‘lik manbai sifatida, texnikada tok yo‘nalishini o‘zgartirish, o‘zgaruvchan tokni o‘zgarmas tokka aylantirish bilan bog‘liq bo‘lgan ishlar va boshqalarda foydalaniladi. Toj razryad bir jinsli bo‘limgan elektr maydoni bo‘lgan gazda elektrodlar o‘tkir qismlarining yaqinida binafsha rangdagi nurlanish tarzida paydo bo‘ladi. Toj razryad yuqori kuchlanishli simlar yaqinida, daraxtlarning o‘tkir uchlari va boshqalarda hosil bo‘ladi. Yashin qaytargichlarning ishi toj razryadga asoslangan. Atmosferada momoqaldoiroq bo‘lgan vaqtida hosil bo‘ladigan kuchli elektr maydon yashin qaytargichning uchida toj razryadni vujudga keltiradi. Bu razryad zaryadlarning bino oldida to‘planishiga yo‘l qo‘ymay, ularni yerga o‘tkazib turadi va binoga yashin tushishidan saqlaydi. Uchqun razryad normal yoki yuqori bosim

sharoitida elektrodlar orasidagi elektr maydon kuchlanganligi juda katta bo‘lganda( $3000000 \text{ N/Kl}$ ) havoda vujudga keladi. Uchqun razryaddan uchqun razryadlagichlarda, ichki yonuv dvigatelida yonilg‘i aralashmasini o‘t oldirishda, metall sirtini erroziyadan tozalash, metallarda teshik hosil qilish uchun va boshqalar maqsadlarda foydalaniladi.

Jun matoga ishqalangan qaxrabo tayoqcha yengil narsalarni tortishi qadimdan ma’lum. Ingliz shifokori Jilbert(XV asrning oxiri) ishqalashdan keyin yengil narsalarni torta olish xususiyatiga ega bo‘lgan jismlarni elektrlangan (yunoncha qaxrabolangan) deb ataldi va elektr so‘zi qo‘llanila boshladi. Tabiatdagi moddalarning turli-tumanligiga qaramasdan faqat ikki xilgina, qaramaqarshi ishorali elektr zaryadlari mavjud. Amerikalik fizik R.Milliken(1868-1953) tajribalar yordamida elektr zaryadi elementar elektr zaryadi ( $e = -1.6 \cdot 10^{-19} \text{ Kl}$ ) ga karrali ekanligini aniqladi.



### **10.5–rasm.Alohida joylashgan musbat zaryadning kuch chiziqlari**

Juda ko‘plab, jumladan, o‘z tajribalari asosida ingliz fizigi M.Faradey 1843-yilda tabiatning fundamental qonunlaridan biri elektr zaryadining saqlanish qonunini ta’rifladi: Istalgan yopiq sistemada, sistema ichida qanday jarayonlar ro‘y berishidan qat’i nazar, elektr zaryadlarining algebraik yig‘indisi o‘zgarmaydi:  $q_1+q_2+q_3+\dots+q_n=\text{const.}$  Bu yerda  $n$  – sistemadagi zaryadlar soni.

Yopiq sistema deb tashqi jismlar bilan zaryad almashmaydigan sistemaga aytildi. Elektr zaryadi paydo ham bo‘lmaydi, yo‘qolmaydi ham, u faqat bir jismdan ikkinchisiga uzatiladi yoki shu sistema ichida qayta taqsimlanadi.

Elektr zaryadi-relativistik invariant kattalik bo‘lib, uning miqdori qanday sanoq sistemasida qaralayotganligiga, zaryadning harakatda yoki tinch turganligiga mutlaqo bog‘liq emas. Elektr zaryadining SI dagi birligi hosilaviy kattalik bo‘lib, 1kulon (kl) deb kiritilgan.

**Elektron**-manfiy zaryadlangan barqaror elementar zarracha. Barcha moddalarning atomlaridagi elektron qobiqlar elektronlardan tashkil topgan. Elektron zaryadi elementar, deb qabul qilinadi va u  $-1,6021892(46) \cdot 10^{-19} \text{ Kl}$ ga teng.

**Elektron** (elektro...)-fizika fanida birinchi kashf qilingan, eng kichik elektr zaryadga ega bo‘lgan elementar zarra. Elektronni 1897-yilda ingliz fizigi J. J. Tomson kashf etgan. Elektron har qanday atom tarkibidagi manfiy zarralardan iborat. Neytral atomda Elektronlar soni yadrosgagi protonlar soniga teng.

### 10.5 $p$ va $n$ tip(tur)dagi o‘tkazuvchanlik

Ma’lumki yarimo‘tkazgichlar tabiatining o‘zi harakatlanayotgan elektronlar va teshiklar o‘zaro munosabati bilan tavsiflanadi. Elektr o‘tkazuvchanlik “ $\delta$ ” harfi bilan belgilanadi va quyidagicha yoziladi.

$$\delta = eu_n \cdot n + eu_p \cdot p$$

Xususan yario‘tkazgichlar  $n = p = n_i$  teng bo‘lib, yarim o‘tkazgich uchun elektr o‘tkazuvchanlik

$$\delta = (u_n + u_p) \cdot en_i$$


Aniqrog‘i elektr o‘tkazuvchanlik ko‘p omillarga bog‘liqdir.

Agar germaniy kristaliga besh valentli surma brikmasi kiritilsa u holda valent elektronlardan biri kovalent bog‘lanishga ega bo‘lmay erkin holda qoladi. Natijada germaniy “dielektrik” yarimo‘tkazgichga aylanadi. Kristall holdagi dielektrikka kiritilganda unda erkin elektron hosil qiladigan birikmasi “donor” deb ataladi. Donor birikmali yarimo‘tkazgich esa “ $n$ ” tipli yarim o‘tkazgich deyiladi. Agar germaniy kristaliga uch valentli “indiy” birikmasi kiritilsa, u holda “indiy” atomi o‘zidagi “valent” elektronlar bilan uch juft “kovalent” bog‘lanish hosil qiladi. Bunda to‘rtinchchi juft “kovalent” bog‘lanishga yetishmagan bitta valent elektronni “indiy” atomi qo‘shti “germaniy” atomidan tortib oladi. Germaniy atomidagi valent elektronidan bo‘shab qolgan joy “teshik” deyiladi. Bu teshikni musbat zaryadli erkin zarra deb qarash mumkin. Demak, tashqi elektr maydoni ta’sirida teshiklar maydon tomon siljishi mumkin. Mana shu teshiklar hisobiga germaniy kristali yana yarim o‘tkazgichga aylanib qoladi. Teshik o‘tkazuvchanlikni hosil qiladigan aralashma “akseptor” deb ataladi.

Bunday aralashmali yarim o‘tkazgich “ $p$ ” tipdagi yarim o‘tkazgich deyiladi. Endi germaniy kristalining bir tomoniga “donor”li va ikkinchi tomoniga “akseptor”li birikmalar kiritilsa, u holda “ $p$ ”- yarim o‘tkazgichga teshiklarning va “ $n$ ”- yarim o‘tkazgichda elektronlarning ko‘plab yo‘nalishi tufayli “ $p$ ”- qismidan “ $n$ ”- qismiga elektronlar esa teskari tomonga diffuziyasi vujudga keladi. Shu sabali “ $p$ ” va “ $n$ ” orasida bir-biriga tegib turgan joyida “teshik” va “elektron”lardan iborat “yupqa” qatlam hosil bo‘ladi. Bu qatlam hosil bo‘lgandan keyin “diffuziya” jarayoni to‘xtaydi. Hosil bo‘lgan qatlam  $p$ - $n$  o‘tish deyiladi.

Teskari kuchlanish  $U_{\text{teskari}}$  katta bo‘lsa ham to‘siqdan o‘tadigan tok qiymati kam bo‘ladi. Quyidagi rasmning a-ko‘rinishda. Agar rasmda b-tartibda ulasak,

teshik va elektronlar bir-biriga qarab yo‘nalgan bo‘ladi. Natijada to‘siqni(barerni) qarshiligi keskin kamayib, aralashmali o‘tkazuvchanlik esa ortadi. Bunday ulanish to‘g‘ri ulash deb yuritiladi. To‘g‘ri kuchlanish  $U_{to'g'ri}$  qiymati kam bo‘lsa ham bunday ulanganda ko‘p tok o‘tishi mumkin. Demak, bunday **p-n** o‘tishli yarim o‘tkazgichdan to‘g‘rilagich sifatida foydalansa bo‘ladi. Ana shu to‘g‘rilagichlarni vazifasi o‘zgaruvchan tokni o‘zgarmas tokka aylantirib berishidan iboratdir.



**10.6–rasm.  $p-n$  o‘tishli yarim o‘tkazgich tasvirlari**

### 10.6 Xususiy va aralashmali o‘tkazuvchanlik

Ma’lumki, tabiatda ideal toza kristall uchramaydi. Kristallarda boshqa elementlarning atomlari, kristall panjaradagi bo‘sh joy, biror atomning noo‘rin turishi va atomlarning o‘z muvozanati atrofida tebranishi hamma vaqt mavjuddir. Ba’zan kristall panjarada atomlar joylashishi tartibining buzilishi chiziqli va hatto hajmiy bo‘lishi ham mumkin. Kristall panjaraning bu kabi nuqsoni dislokatsiya deyiladi.

Amalda, hozirgi kunda, elektronika sohasida sof kristallarning o‘zidan foydalanimaydi. Kristall qanday maqsadda ishlatalishiga bog‘liq ravishda u yoki bu element atomlari kerakli miqdorda kiritiladi(aralashtiriladi). Aralashmalar kristall panjarada asosiy atomlar o‘rnini egallashi yoki atomlar orasiga **n** joylashib olishi mumkin.

Tushunish oson bo‘lishi uchun kremniy kristalini olaylik. Kristall panjarada kremniy elementining bir dona atomi o‘rnini V guruh elementlaridan birining atomi, masalan, fosfor atomi egallasin. Fosfor besh valentli bo‘lgani uchun o‘z atrofidagi to‘rtta kremniy atomi bilan bog‘lanishga kiradi va yagona elektroni ortib qoladi. Bog‘lanishda ishtirok etmagan elektron fosfor atomini osonlikcha tashlab chiqib ketadi. Bunday aralashmalar **donorlar** deyiladi. Donor atomiga mos keluvchi **E<sub>a</sub>** sath **donor sath** deyiladi. Uy haroratidan yuqori haroratlarda **donor** atomlarining deyarli hammasi ionlashgan bo‘ladi. Demak, ularning bittadan elektroni o‘z atomini tashlab chiqib ketib, kristall panjarada erkin elektronlar kabi harakat qiladi va ularning qoldirgan bo‘sh o‘rni harakatsiz musbat ion bo‘lib, elektr o‘tkazuvchanlikda ishtirok eta olmaydi. Chunki aralashma atomlari orasidagi masofa juda ham katta bo‘lib, teshikning bir atomdan ikkinchi atomga sakrab o‘tishi juda qiyin.


### **10.7 Yarimo‘tkazgichlarda zaryad o‘tkazish(ko‘chirish) jarayonlari**

Tabiatda shunday moddalar borki, ularning birlik hajmda elektronlar soni o‘tkazgichlarga nisbatan kam, lekin izolyator (dielektrik)larga nisbatan ko‘p. Shu sababli bunday moddalarni yarimo‘tkazgichlar deb ataldi. Yarimo‘tkazgich moddalarda harorat ortishi bilan ularning solishtirma qarshiligi kamayadi. Juda past haroratlarda yarimo‘tkazgich modda dielektrik bo‘lib qoladi. Metallarga yorug‘lik ta’sir etganda ularning elektr o‘tkazuvchanligi deyarli o‘zgarmaydi. Yarimo‘tkazgichga yorug‘lik tushirilganda ularning elektr o‘tkazuvchanligi ortadi. Shunday qilib, yarimo‘tkazgichlarning assosiy farqli tomonlari quyidagilardan iborat:

- a) elektr o‘tkazish qobiliyatiga ko‘ra metallar bilan dielektriklarning oraliq holatini egallyaydi;
- b) isitilganda va yorug‘lik tushirilganda solishtirma qarshiligi kamayadi. Yarimo‘tkazgich xususiyatiga ega bo‘lgan elementlarga germaniy, kremniy, tellur, selen va h.k.lar kiradi. Sizga kimyo fanidan ma’lumki, kimyoviy elementlar atom tuzilishi va xususiyatiga ko‘ra, D. I. Mendeleyevning davriy jadvalida yarimo‘tkazgich elementlar asosan III, IV va V guruhlarda joylashgan. Yarimo‘tkazgichlarning tuzilishi. Xususiy o‘tkazuvchanlik yarimo‘tkazgichlarda elektr tokining tabiatini tushunish uchun, ularning tuzilishini bilish kerak. Buning uchun tarkibida hech qanday chet moddalar bo‘lmagan toza kremniy kristalini qaraylik. Siz 9-sinfda atom tuzilishi bilan tanishgansiz. Unda atomda elektronlar qobiq-qobiq bo‘lib joylashishini ham bilib olgansiz. Kremniy atomida elektronlar qavatlar bo‘yicha joylashganda uning eng tashqi qobig‘ida to‘rtta elektroni joylashadi. Qo‘shti atomlar bir-birini shu elektronlar vositasida tutib turadi. Har bir atom qo‘shti atom bilan o‘zining bitta elektroni orqali bog‘lanadi. Natijada ikkita atom o‘zaro ikkita elektron orqali bog‘lanadi. Bunday bog‘lanishni kovalent


bog‘lanish deyiladi. Kovalent bog‘lanishda qatnashayotgan elektronlarni valent elektronlar deb ham yuritiladi. Demak, valent elektronlar butun kristall atomlariga tegishli bo‘ladi.

Elektron o‘tkazuvchanlik. Past haroratlarda juft elektronlar hosil qilgan bog‘lanish kuchli bo‘lib, uzilmaydi. Shu sababli past haroratlarda kremniy elektr tokini o‘tkazmaydi. Harorat ko‘tarilganda valent elektronlarning kinetik energiyasi ortadi. Ayrim bog‘lanishlar uzila boshlaydi. Ulardan ayrimlari borib-kelib, yurgan yo‘lidan chiqib, metalldagi kabi erkin elektronga aylanadi. Mazkur elektronlar elektr maydoni ta’sirida yarimo‘tkazgich bo‘ylab ko‘chadi va elektr tokini hosil qiladi. Erkin elektronlarning ko‘chishi tufayli yarimo‘tkazgichda tok hosil bo‘lishiga elektron o‘tkazuvchanlik yoki qisqacha **n**-turdagi o‘tkazuvchanlik (lotin. negativus – manfiy) deyiladi. Teshikli o‘tkazuvchanlik. Kovalent bog‘lanishda qatnashgan elektron chiqib ketgan joyda teshik hosil bo‘ladi. Neytral atomdan manfiy zaryadli elektron chiqib ketgan joy musbat zaryadga ega bo‘ladi.



**10.7–rasm. Teshikli o‘tkazuvchanlik hosil bo‘lish tasviri**

Bo‘sh teshikni kovalent bog‘lanishdagi boshqa elektron kelib berkitadi. Lekin endi teshik boshqa joyda paydo bo‘ladi. Shunday qilib, elektronning bir joydan ikkinchi joyga ko‘chishida, teshiklarning ham nisbatan ko‘chishi ro‘y beradi.




**10.8–rasm. Elektronli o‘tkazuvchanlik**

Elektr maydoni bo‘limganda elektronlarning va shunga mos teshiklarning ko‘chishi tartibsiz bo‘ladi. Elektr maydoni qo‘yilganda erkin elektronlar bir tomonga, teshiklar ikkinchi tomonga ko‘chadi. Xuddi shunday yarim o‘tkazich boshida hosil bo‘lgan teshikka qo‘shni atomdan elektronning sakrab o‘tishida

musbat zaryadli teshik o'tkazgichning oxiri tomon siljiydi. Bunday o'tkazuvchanlikni yarimo'tkazgichlarning teshikli o'tkazuvchanligi yoki qisqacha **p**-turdag'i o'tkazuvchanlik (lotin. positivus – musbat) deyiladi

Shunday qilib, sof (hech qanday aralashmalsiz) yarimo'tkazgichlarda erkin elektronlarning harakati bilan bog'liq elektron o'tkazuvchanlik, teshiklar harakati bilan bog'liq teshikli o'tkazuvchanlik bo'ladi. Aralashmalsiz, sof yarimo'tkazgichdagi o'tkazuvchanlikni xususiy o'tkazuvchanlik deyiladi. Bunda mazkur moddadagi elektron va teshikli o'tkazuvchanlik deyarli teng bo'ladi


Sof yarimo'tkazgichlarda erkin elektronlar va teshiklar soni kam bo'lganligidan elektr o'tkazish qobiliyati kichik bo'ladi. Aralashmali yarimo'tkazgichlar: donorli aralashmalar. Endi sof yarimo'tkazgichli kremniyiga ozgina aralashma kiritaylik. Dastlab kremniy atomlari orasiga besh valentli mishyak (As) kiritaylik. Bunda kremniyning to'rtta kovalent bog'lanish hosil qiluvchi elektroni o'rmini mishyakning to'rtta elektroni egallaydi. Mishyakning



**10.9–rasm. Sof yarimo'tkazgichli kremniyiga ozgina V va III valentli aralashmani kiritib (a) elektronlar hamda (b) teshiklar hosil qilish**

beshinchini elektroni bo'sh qolib, erkin elektronga aylanadi.

Natijada erkin elektronlar soni teshiklar sonidan ortiq bo'ladi. Yarimo'tkazgichning solishtirma qarshiligi keskin kamayadi. Bunda qo'shilgan mishyak atomlarining soni yarimo'tkazgich atomlari sonining o'n milliondan bir qismini tashkil etganda, erkin elektronlarning konsentratsiyasi ( $1 \text{ sm}^3$  ga to'g'ri kelgan elektronlar soni) sof yarimo'tkazgichnikiga nisbatan ming barobar katta bo'ladi. Qo'shilganda osongina elektronini beradigan aralashmalarni donorli aralashmalar deyiladi. Donorli aralashmalarda asosiy tok tashuvchi zarralar elektronlar bo'lganligi uchun, ularni **n**-turdag'i yarimo'tkazgichlar deyiladi. Teshiklar bunday yarimo'tkazgichlarda asosiy bo'limgan zaryad tashuvchilarga kiradi.



*Kovalent aloqalar qutbsiz bo‘lganda, ya’ni atomlarning elektr manfiyligi o‘xshash bo‘lganda barqarorroq bo‘ladi.*

*Ular faqat metall bo‘lmagan elementlar (kislород  $O$ ), vodorod ( $H$ ), azot ( $N$ ) va boshqalar orasida hosil bo‘ladi.*

*Elektronlar har doim juft-juft (to‘rt elektron) yoki uch (oltita elektron) bog‘lanishda bo‘linadi.*

### **10.10–rasm. Kovalent bog‘lanishlarning xususiyatlari**

#### **O‘z-o‘zini nazorat qilish savollari**

1. Yarimo‘tkazgichlarning o‘tkazuvchanligi haroratga qanday bog‘langan?
2. O‘tkazgichlar, dielektriklar va yarimo‘tkazgichlarning bir-biridan farqi nimada ?
3. Kovalent bog‘lanishlarning xususiyatlari nima?
4. Kovalent bog‘lanishlarning turlarini qaysilar?
5. Valentlik elektronlari nima?
6. O‘tkazuvchanlik zonasi nima?
7. Gazdan tok o‘tish xodisasini tushuntiring?
8. Zaryatlarning kuch chiziqlarini tushuntiring?
9. Donor birikmali yarimo‘tkazgich tushunchasi nima?
10. “Akseptor” nima?
11. Xususiy va aralashmali o‘tkazuvchanlik nima?

## 11 -bob O‘tish va uning xususiyatlarini yaratish

### 11.1 Elektron-g‘ovakcha(teshikcha) o‘tish tushunchasi


### 11.2 Kuchlanishni to‘g‘ri va teskari $p-n$ o‘tishni ulash

### 11.3 Volt-amper tavsiflari

### 11.4 Teshilish turlari


#### 11.1 Elektron-g‘ovakcha(teshikcha) o‘tish tushunchasi

Yarimo‘tkazgichni bir tomonini akseptorli aralashma bilan ikkinchi tomonini esa-donorli aralashma bilan legirlashganda, maxsus xususiyatlariga ega bo‘lgan yupqa o‘tish qatlami paydo bo‘ladi. Bu qatlamda, diffuziya tufayli zaryad tashuvchilari konsentarsiya katta bo‘lgan joydan konsentratsiyasi kam bo‘lgan joyga xarakatlanadi. Shunday qilib,  $p$ -tipidagi qatlamdan  $n$ -qatlamga teshiklar diffuziya orqali o‘tadi  $n$ -tipidagi qatlamdan  $p$ -tipidagi qatlamga elektronlar diffuziya orqali o‘tadi. Bunda ular qo‘shni xududlardagi teskari belgili asosiy zaryad tashuvchilar bilan birlashadi – rekombisiylashadi. Bunday holatda o‘tish qatlaming chegarasida harakatlanuvchi asosiy zaryad tashuvchilardan kamayib ketgan va  $n-p$  - o‘tish katta qarshilikka ega bo‘lgan soha paydo bo‘ladi. Chegara qatlaming ikkala tomonida qolgan turg‘un ionlar, o‘lchamlari bo‘yicha bir xil, ammo belgisi bo‘yicha har xil hajmiy zaryadlarni yaratadi:  $n$ -qatlamida - manfiy,  $p$ -qatlamida esa – musbat. Bu qo‘sh elektr qatlami elektr maydonini yaratib, keyinchalik zaryad tashuvchilarni o‘tishi to‘siladi va muvozanat holati paydo bo‘ladi (11.1-rasm).



11.1–rasm. Tashqi kuchlanish bo‘lmaganidagi  $p-n$  o‘tish


$n$ -o‘tkazuvchvanlik xududiga tok manbaini manfiy qutibi,  $p$ -o‘tkazuvchanlik xududiga esa – tok manbaini musbati ulanganda, maydon hosil bo‘ladi, uning ta’sirida elektronlar ichkariga otiladi (11.2-rasm), bu yerda – a-teskari kuchlanish va b-to‘g‘ri kuchlanish qo‘yilgan holat deyiladi.



**11.2–rasm. O‘tishning ish tamoyili: a – teskari kuchlanish; b – to‘g‘ri kuchlanish**

**n-p**-o‘tish sohasi kattalashadi, uning qarshiligi oshadi va yarim o‘tkazuvchi diod zanjirida elektr toki amalda bo‘lmaydi. Biroq juda kam miqdordagi asosiy bo‘lmanan zaryad tashuv chilarning **p**-hududidan va **n**-hududidan, katta tezlikka ega bo‘lganlari **p-p** - o‘tishni sakrab o‘tadi va zanjirda juda kam miqdorda tok oqadi, bu teskari tok deb ataladi.

Qo‘sh elektr qatlami kondensatorga o‘xshab, dielektrik o‘rnini, katta qarshilikka ega bo‘lgan yopuvchi qatlam(barer) o‘ynaydi. Bunda hosil bo‘ladigan **n-p** o‘tish sig‘imi to‘sqli nomi bilan yuritiladi va teskari yopuvchi kuchlanishga nochiziqli bog‘langan bo‘lar ekan. Teskari kuchlanish oshishi bilan yopuvchi qatlam(barer) qalinligi oshib boradi, sig‘im esa kamayadi (11.3-rasm)




**11.3–rasm. Yopuvchi qatlam(barer) sig‘imining teskari kuchlanishga bog‘liqligi**

Diodga ulangan manba qutibi o‘zgorganida **p**-hududidagi teshiklar bir biroviga yaqinlashadi va yarim o‘tkazgichlar chegarasiga siljiydi. **n-p** o‘tish torayadi, uning qarshiligi keskin kamayadi va katta miqdordagi elektronlarni **p**-hududidan **n**-xududiga, demak, teshiklarni qarama-qarshi yo‘nalishga o‘tishi uchun sharoit yaratiladi. Yarim o‘tkazgichli diodning bunday ulanganida zanjirda to‘g‘ri tok deb nomlanuvchi, ancha katta elektr toki hosil bo‘ladi.

Yarim o‘tkazgichlarda to‘g‘ri tokning kuchi ularga berilgan kuchlanish miqdoriga nozichiziqli bog‘langan. O‘tkazuvchanlikni har xil belgisi bo‘yicha ikki yarim o‘tkazgichlar chegarasida bo‘lib o‘tayotgan jarayonni ta’rifidan kelib

chiqadiki, ular ham elektron lampali diodga o‘xshab bir tomonlama o‘tazuvchanlikka ega. Demak, yarim o‘tkazgichlarga to‘g‘ri kuchlanish bilan yaratiladigan elektr maydoni yo‘naltirilganda, doid tokni o‘tkazadi va uning qarshiligi kam, bu maydonni teskari yo‘naltirilganda esa diodni qarshiligi juda katta bo‘lib, uning zanjiridagi tok esa juda kam bo‘ladi.

11.4-rasmda kremniy diodining tipik nochiziqli tavsifi ko‘rsatilgan. Uning volt-amper tavsifi  $I=I_0(e^{U/\varphi}-1)$  nisbati bilan ta’riflanadi, bu yerda,  $I_0$  – **p-n** o‘tishni teskari toki,  $U$  – berilgan kuchlanish,  $\varphi$ -haroratli potensial, 300 K bo‘lganda 26 mV ga teng. Yaxshi ko‘rinishi uchun to‘g‘ri tokning egri chizig‘i (chizmani o‘ng qismi) va teskari tokning egri chizig‘i (chizmani chap qismi) xar hil masshtablarda qurilgan. Yarim o‘tkazgichni metall bilan kontakti-Shottki diodlari ham o‘xshash xususiyatlarga ega.



#### 11.4–rasm. Germaniyli diodning tavsifi

Germaniyli diodning to‘g‘ri yo‘nalishda kuchlanish tushishi 0,5 V ga yaqin bo‘ladi.


### 11.2 Kuchlanishni to‘g‘ri va teskari p-n o‘tishni ularsh

Yarimo‘tkazgichlarda aralashmalsiz elektr toki amalgalashmalasiz oshiriladi.

Yarimo‘tkazgichlar elektr tokining o‘tkazgichlari va o‘tkazmaydiganlari o‘rtasida elektr o‘tkazuvchanligida oraliq o‘rinni egallaydi. Yarimo‘tkazgichlar guruhiiga o‘tkazgichlar va o‘tkazmaydiganlar guruhlariga qaraganda ko‘proq moddalar kiradi. Topilgan yarimo‘tkazgichlarning eng xarakterli vakillari amaliy foydalanish texnologiyada germaniy, kremniy, selen, tellur, mishyak, mis oksidi va juda ko‘p miqdordagi qotishmalar va kimyoviy birikmalar. Deyarli hammasi emas organik moddalar Atrofimizdagi dunyo yarim o‘tkazgichlardir. *Tabiatda eng keng tarqalgan yarimo‘tkazgich kremniy bo‘lib, u yer qobig‘ining taxminan 30% ni tashkil qiladi.*

Yarimo‘tkazgichlar va metalllar o‘rtasidagi sifat farqi birinchi navbatda qaramlikda namoyon bo‘ladi. Haroratning pasayishi bilan metallarning qarshiligi pasayadi. Yarimo‘tkazgichlarda, aksincha, haroratning pasayishi bilan qarshilik kuchayadi va mutlaq nolga yaqin ular amalda izolyatorga aylanadi.

Yarimo'tkazgichlarda erkin zaryad tashuvchilarning konsentratsiyasi harorat oshishi bilan ortadi. Yarimo'tkazgichlarda elektr tokining mexanizmini gaz modeli doirasida tushuntirib bo'lmaydi.



**11.5–rasm. Erkin elektronlar**

**Germaniy atomlarining tashqi qobig‘ida to‘rtta erkin bog‘langan elektron mavjud.** Ular valent elektronlar deb ataladi. Kristall panjarada har bir atom eng yaqin to‘rtta qo‘shti bilan o’ralgan. Germaniy kristalidagi atomlar orasidagi bog‘lanish kovalentdir, ya’ni u juft valent elektronlar orqali amalga oshiriladi. Har bir valentlik elektron ikkita atomga tegishli. Germaniy kristalidagi valentlik elektronlari metallarga qaraganda atomlar bilan ancha kuchli bog‘angan; shuning uchun o’tkazuvchanlik elektronlarining konsentratsiyasida xona harorati yarimo’tkazgichlarda metallarga qaraganda ko‘p marta kichikroqdir. Germaniy kristalida mutlaq nolga yaqin haroratda barcha elektronlar bog‘lanish hosil bo‘lishi bilan shug‘ullanadi. Bunday kristall elektr tokini o’tkazmaydi.

Harorat ko‘tarilgach, valent elektronlarning bir qismi kovalent bog‘lanishni buzish uchun yetarli energiya olishi mumkin. Keyin kristallda erkin elektronlar (o’tkazuvchan elektronlar) paydo bo‘ladi. Shu bilan birga, bog‘lanishning uzilish joylarida elektronlar bilan band bo‘limgan bo‘sh joylar hosil bo‘ladi. Ushbu bo‘sh ish o‘rinni “teshiklar” deb ataladi.

Berilgan yarimo’tkazgich haroratida vaqt birligida ma’lum miqdordagi elektron-teshik juftlari hosil bo‘ladi. Shu bilan birga, teskari jarayon davom etmoqda - erkin elektron teshikka duch kelganida, germaniy atomlari orasidagi elektron aloqa tiklanadi. Bu jarayon rekombinatsiya deb ataladi. Elektromagnit nurlanish energiyasi tufayli yarimo’tkazgich yoritilganda ham elektron-teshik juftlari hosil bo‘lishi mumkin.

Agar yarimo’tkazgich o‘rnatilgan bo‘lsa elektr maydoni, keyin tartibli harakatda nafaqat erkin elektronlar, balki musbat zaryadlangan zarralar kabi o‘zini tutadigan teshiklar ham ishtirok etadi. Shuning uchun yarimo’tkazgichdagi I tok elektron  $I_n$  va teshik  $I_p$  oqimlarining yig‘indisiga teng:  $\mathbf{I} = \mathbf{I}_n + \mathbf{I}_p$ .

Yarimo’tkazgichdagi o’tkazuvchanlik elektronlarining kontsentratsiyasi teshiklarning kontsentratsiyasiga teng:  $n_n = n_p$ . O’tkazuvchanlikning elektron-


teshik mexanizmi faqat toza (ya’ni, aralashmalsiz) yarim o’tkazgichlarda o’zini namoyon qiladi. Yarimo’tkazgichlarning ichki elektr o’tkazuvchanligi deyiladi.

Aralashmalar mavjud bo’lganda, yarim o’tkazgichlarning elektr o’tkazuvchanligi sezilarli darajada o’zgaradi. Masalan, **kremniy** atom kristalliga 0,001 foiz miqdorida **fosfor** aralashmasini kiritish(qo’shish) mazkur kristall qarshiligini besh martadan ortiq kattalik bilan kamaytiradi.

Aralashma kiritilgan yarimo’tkazgich (ya’ni, bir turdagи atomlarning bir qismi boshqa turdagи atomlar bilan almashtiriladi) deyiladi.

Aralashma o’tkazuvchanligining ikki turi mavjud, elektron va teshik o’tkazuvchanligi.

Shunday qilib, to’rt valentli kristall **germaniy (Ge)** yoki **kremniy (Si)** besh valentli - **fosfor (P)**, **surma (Sb)**, **mishyak (As)** ga aralashma atomi joylashgan joyda qo’shimcha erkin elektron paydo bo’ladi. Bunday holda, aralashma **donorli** deyiladi.




**11.6–rasm. Germaniy (Ge) ning mishyak (As) va indiy (Jn) bilan aralashmasi**

To’rt valentli germaniy (Ge) yoki kremniy (Si) ni - uch valentli **alyuminiy (Al)**, **indiy (Jn)**, **bor (B)**, **galiy (Ga)**- bilan aralashma qilishda teshik hosil bo’ladi. Bunday aralashmalar **aktseptorli(qabul qiluvchili)** deyiladi.

Xuddi shu namunada yarimo’tkazgich materialidan biri **p**-o’tkazuvchanlikka, ikkinchisi esa **n**-o’tkazuvchanlikka ega bo’lishi mumkin. Bunday qurilma yarimo’tkazgichli diod deb ataladi.

“Diod” so‘zidagi “di” oldqo’shimchasi(prefiksi) “ikki” degan ma’noni anglatadi, bu qurilmaning ikkita asosiy “tafsiloti”, bir-biriga yaqin joylashgan ikkita yarim o’tkazgich kristaliga ega ekanligini ko’rsatadi: biri **p**-o’tkazuvchanlikka ega (bu zona **p**), ikkinchisi - **n** - o’tkazuvchanlik bilan (bu zona **n**). Aslida, yarimo’tkazgichli diod - bu bitta kristall bo’lib, uning bir qismida donor

aralashmasi (zonasi) kiritilgan.  $p$ ), boshqasiga - *aktseptorli(qabul qiluvchili)* (zona  $n$ ).



**11.7–rasm. Diodning real va ideal volt-amper tavsiflari**

Batareyadan diyodga “ortiqcha” zonaga doimiy kuchlanish qo‘llanilsa  $p$  va zonaga “minus”  $p$ , keyin erkin zaryadlar - elektronlar va teshiklar - chegaraga shoshiladi,  $p$ - $n$  birikmasiga shoshiladi. Bu yerda ular bir-birini neytrallashtiradi, yangi zaryadlar chegaraga yaqinlashadi. Bu diodaning to‘g‘ridan-to‘g‘ri ulanishi deb ataladi - zaryadlar u orqali intensiv ravishda harakatlanadi, kontaktlarning zanglashiga olib keladigan nisbatan katta tok oqimi.

Endi biz dioddagi kuchlanishning qutblanishini o‘zgartiramiz, ular aytganidek, uni teskari kiritishni amalga oshiramiz - biz batareyaning “plyus” qismini  $p$  zonaga ulaymiz, “minus” – zonaga  $n$ . Erkin zaryadlar chegaradan uzoqlashadi, elektronlar “ortiqcha” ga, teshiklar – “minus” ga o‘tadi va natijada  $p$ - $n$  - birikmasi erkin zaryadsiz zonaga, sof izolyatorga aylanadi. Bu kontaktlarning ajralishiga olib kelishini anglatadi, undagi tok to‘xtaydi.

Diyod orqali katta teskari tok hali ham o‘tmaydi. Chunki, asosiy erkin zaryadlardan (zaryad tashuvchilardan) tashqari - elektronlar, zonada  $p$ , va  $p$  zonasidagi teshiklar - zonalarning har birida qarama-qarshi belgining arzimas miqdordagi zaryadlari ham mavjud. Bular o‘zlarining ozchilik zaryad tashuvchilar bo‘lib, ular har qanday yarimo‘tkazgichda mavjud bo‘lib, unda atomlarning termal harakati tufayli paydo bo‘ladi va ular diod orqali teskari tok hosil qiladi. Bu zaryadlarning nisbatan kamligi bor va teskari tok to‘g‘ridan-to‘g‘ri zaryaddan ko‘p marta kamroq. Teskari tokning kattaligi juda bog‘liq: harorat muhit, yarimo‘tkazgich materiali va maydoni  $p$ - $n$  o‘tish. O‘tish maydonining oshishi bilan uning hajmi oshadi va natijada termal hosil bo‘lishi va termal tok natijasida paydo bo‘ladigan ozchilik tashuvchilar soni ortadi. Ko‘pincha CVC, aniqlik uchun, grafiklar shaklida taqdim etiladi.

## Umumiy tushunchalar


### Yarimo‘tkazgichlarning xossalari

Super o‘tkazuvchilarning elektr o‘tkazuvchanligi atrof-muhit haroratiga juda bog‘liq. Juda **pastga** yaqin harorat mutlaq nol(-273°C), yarim o‘tkazgichlar **bajarmang** elektr toki va **rag‘batlantirish** harorat, ularning tokga chidamliligi **kamayadi**.

Agar siz yarimo‘tkazgichga ishora qilsangiz **yorug‘lik**, keyin uning elektr o‘tkazuvchanligi oshib keta boshlaydi. Yarimo‘tkazgichlarning ushu xususiyatidan foydalanib, yaratilgan **fotovoltaik** texnika. Yarimo‘tkazgichlar yorug‘lik energiyasini elektr tokiga aylantirishga qodir, masalan, quyosh panellari va yarimo‘tkazgichlarga kiritilganda **aralashmalar** ba’zi moddalar, ularning elektr o‘tkazuvchanligi keskin ortadi.

Yarimo‘tkazgich kristalida elektron-teshik o‘tishi (qisqartirilgan p-n-o‘tish) sodir bo‘ladi, bu mintaqalar orasidagi chegarada bir vaqtning o‘zida **n**-tipli (donor aralashmalari mavjud) va **p**-tipli (akseptor aralashmalari bilan) o‘tkazuvchanlikka ega bo‘lgan hududlarga ega.

Faraz qilaylik, bizda kristall bor bo‘lib, uning chap tomonida teshik (**p**-tip), o‘ng tomonida esa elektron (**n**-tip) o‘tkazuvchanlikka ega bo‘lgan yarimo‘tkazgich mintaqasi mavjud (11.8-rasm). Termal harakat kontakt hosil bo‘lganda, **n**-tipli yarimo‘tkazgichdan elektronlar **p**-tipli mintaqaga tarqaladi. Bunday holda, **n**-tipli mintaqada kompensatsiyalanmagan ijobiy donor ioni qoladi. Teshik o‘tkazuvchanligi bilan mintaqaga o‘tib, elektron juda tez teshik bilan qayta birlashadi va **p**-tipli mintaqada kompensatsiyalanmagan akseptor ioni hosil bo‘ladi.




**11.8–rasm. Chap tomonida teshik (**p**-tip), o‘ng tomonida esa elektron (**n**-tip) o‘tkazuvchanlikka ega bo‘lgan yarimo‘tkazgich sohasi**

Elektronlar singari, **p**-tipli hududdagi teshiklar elektron hududga tarqalib, teshik hududida kompensatsiyalanmagan manfiy zaryadlangan akseptor ionini qoldiradi. Elektron hududga o‘tib, teshik elektron bilan qayta birlashadi. Natijada elektron mintaqada kompensatsiyalanmagan ijobiy donor ioni hosil bo‘ladi.

Diffuziya natijasida bu hududlar orasidagi chegarada qarama-qarshi zaryadlangan ionlarning qo'sh elektr qatlami hosil bo'ladi, qalinligi  $L$  mikrometrning fraktsiyalaridan oshmaydi.

Kuchli ionlar qatlamlari orasida elektr maydoni paydo bo'ladi. Elektron-teshik( $E_i$ ) birikmasining elektr maydoni (**p-n-o'tish**) elektronlar va teshiklarning ikkita yarim o'tkazgich orasidagi interfeys orqali keyingi o'tishini oldini oladi. Bloklash qatlami yarimo'tkazgichlarning qolgan hajmlariga nisbatan yuqori qarshilikka ega.


Intensivlik bilan tashqi elektr maydoni  $E$  blokirovka qiluvchi elektr maydonining qarshiligiga ta'sir qiladi. Agar  $n$ -yarimo'tkazgich manbaning manfiy qutbiga, manbaning plyus qismi esa  $p$ -yarimo'tkazgichga ulangan bo'lsa, u holda elektr maydoni ta'sirida  $n$ -yarimo'tkazgichdagi elektronlar va teshiklar. **p**-yarimo'tkazgich yarimo'tkazgich interfeysiga bir-biriga qarab harakat qiladi (11.9-rasm). Chegarani kesib o'tgan elektronlar teshiklarni "to'ldiradi".



### 11.9–rasm. Diodning tashqi manbaga to‘g‘ri yo‘nalishi bilan ulanishi


Tashqi elektr maydonining bunday to‘g‘ri yo‘nalishi bilan to‘siq qatlamining qalinligi va uning qarshiligi doimiy ravishda kamayadi. Bu yo‘nalishda elektr toki **p-n** o‘tish joyidan o‘tadi.

**p-n-o'tishning** ko‘rib chiqilgan yo‘nalishi *bevosita* deyiladi. Tokning kuchlanishga bog‘liqligi, ya’ni. *volt-amper tavsiflari* to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘tish, 11.10-rasmida ko‘rsatilgan.



**11.10–rasm. Diodningning real volt-amper tavsifi**

Agar **n**-yarimo‘tkazgich manbaning musbat qutbiga, **p**-yarimo‘tkazgich esa manfiyga ulangan bo‘lsa, u holda elektr maydoni ta’sirida qarama-qarshi yo‘nalishdagi interfeysdan **n**-yarimo‘tkazgichdagi elektronlar va **p**-yarimo‘tkazgichdagi teshiklar harakatlanadi. (11.11-rasm). Bu to‘siq qatlamining qalinlashishiga va uning qarshiligining oshishiga olib keladi. To‘siq qatlamini kengaytiradigan tashqi elektr maydonining yo‘nalishi *quiflash* (*teskari*). deyiladi Tashqi maydonning bu yo‘nalishi bilan asosiy zaryad tashuvchilarning elektr toki ikkita **p**- va **p**-yarimo‘tkazgichlarning kontaktidan o‘tmaydi.



**11.11–rasm. Diodning tashqi manbaga teskari yo‘nalishi bilan ulanishi**


**p-n** birikmasidan o‘tadigan tok endi **p**-tipli yarimo‘tkazgichdagi elektronlar va **n**-tipli yarimo‘tkazgichning teshiklari bilan bog‘liq. Ammo ozchilikning zaryad tashuvchilari juda oz, shuning uchun o‘tishning o‘tkazuvchanligi ahamiyatsiz bo‘lib chiqadi va uning qarshiligi katta. **p-n**-o‘tishning ko‘rib chiqilgan yo‘nalishi deyiladi *teskari*, uning joriy kuchlanish tavsifi shaklda ko‘rsatilgan.

**Iltimos**, to‘g‘ri va teskari o‘tishlar uchun joriy o‘lchash shkalasi ming marta farq qilishini unutmang.

Qarama-qarshi yo‘nalishda qo‘llaniladigan ma’lum bir kuchlanishda mavjudligini unutmang *sindirish p-n* birikmasining (ya’ni, yo‘q qilinishi).

### 11.3 Volt-amper tavsiflari

Qattiq jismning har bir atomi musbat zaryadlangan markaziy yadro va uning atrofida katta tezlik bilan aylanadigan manfiy zaryadli elektronlardan iborat. Elektronlarni ba’zi birlari yadro bilan o‘zaro maxkam bog‘langan bo‘lib, elektronni yadrodan ajratib olish juda qiyin, ayrim oxirgi orbitadagi elektronlarni yadro bilan kuchsiz bog‘langan bo‘lganligi uchun ma’lum sharoitda undan ajratib olish mumkin. (**11.12-rasm.**)



### 11.12-rasm. Elektronlarning orbitada joylashishi

Oxirgi orbitadagi elektronlar soni to‘liq bo‘lmasa va ma’lum bir sharoitda (issiqlik ta’sir qilganda) o‘z atomlaridan osongina ajralib erkin harakat holatiga o‘tadi. (Termoelektron emissiya hodisasini eslang). Agar yarim o‘tkazgich tarkibiga valent elektronlar soni boshqacha bo‘lgan birikmadan bir oz kiritilsa, u holda uning o‘tkazuvchanligi birmuncha o‘zgaradi. Agar sof germaniy kristali olinsa, germaniy atomida  $n=32$  elektron mavjud bo‘lib, ular quyidagi tartibda joylashgandir. Elektronlar soni z-ni hisoblaymiz. Agar  $n_1=1$  (2ta);  $n_2=2$  (8ta);  $n_3=3$  (18ta);  $n_4=4$  (32ta); elektron bor.


$$N = n_1 + n_2 + n_3 + n_4 = 2 + 8 + 18 + 32 = 60 \text{ ta}$$

$$\text{N}=60-28=32\text{ta elektron}.$$

Yarim o'tkazgichlar elektronikasi solishtirma elektr o'tkazuvchanlik o'tkazgich va dielektriklarning elektr o'tkazuvchanliklari orasida bo'lgan maxsus moddalar xususiyatidan foydalanishga asoslangan. Bunday moddalar elektronikada yarim o'tkazgichlar deb yuritiladi.

Yarim o'tkazgichlar asosida "diodlar" qurilgan. Diodning asosiy tavsiflaridan biri bo'lgan jarayon ularni volt-amper tavsifi. (11.13-rasm)

Diodning elektr chizmada belgilanishi.



**11.13–rasm. Diodning asosiy tavsiflaridan biri bo'lgan volt-amper tavsifi**

Agar chizmadagi  $U$  to'g'ri kuchlanishni o'zgartirsak, dioddan o'tayotgan tok ham o'zgaradi. Agar berilgan kuchlanishdan ko'proq kuchlanish berilsa, albatta diod ishdan chiqadi. (chizmadagi shtrixlangan joy). Hozirgi paytda jahon sanoatida past va yuqori quvvatli, yarim o'tkazgichli diodlar ko'plab ishlab chiqarilgan va ular turli sohalarda juda keng foydalaniladi. (jadvalga qarang).

| Sanoatda ishlab chiqarilgan diodlar klasifikatsiyasi |                 |                                |                                   |                      |                       |
|--|-----------------|--------------------------------|-----------------------------------|----------------------|-----------------------|
| Yuqori va past chastotali diodlar                    | Varikap-lar     | O'ta yuqori chastotali diodlar | Fotodiод-lar.<br>Fotoelek-triklar | Tiristorli diodlar   | Tiristorli triodlar   |
| Tunelli diodlar                                      | Stabelit-ronlar | To'g'rila-gichlar bloklari     | Nur sochuvchi diodlar.            | O'tkazuvchan diodlar | Tok stabili-zatorlari |


## 11.4 Teshilish turlari

### Tunnelli teshilish.

Bir hil(bir jinsli) materialda mos keladigan hodisani birinchi marta bayon qilgan(tasvirlagan) olimning ismi (Zener) sharafiga Zener teshilishi ham deyiladi. Ilgari, Zener hodisasi ko‘chkili teshilishga asoslangan o‘tishning teshilishi paytidagi jarayonlar bilan noto‘g‘ri tushuntirilgan.

Xorij adabiyotida Zener diodlari (Teshilish rejimida ishlaydigan diodlar) tunnelli yoki ko‘chkili teshilishdan foydalanganligiga bog‘liq bo‘lishdan qat‘i nazar, hali ham Zener diyodlari deb ataladi.

Teshilish boshlangan kuchlanish Zener kuchlanishi deb ataladi. Tunnelli teshilishning mexanizmini tushuntirish uchun p-n o‘tishning mos keladigan tarmoqli diagrammasini sxematik tarzda quyidagi rasmda tasvirlaymiz (11.14 - rasm).




**11.14-rasm. Yarimo‘tkazgichning zonalari**

Agar valentlik zonasasi va o‘tkazuvchanlik zonasasi (to‘siqning kengligi, qalinligi) orasidagi geometrik masofa etarlicha kichik bo‘lsa, u holda tunnel effekti - elektronlarning potentsial to‘siqdan o‘tish hodisasi paydo bo‘ladi. Tunnelli teshilish solishtirma qarshilikning past qiymatiga ega bo‘lgan bazali(asosli) **p-n** o‘tish joylarida sodir bo‘ladi.

### Ko‘chkili teshilish.

Ko‘chkili teshilish mexanizmi gazlardagi zarbiy ionlanish mexanizmiga o‘xshaydi, ko‘chkili teshilish hodisasi sxematik ravishda quyidagi rasmda tasvirlangan.




**11.15–rasm. Ko‘chkili teshilish mexanizmining tasviri**

Agar atom bilan keyingi to‘qnashuvga o‘tayotganda, teshik(kavak) (yoki elektron) atomni ionlashtirish uchun etarli energiyaga ega bo‘lsa, ko‘chkili teshilish sodir bo‘ladi. Zaryad tashuvchining zarbadan oldin bosib o‘tgan masofasi erkin yugurish yo‘li deb ataladi. Ko‘chkili teshilish yuqori qarshilikli asosga ega bo‘lgan (katta qarshilikka ega) birikmalarda(o‘tish joylarida) sodir bo‘ladi.

Yuqorida ko‘rib chiqilgan **Tunnelli** va **Ko‘chkili** teshilishlar **elektrli teshilishlar** deb ham ataladi.

**Issiqlikdan(Termal) teshilish.** Issiqlikdan(Termal) teshilish vaqtida tokning kuchayishi yarimo‘tkazgichning p-n o‘tish sohasida isishi va shunga mos ravishda solishtirma o‘tkazuvchanlikning oshishi bilan izohlanadi. Issiqlikdan(Termal) teshilish manfiy differentsiyal qarshilik bilan tavsiflanadi. Agar yarimo‘tkazgich kremniy bo‘lsa, u holda teskari kuchlanishning oshishi bilan Issiqlikdan(Termal) teshilish odatda elektr teshilishidan keyin sodir bo‘ladi (elektr teshilishi paytida yarimo‘tkazgich qiziydi va keyin Issiqlikdan(Termal) teshilish boshlanadi). Elektr teshilishidann keyin p-n birikmasi o‘z xususiyatlarini o‘zgartirmaydi. Issiqlikdan(Termal) teshilishdan so‘ng, agar yarimo‘tkazgich etarli darajada isinish uchun vaqtga ega bo‘lsa, o‘tishning xususiyatlari qaytarilmas tarzda o‘zgaradi (tegishli yarimo‘tkazgich qurilmasi yaroqsiz holatga keladi).

Manba: <https://pue8.ru/silovaya-elektronika/825-poluprovodnikovye-diody-p-n-perekhod-vidy-proboev-barernaya-emkost-diffuzionnaya-emkost.html>



## **Mavzuga oid pedtexnologiya**

### **O‘z-o‘zini nazorat qilish savollari**

1. Zaryat tashuvchilarning konsentratsiyasi nima?
2. Kremniy diodining tipik nochiziqli tavsifi tushuntiring?
3. *p-n* o‘tishni ulash turlarini tushuntiring?
4. Diod nima?
5. Diodning volt-amper tavsifnomasini tushuntiring?
6. Diodlar klassifikatsiyasi?
7. Yarimo‘tkazgichlarda sodir bo‘ladigan teshilishlarning qanday turlarini bilasiz?

**12 -bob Yarimo‘tkazgichli diodlar. Ularning tasnifi. To‘g‘rilovchi diodlar - qurilmaning ishlash printsipi**

### **12.1 Yarimo‘tkazgichli diodlar oilasi**


### **12.2 To‘g‘rilovchi diodlarning struktura sxemasi. Ishlash prinsipi**

### **12.3 O‘zgaruvchan tokni o‘zgarmas tokga aylantirish sxemasi**

#### **12.1 Yarim o‘tkazgichli diodlar oilasi**

Hozirgi zamon elektronikasini yarim o‘tkazgichli *p-n* o‘tishning va metall bilan yarim o‘tkazgich orasidagi kontakt xossalariga asoslanib ishlashga asoslangandir.


Yarim o‘tkazgichli diodlar qanday maqsadlarda foydalanishiga qarab to‘rtta asosiy guruhga bo‘linadi.



**12.1–rasm. Diodlar guruhlarining diagrammasi**

a) To‘g‘rilagich diodlar. Bu diodlar yordamida o‘zgaruvchan qiymatli tokni o‘zgarmas (ya’ni bir qutbli impuls beruvchi) tokka aylantiriladi va impulsli diodlar deb yuritiladi.

Impuls diodlar 3 ga bo‘linadi.




- ✓ Past chastotali: 5.0÷50 kGts gacha;
- ✓ Yuqori chastotali: 50÷150 MGts gacha;
- ✓ O‘ta yuqori chastotali: 150 MGts dan yuqori.

Past chastotali diodlar yassi diodlar bo‘lib, germaniy va kremniy monokristallaridan, polikristalli sim, titan va mis oksididan tayyorlanadi. Bu

to‘g‘rilovchi diodlar tokni qiymatiga qarab o‘z navbatida kichik, o‘rta va yuqori quvvatlari diodlarga bo‘linadi.

1.  $I_{tug} < 300$  Ma-kichik-quvvatli;
  2.  $I_{tug} < 300$  Ma  $< 10a$ -o‘rta quvvatli;
  3.  $I_{tug} > 10a$ -katta quvvatli;
- ✓ Yuqori chastotali to‘g‘rilagich diodlar chastotasi  $f=150$  MGs bo‘lgan signallarni detektorlash va to‘g‘rilashda foydalaniladi. Bu turdagilari germaniy elementidan tayyorlanadi va nuqtaviy diod deb yuritiladi, sig‘im kichik bo‘lgani uchun ulardan yuqori chastotali signallarni to‘g‘rilashda ishlataladi. O‘zaro kontaktlashish joyi nuqtaviy bo‘lganligi uchun quvvat 1,5-3,0 Vt bo‘ladi. Tok qiymati sal oshsa kristall nuqtasi qizib ketib diod ishdan chiqadi. Kompyutorlarda asosan impuls diodlar ishlataladi. Ularning asosiy vazifasi tok yo‘nalishini bir lahzada (mikrosekund, nanosekund) o‘zgarishini ta’minlaydi.

Impuls diodlar maxsus materiallardan tayyorlanadi va yuqori texnologik ishlov beriladi. Impulslari diodlar germaniy va kremniy elementidan tayyorlanadi va D18 va D219 sonlar bilan belgilanadi. Yarim o‘tkazgichli to‘g‘rilagich impulsli diodlar quyidagi parametrlar bilan tavsiflanadi.



- ✓ Teskari kuchlanishning eng katta amplitudasini olish;
- ✓ To‘g‘irlangan tokni eng kata qiymatini olish;
- ✓ Eng kata tok paytida kuchlanish tushuvi;
- ✓ Teskari kuchlanishga to‘g‘ri keladigan tok qiymati;
- ✓ Diodni teskari kuchlanish saqlab turish vaqtisi;
- ✓ Chegaraviy chastotaga turishi;
- ✓ Harorat chegarasi borligi;
- ✓ F.I.K. talab darajasida.

b) Elektrik parametrlarini o‘zgartiruvchi diodlar. Bu turdagilari **p-n** o‘tish va yarim o‘tkazgich metall kontaktining chiziqli bo‘limgan volt-amper tavsifiga ega bo‘lishiga asoslangan. Parametrlarni o‘zgartiruvchi diodlar qanday maqsadlarga qo‘llanilishiga qarab, chastotani siljituvchi, ko‘paytiruvchi va modulyasiyalovchi diodlarga ajraladi.


- ✓ Chastotani siljituvchi diodlar bir-biriga yaqin chastotali signallarni aralashtirib va talab etilgan chastotani olish uchun ishlataladi.

✓ Ko‘paytiruvchi diodlar esa berilgan signallarni har xil signallarga aylantiradi.

✓ Modulyasiyalovchi diodlar yordamida kirib kelayotgan signallarni amplituda qiymati o‘zgarishi uchun ishlataladi.

c) Stabilitronlar. Bunday turdagি diodlar yordamida qiymati o‘zgarib turadigan o‘zgarmas kuchlanishni to‘g‘rilash ya’ni muvozanatlashda foydalaniladi.

Stabilitronlarning eng oddiy chizmasi bilan tanishamiz. (12.2-rasm).



**12.2–rasm. Stabilitronlarning eng oddiy chizmasi**

Tushuncha beramiz!

Agar 1-1’ kirish joyida  $U(V)$  kuchlanish ortsa, stabilitrondagi kuchlanish keskin oshadi, ichki qarshilik kamayadi. Natijada R-qarshilikdagi potensial tushuvi ortib,  $R_t$ -qarshilikdagi potensial tushuvi o‘zgarmay qoladi. 2-2’ chiqishda muvozanatlashgan kuchlanish olinadi.

Stabilitronning asosiy parametrlari:

1. Muvozanatga kelgan kuchlanish –  $U_{muv}$ ;

2. Dinamik qarshilik  $R_{din} = \frac{dU}{dt}$ ;

3. Statiik qarshilik  $R_{stat} = \frac{U}{I}$ ;

4. Nochiziqli koeffitsient  $\beta = \frac{R_{stat}}{R_{din}}$ ;

5. Muvozanatlashgan kuchlanishdagi harorat koeffitsienti  $\alpha = \frac{1}{U_{muv}} \cdot \frac{dU}{dT}$ ;

Stabilitronni dinamik qarshiligi dioddan o‘tayotgan tokning o‘zgarishi bilan muvozanatlashgan kuchlanishni o‘zgarishini tavsifini beradi.

✓ Dinamik qarshilik qancha kichik bo‘lsa, kuchlanishni muvozanatlash shuncha yaxshi bo‘ladi.

✓ Statik qarshilik esa diodning o‘zida yuqotiladigan quvvatni aniqlaydi.


✓ Nochiziqli koeffitsient dioddagi tokning nisbiy o‘zgarishini muvozanatlashgan kuchlanishning nisbiy o‘zgarishiga bo‘lgan nisbati bilan

o'lchanadi. Muvozanatlashgan kuchlanishning o'zgarishi qancha kichik bo'lsa, ya'ni  $\beta$  qancha katta bo'lsa, stabilitron shuncha yaxshi ishlaydi.

Zamonaviy stabilitronlar kremniy qotishmalaridan tayyorlanadi va  $\beta = 30 \div 200$  va undan yuqori qiymatlarga egadir.

d) Varikaplar. **p-n** o'tish jarayonida elektr sig'imi mavjud. Demak **p-n** o'tishga moslashgan har qanday yarim o'tkazgichli diodni elektr sig'imi boshqarish mumkin. Chunki **p-n** o'tishdagi elektr sig'imi berilgan tashqi kuchlanishga kuchli bog'langandir. Kuchlanishni o'zgartirish yo'li bilan elektr sig'imi o'zgartiruvchi **p-n** turdag'i maxsus tayyorlangan yarim o'tkazgichlar "Varikaplar" nomi bilan yuritiladi. Varikaplarda **p-n** o'tishning teskari kuchlanish " $U_{\text{tes}}$ " berilganda elektr sig'im (aktiv sig'im)dan foydalilanadi.

Quyidagi rasmda varikapning chizmasi keltirilgandir.



**12.3–rasm. Varikapning elektr sxemasi.**

Varikapning asosiy parametrlaridan biri, uning ishonchlilikidir. Past chastotalarda diodning  $R_{k/k}$  qarshiligini hisobga olmasak ham bo'ladi. U holda varikapning ishonchlilik

$$Q = w \cdot C_{P-N} \cdot R_{P-N} \quad (*)$$

bu yerda,  $w$  - aylanish chastotasi. Yuqori chastotalarda esa **p-n** o'tishning qarshiligini hisobga olmasak ham bo'ladi. Lekin diodning  $R_{k/k}$  qarshiligini hisobga olish zarur bo'lib, bunda ishonchlilik – "Q" teng.

$$Q = \frac{1}{w \cdot C_{P-N} \cdot R_{k/k}} \quad (**)$$

bo'ladi.


(\*)va (\*\*) ifodalardan ko'rinaridiki varikapning ishonchliligi past chastotalarga teskari proporsional ekan. Pastdag'i jadvalga varikapning ishonchliligi chastotaga bog'liq ekanligi ko'rsatilgandir.

Past chastotalarda ishlaydigan varikaplar ko'proq "kremniy" elementidan tayyorlanadi.

Yuqori chastotalarda ishlaydigan varikaplar ko‘proq “germaniylar” elementidan tayyorlanadi.

### 1) Fotodiodlar ishlash prinsipi va ahamiyati.

Yarim o‘tkazgichli fotodiodlar ishlash prinsipini ichki fotoeffekt hodisasiiga asoslangan. Fotodiodlar sirtida yorug‘lik tushgandan keyin ishlaydi. Yarim o‘tkazgichlarga nurlanishning ta’sirini o‘rganish faqat fotoelektrik asboblarini tayyorlashga imkon tug‘dirmasdan, balki yarim o‘tkazgichlarning xossalari aniqlashda ham alohida o‘rin to‘tadi. Xaqiqatdan ham, yarim o‘tkazgichlarning xossalari tavsiflovchi qator parametrlar zaryad tashuvchilarning yashash davri, man qilingan zonaning kengligi, kvant chiqarishi kabi fotoelektrik hodisalarini o‘rganish natijasida aniqlanadi.



### 12.4–rasm. Energiyaning chastotaga bog‘liqlik tavsifi

Hozirgi zamonda muammolaridan biri juda katta miqdordagi quyosh radiatsiya energiyasidan samarali foydalanish masalasiadir. Quyosh radiatsiyasining qisqa to‘lqinli qismi, asosan yer atmosferasida yutilib qoladi. Yer sirtiga uzun to‘lqinli qismi yetib keladi.

Quyosh energiyasidan foydalanishning juda ham ko‘p usullari mavjud bo‘lib, bo‘lardan eng effektivrog‘i – nurlanish energiyasini boshqa ko‘rinishdagagi energiyaga aylantirishda foydali ish koeffetsienti eng katta bo‘lgan qurilma yarim o‘tkazgichli quyosh batareyasi bo‘lib hisoblanadi. Ularni tarkibini fotodiodlar, fotoelementlar tashkil etadi.

2) Fotodiodlar yoki fotoelementlar xususiyatlariga ta’sir qiluvchi parametrlardan biri – man qilingan zonaning kengligi  $E_d$  ni bilish kerak. Ana shu zona tushgan quyosh energiyasini – elektr energiyaga aylantirib beradi. Ma’lumki elektron – teshik juftini hosil qilish uchun energiyani  $E_d$  ga teng yoki undan ancha katta bo‘lgan foton yutilishi kerak, ya’ni; shartlarga muvofiq; fotodiod

1 shart:  $h\nu \geq E_d$  Foydalanish mumkin!

2 shart:  $h\nu \leq E_d$  Foydalanib bo‘lmaydi!

bunda  $E_d$  dan kichik bo‘lgan energiyali fotonlar valentlik zonasidan o‘tkazuvchanlik zonasiga elektron chiqara olmaydi. Bu 2-shartga qaraganda  $E_d$  kichik bo‘lgan fotodiодni tanlab olish maqsadga muvofiq emas, chunki  $E_d$  kichiklasha borsa, fotonning ortiqcha energiyasi issiqlikka aylanishi natijasida effektivlik kamaya boradi.

Fotodiодning qalinligi “d” deb olaylik (12.5-rasm).


Yorug‘lik ta’sirida elektron – teshik jufti (xususiy yutilish) generatsiyalansa, fotodiода hosil bo‘lgan o‘tkazuvchanlikning sirtidagi elektr maydoni uchun ifoda

$$E_x = \frac{kT}{e} \cdot \frac{b-1}{(b+1) \cdot n + N_a} \cdot \frac{dn}{dx} \quad (1)$$

bo‘ladi.

Bunda:  $b = \frac{U_n}{n_p} \cdot N_a$  – akseptorlar konsentratsiyasi. Biz bu ifodani olishda (1) dan va kvazianatsionar sharti  $P = N_a + n$  (2) dan foydalanamiz.

a) Fotodiоддаги akseptorlar konsentratsiyasi juda oz bo‘lsin, ya’ni  $n \geq N_a$  sharti bajarilsin.



**12.5–rasm. Fotodiод sirtida tushgan yorug‘lik ta’siri.**

Fotodiод sirtida hosil bo‘lgan  $E_x$  elektr maydoni

$$E_x = \frac{kT}{e} \cdot \frac{b-1}{b+1} \cdot \frac{dl_n \cdot n}{dx} \quad (3)$$

Fotodiодга tushgan yorug‘lik energiyasi  $h\nu$  hisobidan paydo bo‘lgan EYuK  $E_{fd}$  – quyidagicha ifodalanadi.

$$E_{fd} = \frac{kT}{e} \cdot \frac{b-1}{b+1} \cdot l_n \cdot \frac{n(d)}{n(o)} \quad (4)$$

v) Fotodiод sirtida tushayotgan yorug‘lik intensivligi katta bo‘lmasin, ya’ni  $N_a \geq n$  sharti bajarilsin.

U holda fotodiod sirtining elektr maydoni

$$E_x = \frac{kT}{e} \cdot \frac{b-1}{N_a} \cdot \frac{dn}{dx} \quad (5)$$

teng bo‘ladi.

Fotodiodning hosil qilgan EYuK si

$$E_{fd} = \frac{kT}{e} \cdot \frac{b-1}{N_a} \cdot [n(d) - n(o)] \quad (6)$$

Biz yuqorida tahlil qilgan fotodiodning ishlash prinsipiga elektr maydon va EYuK juda kichik bo‘lib, yarim o‘tkazgichlarning energetik holatidagi man qilingan zona kengligi  $E_d$  dan kichikdir. Keyingi yillarda fotodindlarni yangi turlari juda ko‘p kashf qilinmoqda. Ular asosan CdTe polikristall plyonkada  $E_x=150$  V atrofida foto EYuK olish mumkinligi isbotlandi. Qator o‘tkazilgan tajribalar shuni ko‘rsatadiki, hosil bo‘ladigan foto EYuK polikristall plyonkaning tayyorlashdagi qator omillarga bog‘liq bo‘lar ekan. Plyonkani vakuumda elektr tokini o‘tkazmaydigan taglik ustida moddani bug‘latish yo‘li bilan changlatib olinadi. Fotodindlар tayyorlash texnologiyasi juda murakkab bo‘lganligi uchun ham, uning ham rivojlantirishga ahamiyati beqiyosdir.

## 12.2 To‘g‘rilovchi diodlarning struktura sxemasi. Ishlash prinsipi

Yarim o‘tkazgichli diodlar volt-amper tavsifi chuqur o‘rganib chiqilgandan keyin, ulardan elektron qurilmalarda keng foydalanila boshlandi. Diodlar asosan, o‘zgaruvchan tokni o‘zgarmasga aylantirish, elektr signallarini kuchaytirish, generatsiyalash va o‘zgartirish maqsadida ishlatiladi. Diodlar past, o‘rta, yuqori quvvatli bo‘lib, talab etilgan joylarda ularni tanlab olib foydalaniladi. Masalan diodlar majmuasi yordamida, to‘g‘rilagich qurilmasi yaratilgan. Yarim o‘tkazgichli to‘g‘rilagichlar elektr zanjirida ikkilamchi manba sifatida foydalaniladi. Elektron qurilmalarni deyarli hammasi yarim o‘tkazgichli to‘g‘rilagichlar yordamida ishlaydi, ular o‘zgaruvchan tok manbalariga ulangan bo‘lsa ham, o‘zgarmas tokka aylantiriladi. Yarim o‘tkazgichli to‘g‘rilagichlarni bir necha asosiy ulanish chizmaları mavjuddir.


a) 1,5-davrli to‘g‘rilagich chizmasidan foydalanilsa, ularning vazifikasi o‘zgaruvchan tokni bir dona yarim o‘tkazgichli diod yordamida to‘g‘rilash mumkin (97-rasmga qarang).

97-rasmda Oddiy 1,5-davrli to‘g‘rilagich chizmasi va kuchlanishni to‘g‘rilangan holati (a).

Transformatorning  $w_2$ -g‘altakdagi kuchlanishning qiymati va qutblari tez-tez davriy ravishda o‘zgarib turadi. G‘altakni yuqori qismida musbat potensial bo‘lgan paytda diod ishlaydi va  $I_{to‘g‘ri}$  tokni zanjirdan o‘tkazadi, aksincha holat yuz

berganda yuqori qismida manfiy qutb bo‘lganda diod yopiq bo‘ladi, tokni o‘tkazmaydi va zanjirni elementlariga  $U=0$  teng bo‘ladi. To‘g‘rilagich chiqishida chastotasi 50 Gts bo‘lgan (ellikta yarim davr o‘tish bir sekundda sodir bo‘ladi).


b) 2,5-davrli to‘g‘rilagich chizmasida esa ikkita yarim o‘tkazgichli diod ishlatiladi va transformatorni ikkinchi g‘altagini o‘rta nuqtasida ulanadi (12.6-rasmga qarang).



**12.6–rasm. Ikkita yarim davrli to‘g‘rilagich chizmasi(a) va kuchlanish to‘g‘rilangan holati (b)**


Transformatorning ikkinchi  $w_2$  g‘altagini yuqori va pastki qismida yarim o‘tkazgichli  $VD-1$  va  $VD-2$  diod o‘rnatilgan, agar g‘altakning yuqori qismida qutb musbat bo‘lsa diod  $VD-1$  ochiladi, tok o‘tadi. Bu paytda pastki qismidagi g‘altak uchlariga manfiy qutb bo‘lgani uchun  $VD-2$  diodi yopiq bo‘ladi. Qutblarda zaryad ishorasi 1 sekundda 50 marta o‘zgaradi, har doim musbat bo‘lgan paytda diodlar ochiladi, manfiy bo‘lganda diodlar yopiladi. Ana shunday tartib ikkita yarim davrli to‘g‘rilagichlar ishlaydi. Bu to‘g‘rilagichlarga chiqish kuchlanish chastotasi  $f = 100$  Gs gacha o‘zgarib turadi. Bu xildagi to‘g‘rilagichlar o‘quv-labaratoriya ishlari bajargan paytlarda qo‘llaniladi. Ularning turlari VU-4; VU-8; VU-10 deb ishlab chiqariladi.

Bu turdagи to‘g‘rilagichlar uchun to‘rtta yarim o‘tkazgichli diodlar ishlatiladi va ular elektr zanjirga ko‘prik chizma usulida ulanadi (98-rasmga qarang).



**12.7–rasm. Ko‘prik chizma usulda ikki yarimdavrli to‘g‘rilagich chizmasi**

Har bir yarim davrli tokni olish uchun 2 ta VD-diod ishlaydi. Ularni chizmasi bilan tanishamiz (12.8-rasmga a) va b) ga qarang).



**12.8–rasm. Yarim o‘tkazgich dioddardan tokning o‘tish yo‘llari**

To‘g‘rilagichning  $U_{\text{uchiqish}}$  joyida chastotasi  $f = 100$  Gts gacha o‘zgarib turadi.


Bir fazali ko‘prik chizmali to‘g‘rilagichlar eng ko‘p qo‘llaniladigan elektron qurilma bo‘lib, ikkilamchi o‘zgarmas elektr manbai sifatida ishlatiladi. Ularni turlari VU-4; LIP-90; V-24 m bilan tamg‘alanadi.

Bir va ikki yarim davrli to‘g‘rilagichlarni chiqish kuchlanishi o‘zgarmas bo‘lsa ham lekin chastotasi  $f = 50-100$  Gts gacha o‘zgarib turgani uchun, ulardan elektron qurilmalarda birdaniga ikkilamchi manba sifatida foydalanib bo‘lmaydi. Shuni hisobga olib, to‘g‘rilagich chiqish joyida qo‘sishimcha oddiy elektr qiymatni sifatli rostlab berish filtrli (tozalagich) o‘rnataladi. Filtrlarning asosiy elementlari bu kondensator, o‘zakli induktiv g‘altak (drossel) va rezistordan iboratdir.

Quyidagi chizmalarda elektr filtrlari turlari berilgan (12.9-rasm).

1. Oddiy filtrlar VD diod o‘chilganda tok o‘tadi, ikkiga bo‘linadi. To‘g‘ri yuklama  $R_{yuk}$  ga boradi va  $C_1$  kondensatorni zaryadlaydi. Agar VD diod yopiq bo‘lsa, kondensator zaryadsizlanadi ya’ni yuklama  $R_{yuk}$  tokni beradi.

2. «Π» turidagi RC filtri past chastotalarga yaxshi ishlaydi,  $R_{yuk}$  yuklama toki va  $C_1$  va  $C_2$  kondensator plastinkalarida kuchlanish sezilarsiz o‘zgaradi.  $R_1$  rezistor qiymati va chegarasiga ta’sir qilmaydi.



### 12.9–rasm. Filtrlarning tasvirlari


3. «Π» turidagi LC filtri past chastotalarga juda yaxshi ishlaydi. Bu filtrga joylashgan induktiv g‘altak qarshiligi yuqori va  $C_1$  va  $C_2$  kondensator bilan birga samarali ishlaydi. Keyingi paytda drossel o‘rniga tranzistorlar ham qo‘llanib kelinmoqda. LC filtrlar asosan ossilloograflar elektr chizmasiga ishlatiladi. Drosseldan, sig‘imdan iborat filtr, elektr zanjirlarida past chastota rejimda benuqson ishlaydi va elektr impulslarni o‘zgarmas holatda saqlab yetkazib beradi. Filtr o‘rnatilmagan elektr to‘g‘rilagichlardan foydalanib bo‘lmaydi.

## 12.3 O‘zgaruvchan tokni o‘zgarmas tokka aylantirish asboblari

Kichik quvvatli o'zgaruvchan signaling parametrlarini buzmasdan doimiy kuchlanish manbaining quvvati hisobiga kuchaytirib beruvchi qurilma kuchaytirgich deb ataladi. Kuchaytirgich qurilmasi kuchaytiruvchi elementi, rezistor, kondensator chiqish zanjiridagi doimiy kuchlanish manbai hamda iste'molchidan iborat. Bitta kuchaytiruvchi elementi bo'lgan zanjir kaskad deb ataladi. Kuchaytiruvchi element sifatida qanday element ishlatilishiga qarab kuchaytirgichlar elektron, magnitli va boshqa xil turlarga bo'linadi. Ish rejimiga ko'ra ular chiziqli va nochiziqli kuchaytirgichlarga bo'linadi. Chiziqli ish rejimida ishlovchi kuchaytirgichlar kirish signali shaklini uzgartirmasdan kuchaytirib beradi. Chiziqli bo'lmanishda ishlovchi kuchaytirgichlarda esa kirish signali ma'lum qiymatga erishganidan so'ng chiqishdagi signal o'zgarmaydi. Chiziqli rejimda ishlaydigan kuchaytirgichlarning asosiy tavsifi, amplituda chastota tavsifidir. Bu tavsif bo'yicha kuchaytirish koeffitsientini moduli chastotaga qanday bog'likligini ko'rsatadi. amplituda chastota tavsifiga ko'ra chiziqli kuchaytirgichlar tovush chastotalar kuchaytirgichi, quyi chastotalar kuchaytirgichi, yuqori chastotalar kuchaytirgichi, sekin o'zgaruvchan signal kuchaytirgichi yoki o'zgarmas tok kuchaytirgichi va boshqalarga bo'linadi.

Hosil qilingan elektr tebranishlarni kuchaytirish juda muxim texnologik jarayondir. O'zaro aloqada elektrotexnikaning eng muxim masalasi ham shu kuchaytirish jarayoniga bog'liq.

Elektron lampali va tranzistorli kuchaytirgichlarning ishi vakuumli lampalarda boshqaruvchi to'r va tranzistorlarda elektr tebranishlarni kuchaytirish xossasidan foydalanishga asoslangan. Elektron lampali kuchaytirgichlarni o'rghanishda, dastavval uch elektrodli elektron lampani ishlash prinspini yaxshi o'rghanish kerak. Elektr tebranishlarni kuchaytiruvchi qurilma past chastotani kuchaytirgichlar deyiladi. Odatda chastotasi f-50Gs-12kGs gacha bo'lган chastotalar past chastotalar deb qabul qilingan. Ularni blok chizmasi quyidagi 18.1-rasmda ko'rsatilgan.

Past chastotali kuchaytirgich bir kaskadli yoki ko'p kaskadli bo'ladi. Ularning asosiy vazifasi zanjirdagi kuchlanish va quvvatni kuchaytirishdan iborat.

Bunday turdagи kuchaytirgichlarni elektron lampalar, tranzistorlar, magnit elementlar va boshqa integral mikrochizmalar yordamida ko‘rish mumkin.



### **18.1–rasm. Past chastotali kuchaytirgich.**

Kuchaytirgich ko‘rsatkichlari.

1. Kuchaytirish koeffitsienti
  2. Kuchaytiriladigan chastota oralig‘i
  3. Kirish kuchlanishi (sezgirligi)
  4. Kuchaytirgichning chiqish quvvati
  5. Foydali ish koeffitsienti
  6. Signalni to‘g‘ri chiqishi yoki buzilishi
- Kuchaytirish koeffitsienti “K” bilan belgilanadi.

$$K = \frac{U_r}{U_k}; \quad K = \frac{I_r}{i_k};$$

bu yerda  $U_k$  -Kuchaytirish kirish kuchlanishi (V)

$U_r$  -Kuchaytirish chiqish kuchlanishi (V)

$I_r$  -Kuchaytirish chiqish toki (A)

$i_k$  -Kuchaytirish kirish toki (A)

## 18.2. Statik va dinamik tavsiflar

Kuchaytiruvchi elementning (KE) ishchi nuqtasining holatini o‘rnatish uchun dinamik tavsiflardan foydalanish tavsiya etiladi. Dinamik tavsiflar yuklangan KE zanjirlaridagi kuchlanish va toklarning oniy qiymatlari o‘rtasidagi bog‘liqlikdir, ya’ni uning davrlarida tashqi qarshiliklar mavjudligida.


Dinamik tavsiflar statiklardan farq qiladi, chunki ular tashqi qarshiliklarsiz olinadi (statik xususiyatlar ma'lumotnomalarda keltirilgan). Statik tavsiflarni olishda asosiy parametrlardan biri o‘zgaradi, ikkinchisining qiymatini belgilaydi. Masalan:  $i_b = f(U_{be})$  bilan  $U_{ke} = \text{const}$  - statik kirish tavsifi.

KE davrlarida tashqi qarshiliklarning mavjudligi, bitta parametr o‘zgarganda, qolganlarning barchasi o‘zgarishiga olib keladi, xususan, kollektor tokining oshishi bilan tranzistor kollektordagi kuchlanish pasayadi:

$$\downarrow U_{KE}(t) = E_K - \uparrow i_K(t) \cdot R_K$$

Dinamik tavsiflar amalda ko‘proq foydalidir, chunki kuchaytiruvchi elementlarning haqiqiy ishlash rejimlariga mos keladi. KE ishchi nuqtasi quyidagi tavsiflarga ko‘ra o‘rnatalishi mumkin:

- kirish dinamik tavsifi  $i_{kir} = f(U_{kir})$ ;
- parron dinamik tavsifi  $i_{kir} = f(E_g)$ ;
- o‘tkinchi dinamik tavsifi  $i_{chiq} = f(U_{kir})$ .



18.2-rasm. Kirish dinamik tavsifi

$I_{kir} = f(U_{kir})/R_H \neq 0$  - kirish tokining kirish kuchlanishiga bog'liqligi.

Mazkur tavsifni odatda faqat bipolyar tranzistorlar uchun ko'rib chiqiladi, chunki dala effektli tranzistorlar va elektr lampalarning kirish qarshiligi katta, shuning uchun ularning kirish tokini e'tiborsiz qoldirish mumkin.

UE bo'lgan zanjirdagi tranzistorning statik kirish VAX(tavsifi) quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$I_{kir} = I_b; U_{kir} = U_{be}; \Rightarrow I_b = f(U_{be})/U_{KE} \neq 0$$

### **Bipolyar n-p-n tranzistorning kirish statik VAT(tavsifi).**

Ma'lumki, kollektor kuchlanishining qiymati tranzistorning kirish tavsifi jarayoniga kam ta'sir qiladi, shuning uchun barcha malumotnomalarda, qoida tariqasida,  $U_{ke} = 0$  va  $U_{ke} = 5V$  uchun ikkita xususiyat berilgan.

Dinamik tavsif ib va Ube o'zgarishi bilan Uke o'zgarishini nazarda tutganligi sababli, umumiyl holda, kirish dinamik tavsifi asosiy tok va kuchlanish o'rtasidagi ancha murakkab munosabatni ko'rsatadi. Amalda, bu nyanslar e'tiborga olinmaydi va  $U_{ke} = 5V$  uchun olingan tavsif kirish dinamik tavsifi sifatida ishlatiladi, shu bilan birga muhandislik hisoblari uchun etarli darajada aniqlik olinadi.

Kirish dinamik (statik) tavsiflar radiohavaskorlar amaliyotida tranzistorning ishchi nuqtasini o'rnatish uchun ishlatiladi va juda muhim bo'limgan holatlarda, chunki ishchi nuqtasini o'rnatishning bu usuli faqat bitta (kirish) tavsifning nochiziqligini hisobga oladi.

Parron va o'tuvchi dinamik tavsiflar

Avvalgisidan farqli o'laroq, bu tavsiflar kuchaytiruvchi elementning kirish va chiqish tavsiflarining nochiziqlini hisobga oladi va ish nuqtasini tanlash va kuchaytirish bosqichida nochiziqli buzilishlarni hisoblash uchun ishlatiladi.

Parron dinamik tavsif - kuchaytiruvchi elementning kirish tokining quyidagilarga bog'liqligi:


$$I_{chiq} = f(E_G)/R_H \sim \neq 0$$

Bipolyar tranzistorning kirish va chiqish statik tavsiflarining nochiziqligini hisobga oladi.

Dinamik tavsifni yaratish uchun tranzistorning chiqish statik xususiyatlari qo'llaniladi, bu yerda yuklamali to'g'ridan-to'g'ri o'zgaruvchan tok amalga oshiriladi. Bundan tashqari,  $U_{ke} \neq 0$  bo'lgan tranzistorning kirish statik tavsifi ishlatiladi, bu dinamik sifatida ishlatiladi.

Bu xususiyat bipolyar tranzistorlarni ko'rib chiqishda ishlatiladi. Maydoniy tranzistorlar yuqori kirish qarshiligiga ega va shuning uchun  $E_g = U_{kir}$ .

$$i_{\text{вых}} = f(U_{\text{вх}}) \Big|_{R_{\text{н-}} \neq 0}$$



**18.3–rasm. Parron va o‘tkinchi dinamik tavsiflar**

Bog‘liqlik parron dinamik tavsifiga to‘g‘ri(mos) keladi, faqat Eg hisoblanmasdan, u orqali tavsifga o‘xshash tarzda tuzilgan.


Bipolyar tranzistor uchun

$$I_{\text{вых}} = I_k; \quad U_{\text{вх}} = U_{\text{бэ}}; \quad \Rightarrow I_k = f(U_{\text{бэ}}) \Big|_{R_{\text{н-}} \neq 0}$$

O‘tkinchi dinamik tavsifning turi parron bilan deyarli bir xil.

### Kuchaytirish sinfi A

Ishchi nuqta o‘tkinchi dinamik tavsifi kesimining o‘rtasida tanlanganligi bilan tavsiflanadi. Bu sinf oldindan kuchaytirish bosqichlarida, shuningdek, birlik  $V_t$  quvvatga ega chiqish bosqichlarida qo‘llaniladi.




**18.4–rasm. Approksimatsiyalash tavsiflari**

### Xususiyatlari:

1. O‘zgaruvchan komponent butun davr davomida mavjud  $\Rightarrow \Theta = 180^\circ$ .
2. Chiziqli bo‘lmagan buzilishlar minimal (ishlash nuqtasi tok tavsifining chiziqli kesimida harakat qiladi), ya’ni. chiqish signaling shakli kirish shakli bilan deyarli bir xil.
3. Doimiy komponent (chiqish toki) har doim boshlang‘ich holatida ham mavjud ( $t_0$  moment), qachon, bu foydasiz quvvat yo‘qotishlariga va  $\Rightarrow$  samaradorlikning pasayishiga olib keladi.

RC kuchaytirgich uchun nazariy maksimum  $\approx 8\%$  ni tashkil qiladi. Agar yuk sifatida faqat kollektor qarshiligi R<sub>k</sub> ishlatilsa, u holda nazariy maksimum  $\approx 25\%$  ni tashkil qiladi. Transformator kuchaytirgichi nazariy maksimumi  $\approx 50\%$  ga ega va haqiqiy samaradorlik bundan ham kamroq!



### Mavzuga oid pedtexnologiya

#### O‘z-o‘zini nazorat qilish savollari

1. Kuchaytirgichlar qanday turlarga bo‘linadi?
2. Kuchaytirgich ko‘rsatkichlarini tushuntiring?

## 19 -bob Kaskadlarni qurish tamoyillari. Kaskadlararo bog‘lanish

### 19.1 Kuchaytirgich kaskadlari haqida ma’lumot(tushuncha)

### 19.2 Kaskadlararo bog‘lanish turlari


### 19.3 Ko‘p kaskadli sxemalaning kuchaytirish koeffitsienti

#### 19.1 Kuchaytirgich kaskadlari haqida ma’lumot(tushuncha)

Hozirgi vaqtida keng tarqalgan kuchaytirgichlarda kuchaytiruvchi element sifatida ikki qutbli yoki bir qutbli tranzistorlar ishlatiladi. Kuchaytirish quyidagicha amalga oshiriladi.

Boshqariladigan element (tranzistor)ning kirish zanjiriga kuchlanish ( $U_{kir}$ ) beriladi va kirish toki ( $I_{kir}$ ) hosil bo‘ladi. Kichik kirish toki chiqish zanjiridagi tokda o‘zgaruvchan tashkil etuvchini hamda boshqariladigan elementning chiqish zanjirida kirish zanjiridagi kuchlanishdan ancha katta bo‘lgan o‘zgaruvchan kuchlanish hosil qiladi. 19.1-rasmda umumiylan emitterli (UE) kuchaytirish kaskadining chizmasi hamda kirish va chiqish tavsiflari ko‘rsatilgan. Kuchaytirish kaskadlari UE, UB, UK chizmalar bo‘yicha yig‘iladi. Umumiylan kollektorli (UK) chizma tok va quvvat bo‘yicha kuchaytirish imkoniyatiga ega. Bunda  $k_{u\leq 1}$ chizmaga asosan, kaskadning yuqori chiqish qarshiligini iste’molini aniqlash lozimdir. Tranzistorli kuchaytirgichning chizmasini ko‘rib chiqamiz.

Bu kuchaytirgich tokni ham, kuchlanishni ham kuchaytirish imkoniyatiga ega. Kuchaytirish kaskadining asosiy zanjiri tranzistor (VT); qarshilik  $R_k$  va manba  $E_k$  dan iborat. Qolgan elementlar yordamchi sifatida ishlatiladi.  $C_1$  kondensator kirish sig‘imini o‘tkazmaydi, tranzistor bazasi  $U_b$  va  $R_2$  qarshilikka bog‘liq bo‘lmaydi. Kondensator  $C_2$  iste’molchi zanjiriga chiqish kuchlanishning o‘tkazish uchun xizmat qiladi.  $R_1$  va  $R_2$  rezistorlar kuchlanish bo‘lib turib kaskadning boshlang‘ich holatini ta’minlab beradi.



19.1–rasm. Kaskadli sxema

✓ Kaskadning chiqish kuchlanishi  $U_{chiqish}$

$$U_{chiq} = i_k \cdot R_i$$

✓ Kaskadning kirish kuchlanishi.

$$U_{kir} = i_b \cdot R_{kir}$$

bu yerda  $R_{kir}$ -tranzistorning kirish qarshiligi.

Tok  $i_i \geq i_b$  va qarshilik  $R_i \geq R_{kir}$  bo‘lgani uchun chizmani chiqish joyida kuchlanish ancha katta.

Kuchaytirgichning kuchlanish bo‘yicha kuchaytirish koeffitsienti  $K_i$  quyidagicha aniqlanadi.

$$K_i = \frac{U_{chiqmax}}{U_{kirmmax}};$$

yoki garmonik sig‘imlar uchun

$$K_i = \frac{U_{chia}}{U_{kir}};$$

Kaskadning tok bo‘yicha kuchaytirish koeffitsienti:

$$K_i = \frac{I_{chiq}}{I_{kir}};$$

Kuchaytirgichning quvvat koeffitsienti.

$$K_p = \frac{P_{chia}}{P_{kir}};$$

$P_{chiq}$  -iste’molchiga beriladigan quvvat.

$P_{kir}$ -kuchaytirishga kiradigan quvvat.

Kuchaytirgich kattaliklari logarifmik qiymati - detsibellda o‘lchanadi.

$$Ku(DB) = 20 \lg Ku \quad \text{yoki} \quad Ku = 10^{\frac{Ku(DB)}{2}};$$

$$Ki(DB) = 20 \lg Ki \quad \text{yoki} \quad Ki = 10^{\frac{Ki(DB)}{2}};$$

$$Kp(DB) = 20 \lg Kp \quad \text{yoki} \quad Kp = 10^{Kp(DB)};$$

Inson qulog‘ining tovushni sezish sezgirligi signali  $K=1DB$  ga moneligi hisobga olib, shu o‘lchov birligi kiritilgan. Tranzistorli kuchaytirgich kuchaytirish koeffitsienti o‘ziga mos keladigan parametrga ega.

### 1. Kuchaytirgichni chiqish quvvati

$$P_{chiq} = \frac{U_{chiqmax}^2}{R_u}$$

2. Kuchaytirgichni foydali ish koeffitsienti.

$$\eta = \frac{P_{chiq}}{P_{um}};$$

bu yerda  $P_{um}$ -mavjud bo‘lgan barcha manbalarda sarf bo‘lgan quvvat.

3. Kuchaytirgichning dinamik diapazoni.

$$D = 20 \lg \frac{U_{kirmax}}{U_{kirmin}};$$

4. Chastotaning buzilish koeffitsienti.

$$\mu(f) = \frac{Ku_o}{Ku_t};$$


5. Chiziqli bo‘lmagan buzilishlar koeffitsienti “ $\gamma$ ” quyidagi ifoda bilan topiladi.

$$\gamma = \frac{U^2 m_{1chiq} + U^2 m_{2chiq} + \dots + U^2 m_{nchiq}}{Um_{chiq}},$$

a) Sifatli kuchaytirgich uchun  $\gamma \leq 4\%$

b) Telefon aloqalari uchun  $\gamma \leq 15\%$

kuchaytirgichning shovqin darajasi-shovqin kuchlanishining kirish kuchlanishiga nisbatiga aytildi. Tranzistorli kuchaytirgichlar amplituda, chastota va amplituda-chastota tavsifi bilan baholanadi.



### **Mavzuga oid pedtexnologiya**

#### **O‘z-o‘zini nazorat qilish savollari**

1. Kuchaytirish keffitsenti nima?
2. Tranzistorli kuchaytirgichlar tavsiflari

## 20 -bob Kuchaytirgichlarda teskari aloqa

### 20.1 Teskari aloqa turlari

### 20.2 Ulanish turlari(usullari)

### 20.3 Tavsiflari

#### 20.1 Teskari aloqa turlari

Teskari aloqa deb kuchaytirgich chiqish zanjiridan kirish zanjiriga energiya uzatishga aytiladi. Chiqish signali kuchaytirgichning kirish zanjiriga to‘liq yoki qisman uzatilishi mumkin. Bitta kaskadni egallagan teskari aloqa mahalliy, ko‘p kaskadli kuchaytirgichni butunlay egallagan teskari aloqa esa umumi deb ataladi.

Umumiy holda teskari aloqa signali kirish signaliga qo‘shilishi yoki ayirilishi mumkin. Shunga qarab, mos ravishda, musbat va manfiy teskari aloqaga ajratiladi. Agar kuchaytirgichning kirish signali va teskari aloqa signali fazalari bir xil bo‘lsa, teskari aloqa musbat, agar  $n$  burchakka farq qilsa, ya’ni fazalari teskari bo‘lsa, teskari aloqa manfiy deb ataladi.

Manfiy teskari aloqaning kiritilishi, tranzistor ishlash sharoiti o‘zgarganda, kuchaytirgichning kuchaytirish koefitsienti va boshqa parametrlari barqarorligini oshiradi. Bundan tashqari, manfiy teskari aloqa kuchaytirgichning o‘tkazish polosasini oshirish imkonini beradi, nochiziqli buzilishlar darajasini pasaytiradi.

Manfiy teskari aloqa kuchaytirgichlarda, musbat teskari aloqa esa elektr signallar generatorlarida va maxsus elektron qurilmalarda ishlatiladi.

Teskari aloqali kuchaytirgichning tuzilish sxemasi quyidagi 20.1-rasmda keltirilgan. Bu yerda  $K$  - kuchaytirish koefitsienti, teskari aloqa zanjiri teskari aloqa koefitsienti bilan ifodalanadi. Chiqish signalining qanday qismi kuchaytirgich kirishiga uzatilayotganini ko‘rsatadi.



20.1–rasm. Teskari aloqaga ega bo‘lgan kuchaytirgichning tuzilish sxemasi

Kuchaytirgichlarda manfiy teskari aloqaning turli ko‘rinishlaridan foydalilanadi. Teskari aloqa zanjiri kuchaytirgich chiqishiga qanday ulanganiga mos ravishda kuchlanish bo‘yicha va tok bo‘yicha teskari aloqa amalga oshiriladi:

## 20.2 Ulanish turlari(usullari)

Kuchaytirgichlarda manfiy teskari aloqaning turli ko‘rinishlaridan foydalaniladi. teskari aloqa zanjiri kuchaytirgich chiqishiga qanday ulanganiga mos ravishda kuchlanish bo‘yicha va tok bo‘yicha teskari aloqa amalgga oshiriladi:

-kuchlanish bo‘yicha teskari aloqa amalgga oshirilganda teskari aloqa zanjiri sxema chiqishiga yuklama bilan parallel ulanadi (20.2, a-rasm). Bunda teskari aloqa kuchlanishi kuchaytirgich R<sub>Y</sub> yuklamasidagi kuchlanishga proporsional boiadi;


-tok bo‘yicha teskari aloqa amalgga oshirilganda teskari aloqa zanjiri sxema chiqishiga R<sub>Y</sub> bilan ketma-ket ulanadi (20.2, b-rasm). Buning uchun chiqish zanjiriga maxsus RTA rezistor ulanadi, bu rezistordagi kuchlanish pasayishi R<sub>Y</sub> yuklamadagi chiqish tokiga proporsional bo‘ladi.

Teskari aloqa zanjirining kuchaytirgich kirishiga ulanish usuliga mos ravishda ketma-ket va parallel teskari aloqalarga ajratiladi:

-ketma-ket ulangan teskari aloqa amalgga oshirilayotganda teskari aloqa zanjiri kuchaytirgichning kirish tomonidan signal manbayiga ketma-ket ulanadi (8.9, d-rasm);

-parallel ulangan TA amalga oshirilayotganda TA zanjiri kuchaytirgichning kirish tomonidan signal manbayiga parallel ulanadi (20.2, e-rasm).

Manfiy teskari aloqa signallarini kirish zanjiriga uzatish usuliga qarab uning turini quyidagi amaliy maslahatlar yordamida oson aniqlash mumkin. Agar teskari aloqa signali tranzistor emitteriga (istikiga) uzatilsa, aloqa ketmaket, agar bazaga (zatvorga) uzatilsa, aloqa parallel amalga oshirilgan bo‘ladi



**20.2-rasm. Chiqishda: kuchlanish bo‘yicha (a), tok bo‘yicha (b) va kirishda: ketma-ket (c) va parallel (d) manfiy TA turlari.**

Kombinatsiyalashgan (aralash) teskari aloqa: bir vaqtda ham tok, ham kuchlanish bo'yicha teskari aloqa, hamda bir vaqtda ketma-ket va parallel teskari aloqa **b oT** ishi mumkin. Turli ko'rinishdagi manfiy teskari aloqaga ega kuchaytirgichlarning to'liq tuzilish sxemasi keltirilgan to'rtta rasmdan ikkitasini ishlatgan holda hosil qilinadi.

### 20.3 Tavsiflari

Manfiy teskari aloqa kuchaytirgich parametrlariga qanday ta'sir ko'rsatishini ko'rib chiqamiz.

Kuchaytirish koeffitsienti. Kuchaytirgichda kuchlanish bo'yicha manfiy teskari aloqa mavjud bo'lsin. Keyingi ifodalarda, kirish va chiqish toklari hamda kuchlanishlar o'zlarining o'zgaruvchan tashkil etuvchilari bilan ko'rsatilgan.

$$U_{TA} = kU_{CHIQ} \quad (20.1)$$

Teskari aloqa kuchlanishi kirish kuchlanishidan ayiriladi, shuning uchun

$$\begin{aligned} U_1 &= U_{KIR} - U_{TA} = U_{KIR} - kU_{CHIQ} \\ U_{KIR} &= U_1 + kU_{CHIQ} \end{aligned} \quad (20.2)$$

Agar teskari aloqa mavjud bo'lmasa,  $U_{KIR} = U_1$  va kuchaytirgichning kuchlanish bo'yicha kuchaytirish koeffitsienti

$$K_U = U_{CHIQ}/U_{KIR} \quad (20.3)$$

Manfiy teskari aloqa mavjud boiganda (20.2) ni e'tiborga olgan holda quyidagiga teng bo'ladi:

$$K_{UTA} = \frac{U_{CHIQ}}{U_{KIR}} = \frac{U_{CHIQ}}{U_1 + kU_{CHIQ}}$$

(20.3) ni e'tiborga olgan holda manfiy teskari aloqa mavjud bolganda kuchaytirish koeffitsienti

$$K_{UTA} = \frac{K_U}{1+kK_U} \quad (20.4)$$

(20.4) dan kuchlanish bo'yicha manfiy teskari aloqada kuchaytirish koeffitsienti kamayishi ko'rinish turibdi, lekin bir vaqtning o'zida uning qiymati barqarorlashadi. **ae**  $K_U = 100K_u$  ning qiymati qandaydir sabablarga ko'ra 50 % ga oshsin, lekin bunda bor-yo'g'i 0,2% ga oshadi.

**1 +aeK<sub>U</sub> =F** yig'indi manfiy teskari aloqaning chuqurligi deb ataladi. Agar manfiy Teskari aloqada **ae>>1** bo'lsa, bunday Teskari aloqa chuqur manfiy teskari

aloqa deb ataladi. Chuqur manfiy teskari aloqada kuchaytirish koeffitsienti quyidagicha bo'ladi:

$$K_{UTA} \approx \frac{1}{ae} \quad (20.5)$$

(20.5) dan juda muhim xulosa chiqadi.  $F>10$  bo'lganda  $K_{UTA}$  faqat teskari aloqa uzatish koeffitsienti  $ae$  bilan aniqlanadi va teskari aloqasiz holdagi kuchaytirish koeffitsienti  $K_U$  bog'liq bo'lmaydi. Bu,  $K_{UTA}$  ga harorat, parametrlar tarqoqligi, radiatsion nurlanish, eskirish kabi omillar ta'sir etmasligini anglatadi. Shuning uchun manfiy teskari aloqa kiritilganda kuchaytirish koeffitsienti kamaysa ham, turli kuchlanish kuchaytirgichlarda keng qo'llaniladi.

Tok kuchaytirgichlarda asosan tok bo'yicha parallel manfiy teskari aloqa qo'llaniladi (20.2, d-rasm). Bunda teskari aloqa kuchlanishi  $U_{TA}$ , qo'shimcha rezistor  $R_{TA}$  orqali oquvchi, teskari aloqa toki  $I_{TA}$  ni hosil qiladi. Kuchaytirgichning kirish zanjirida  $I_{TA}$  va kirish signali toki qo'shiladi.  $U_{TA}=I_{CHIQ}*R_{TA}$  tok bo'yicha teskari aloqa koeffitsienti esa

$$ae_1 = \frac{I_{TA}}{I_{CHIQ}} \approx \frac{R_{TA}}{R_{Yu}}$$

Tok bo'yicha manfiy teskari aloqa chuqurligi  $F_1 = 1 + ae_1 K_1$  ga teng.

Tok bo'yicha parallel manfiy teskari aloqa asosan tok kuchaytirgichlarda qo'llanilgani sababli, tok bo'yicha kuchaytirish koeffitsienti  $K_{ITA}$  ga uning ta'sirini ko'rib chiqamiz. (20.4) ga o'xshab

$$K_{ITA} = \frac{K_1}{(1+ae_1 K_1)} = \frac{K_1}{F_1} \quad (20.6)$$

topamiz, bu yerda:  $K$ -manfiy teskari aloqaga ega bo'lgan kuchaytirgichning tok bo'yicha kuchaytirish koeffitsienti.

Kuchlanish bo'yicha manfiy teskari aloqada  $K_{UTA}$  barqarorlashsa, parallel manfiy teskari aloqada  $K_{ITA}$  barqarorlashadi. Bundan tashqari, harorat, parametrlar tarqoqligi va boshqa tashqi omillarning  $K_{ITA}$  ga ta'siri kamayadi. Chuqur parallel manfiy teskari aloqada (20.6) ifoda ko'rinishga keladi, ya'ni tok bo'yicha kuchaytirish koeffitsienti faqat ikkita rezistor qiymatlari nisbati bilan aniqlanadi.

Manfiy teskari aloqali kuchaytirgichning kirish qarshiligi  $R_{KURTA}$  teskari aloqa signalini kirish zanjiriga uzatish usuli bilan aniqlanadi va teskari aloqa signalining olinish usuliga bog'liq bolmaydi.

Kuchaytirgichga kuchlanish bo'yicha ketma-ket manfiy teskari aloqa kiritilganda uning kirishiga kirish signali bilan teskari signali ayirmasiga teng ( $U_m$  -

U teskari aloqa) signal ta'sir etadi. Bu kirish tokining amalda kamayishiga (ya'ni kuchaytirgich kirish qarshiligining ortishiga ekvivalent olib keladi. Bunda

$$R_{KIR.TA} = \left( \frac{U_{KIR}}{I_{KIR}} \right) (1 + ae K_U) = R_{KIR} F \quad (20.7)$$

ni topish mumkin. Ushbu ifodadan kuchlanish bo'yicha manfiy teskari aloqa kuchaytirgichning kirish qarshilagini F marta oshirishi ko'rinib turibdi. Kuchlanish bo'yicha chuqur manfiy teskari aloqa katta ichki qarshilikka ega kirish signali manbalaridan (datchiklaridan) ishlaydigan kuchaytirgichlarning kirish kaskadlarida ishlatiladi.

Kuchaytirgichga parallel manfiy teskari aloqa kiritilganda uning kirish zanjirida kirish signali manbayi va teskari aloqa toklari qo'shiladi. Natijada, kirish kuchlanishi manbayidan olinayotgan tok ortadi (kirish qarshiligining kamayishiga ekvivalent). Parallel manfiy teskari aloqa uchun quyidagini yozish mumkin:

$$R_{KIR.TA} = \frac{R_{KIR}}{F_1} \quad (20.8)$$

Shunday qilib, ketma-ket manfiy teskaga nisbatan parallel manfiy teskari aloqa  $R_{KIR.TA}$  ni kamaytiradi,  $R_{KIR.TA}$  tok bo'yicha manfiy teskari aloqa chuqurligiga teskari proporsional.

Manfiy teskari aloqali kuchaytirgich chiqish qarshiligi teskari aloqa signali qaysi usulda olinishigagina bog'liq va ushbu signal qanday qilib uning kirish zanjiriga kiritilganiga bog'liq emas.

Avval kuchlanish bo'yicha manfiy teskari aloqa zanjiri kiritilgan holni ko'rib chiqamiz. 20.2, a-rasmga muvofiq

$$R_{CHIQ.TA} = \frac{U_{CHIQ}}{I_{CHIQ}},$$

$$U_{CHIQ} = U_{TA} - I_{CHIQ} R_{CHIQ};$$

$$U_{TA} = K_U U_{KIR} = K_U (-ae U_{CHIQ}) \text{ yoki } U_{CHIQ} = -\frac{I_{CHIQ} R_{CHIQ}}{(1 - ae K_U)}$$

Manfiylik belgisi yuklama toki  $I_{CHIQ}$  ning musbat orttirmalari kuchaytirgich kuchlanishining teskari tomonga o'zgarishiga olib keladi. Bundan, minus ishorani tashlab yuborgan holda

$$R_{CHIQ.TA} = \frac{R_{CHIQ}}{(1 + ae K_U)} = \frac{R_{CHIQ}}{F} \quad (20.9)$$

ni hosil qilamiz. Bundan, kuchlanish bo'yicha ketma-ket manfiy teskari aloqa chiqish qarshilagini F marta kamaytirishni aniqlash mumkin. Shunday qilib, manfiy teskari aloqa qanchalik chuqur bo'lsa, R shunchalik kichik bo'ladi Bu chiqish

kuchlanishining  $R_{yu}$  ga bog‘liqligini sezilarli darajada kamaytirish imkonini bergani sababli, kuchlanish kuchaytirgichlarda muhim rol o‘ynaydi.

Endi chiqish toki bo‘yicha manfiy teskari aloqa kiritilgan holni ko‘rib chiqamiz. 20.2, b-rasmga muvofiq, chiqish toki o‘zgarishi bilan, kuchaytirgichning kirish kuchlanishi

$$U_{KIR} = -U_{TA} \cdot ae$$


ifoda bilan aniqlanadi. Yuqoridagi o‘zgartishlar kabi o‘zgartirishlarni bajarib

$$R_{CHIQ.TA} = R_{TA} K_U ae + K_{CHIQ} \quad (20.10)$$

$$K_{G.TA} \approx \frac{K_G}{F}$$

ni topamiz. Shunday qilib, chiqish toki bo‘yicha manfiy teskari aloqa zanjiri kiritilishi kuchaytirgich chiqish qarshiligini oshiradi.

Manfiy teskari aloqa yordamida kuchaytirgichdagi nochiziqli buzilishlar va xalaqitlar kamaytiriladi. Gap shundaki, hosil bo‘lish tabiatidan qat’i nazar, kuchaytirgich chiqishidagi har qanday signal  $F$  marta kamayadi. Natijada, tranzistor ishlashi aktiv element volt amper tavsifining kichik sohasida amalga oshadi va garmonikalar koeffitsientining kamayishiga olib keladi. Fizik tomondan bu, manfiy teskari aloqa kuchaytirgich volt amper tavsifining nochiziqligi kichik sohalarida ishlashini ta’minlashini anglatadi. Manfiy teskari aloqali kuchaytirgich uchun nochiziqli buzilishlar koeffitsienti  $K_{GTA}$  uchun yozish mumkin.



### 20.3–rasm. Manfiy teskari aloqa kuchaytirgich volt amper tavsifi

Manfiy teskari aloqasiz ( $K_U$ ) va manfiy teskari aloqali ( $K_{GTA}$ ) kuchaytirgich amplituda-chastota xaraktristikasi.

**TA  
[chiqishda]**

**TA  
[kirishda]**

**Kuchlanish  
bo'yicha TA**

**Tok  
bo'yicha TA**

**Ketma-ket  
TA**

**Parallel TA**

**Mavzuga oid pedtexnologiya**

**O'z-o'zini nazorat qilish savollari**


1. Teskari aloqa nima?
2. Qanday teskari aloqa turlari mavjud tushuntiring?
3. Kuchaytirgichlarni ulash usullari?
4. Kaskad nima?
5. Manfiy teskari aloqali kuchaytirgich?
6. Parallel manfiy teskari aloqani tushuntiring?

## 21 -bob Operatsion kuchaytirgichlar. OK parametrlari va tavsiflari


### 21.1 Operatsion kuchaytirgichlarning struktura sxemasi

### 21.2 Operatsion kuchaytirgichlarning tasnifi(sinflanishi)


#### 21.1 Operatsion kuchaytirgichlarning struktura sxemasi



Operatsion kuchaytirgichlarning sxemalardagi ko‘rinishlari



Signalni invertrlash(teskariqlash) haqidagi grafik tasvirlar




Operatsion kuchaytirgichlar va ularning zanjirl: A-manfiy teskari bog'lanishli(MTB-OOC) sxema; B-musbat teskari bog'lanishli(MusTB-IIOC) sxema.

## 21.2 Operatsion kuchaytirgichlarning tasnifi(sinflanishi)

### Operatsion kuchaytirgichli o'lhash sxemalarini hisoblash

Kuch texnikasini ishlatalishda uning joriy vaqt davomidagi holatini, shuningdek, kelajakdagи holatini bashoratlashni bilish muhimdir. Uskunalarining joriy holatini turli hildagi o'lhash qurilmalari yordamida baholanadi. Hozirgi kunda kuch qurilmalarining va asboblarining (transformatorlar, viklyuchatellar(o'chirgichlar), reaktiv quvvatni kompensatsiyalovchi uskunalar, kontaktli tarmoqlar va boshq.) diagnostikasi masalalariga katta e'tibor qaratilmoqda. Ma'lumki, zanjirning elektrli diagnostikasi deganda elektr zanjir parametrlarini zanjirning aniq topologiyasi(tuzilishi)da zanjir parametrlarining bir qismini va uning turli ta'sirlarga reaksiyasini aniqlash tushiniladi.



21.1–rasm. OK(OU) asosidagi o'lchovchi kuchaytirgich

Yelkalaridan biriga termorezistor ulangan, ko‘prikning diagonalida farqlanuvchi signalni(xabarni) kuchaytirish uchun mo‘ljallangan, OK(OU) asosidagi o'lchovchi kuchaytirgichni hisoblash hamda sxema rezistorlari nominallari sochilishini hisobga olib kuchaytirgichning **chiqishidagi sinfazali halallar**(pomexi) (xatoliklar) kattaliklarini baholash talab etilsin.

1. Ko‘prik va uning ta’midot zanjiri parametrlari tanlanadi. Ma'lumki, tanlangan rusumli (KMT-8) termorezistori uchun haroratning  $40^{\circ}\text{C}$  qiymatgacha o‘zgarishida ( $20$  dan  $60^{\circ}\text{C}$  gacha oraliqda)  $\Delta R_x = 10 \text{ Omga}$  teng ko‘prik muvozanati paydo bo‘ladi. Ko‘prik rezistorlarining nominallari:

$R_{x20^{\circ}\text{S}} = R_1 = 100 \text{ Om}; R_2=R_3= 3 \text{ kOm};$  ko‘prik ta’midot kuchlanishi  $E_p = 12 \text{ V}.$

2. Chiqish uskunalarining barqaror ishlashini ta’minlash uchun kuchaytirish koeffitsienti  $30$  dan  $50$  gacha poyonda o‘zgarishi kerak. Chiqish qarshiligi  $R_{chiq} \geq 50 \text{ kOm}.$

3. Kirish qarshiligining yuqori qiymatlarini ta'minlash va yagona o'zgaruvchi rezistor yordamida kuchaytirish koeffitsientini rostlash imkonini beruvchi uchta OK(OU)dan foydalaniladigan o'lchovchi qurilmaning sxemasi tanlanadi. Kirishida maydonli tranzistorga ega bo'lgan K140UD8 rusumi OK(OU)ni qabul qilamiz. Bu esa kirishdagi tokning o'zgarishlari keltirib chiqargan hatoliklarni kamaytirish imkonini beradi.

4. Kirishdagi differensial va sinfazli signallarning (xabarlarning) kattaliklari aniqlanadi.

Operatsion kuchaytirgichli o'lchovchi mexanizm uchun differensial kirish kuchlanishi o'lhash ko'prigining A va V nuqtalari (tugunlari) orasidagi potensiallar farqi ko'rinishida aniqlanadi hamda ta'minot kuchlanishining kattaligi va ko'priq qarshiliklari orasidagi nisbatlarga bog'liq bo'ladi.

$$\begin{aligned}\Delta U_{\text{BX}} = U_{\text{BX},\Delta} &= \varphi_A - \varphi_B = E_\Pi \left( \frac{R_1}{R_3 + R_1} - \frac{R_1 - \Delta R_x}{R_2 + R_1 - \Delta R_x} \right) \\ &= 12 \left( \frac{100}{3100} - \frac{100 - 10}{3100 - 10} \right) = 0,04 \text{ V}\end{aligned}$$

Sinfazali signal

$$\begin{aligned}U_{\text{BX.CF}} &= \frac{\varphi_A + \varphi_B}{2} = \frac{1}{2} \left( \frac{E_\Pi R_1}{R_3 + R_1} + \frac{E_\Pi (R_x - \Delta R_x)}{R_2 + R_x} \right) = \frac{U_\Pi}{2} \left( \frac{R_1 + R_x - \Delta R_x}{R_2 + R_x} \right) \\ &= \frac{12}{2} \left( \frac{100 + 100 - 10}{3100} \right) = 0,37 \text{ V}\end{aligned}$$

5. Noma'lum rezistorlarning parametrlarini hisoblash birlamchi ma'lumotlar(berilganlar)ni hisobga olgan holda ularning nominallarini tanlab olishdan iborat bo'ladi. Sxema rezistorlarining quyidagi nominallari tanlab olinadi. DA3 kuchaytirgichining kirish toki ta'sirini kamaytirish uchun:  $R_4 = R_6 = 10 \text{ kOm}$ ,  $R_5 = R_7 = 50 \text{ kOm}$  (xatoligi 5% dan ortmaydigan) qabul qilinadi.

6. Rezistorlarning tanlangan qiymatlarida sxemaning kuchaytirish koeffitsienti quyidagi ifoda bilan aniqlanadi:

$$K_{U_{\text{рез}}}= \frac{U_{\text{Вых}}}{U_{\text{BX1}} - U_{\text{BX2}}} = \left( 1 + \frac{2}{a} \right) m = \left( 1 + \frac{2}{0.22} \right) 5 = 50$$

bu yerda  $m = \frac{R_5}{R_4} = \frac{50}{10} = 5$  parametri bo'lib,  $m = 5$  da  $\frac{\Delta m}{m} = 5\%$  nisbatga ega bo'lamiz.

O'zgaruvchan rezistor R ning qarshiligi  $K_{U_{\text{рез}}}$  kuchaytirish koeffitsientini rostlashning talab etilgan chuqurligi bilan belgilanadi. Kuchaytirish koeffitsienti  $K_U = 50$  va  $m = 5$ da  $a = 0,22$  katalikka;  $K_U = 30$  va  $m = 5$ da  $a = 0,4$  katalikka ega bo'lamiz. Osma(oyoqli) qarshiliklarning tanlangan qiymatlarida  $R = 6,9 \text{ kOm}$

bo‘ladi. Agarda R4 va R5 rezistorlari bir xil nominalli, masalan,  $R_4 = R_5 = 10$  kOm, bo‘lsa, u holda R o‘zgaruvchan rezistorni 3,9 kOm nominalga ega qilib tanlash kerak bo‘ladi.

7. Kuchaytirgichning  $k_U = 50$  da  $K_{occ\phi}$  - sinfazali signaling kuchsizlanish koefitsienti:

$$K_{occ\phi} = \left(1 + \frac{2}{a}(1+m)\right) \frac{m}{\Delta m} = 10 \cdot 6 \cdot \frac{100}{5} = 1200$$

Tanlangan K140UD8 rusumli OK(OU)ga sinfazali signaling kuchsizlanish koefitsienti  $K_{occ\phi}oy=10^4$  ma’lumotnomadagi qiymati mos keladi.

Kuchaytirgich sinfazali signalini(xabarini) kamaytirish (kuchsizlantirish) koefitsientining ma’lumotnomadagi qiymati  $K_{occ\phi}oy >> K_{occ\phi}$  bo‘lgani uchun, u holda sxemadagi rezistorlar parametrlarining noidentligi ta’siri OK(OU)dagi differensial kuchaytirgich yelkalaridagi parametrlarining bir xil bo‘lmasligiga qaraganda sezilarli darajada kuchli yuzaga chiqadi(ifodalanadi).


8. Sxema kuchaytirishining maksimal koefitsientida sinfazali xatolikning chiqish kuchlanishi (o‘lchov birligi V):

$$U_{вых\ ош}^{c\phi} = U_{вхс\phi} K_{Uc\phi} = U_{вхс\phi} \frac{K_{U_d}}{K_{occ\phi}} = 0,37 \cdot \frac{50}{1200} = 0,02$$

Bu esa foydali signalda quyidagi chiqish kuchlanishini beradi(o‘lchov birligi V):

$$U_{вкx\ d} = U_{вх\ d} K_{U\ d} \times 0.04 \cdot 50 = 2$$

Haqiqiy o‘lchov xatoligi  $\delta_d = 0,02 \cdot \frac{100}{2} = 1\%$  ga teng bo‘ladi.



**21.2–rasm. Fotodioddan iste’molchi sifatida foydalanilgan o‘lchagichning sxemasni**

Real sharoitlarda o‘lchov zanjirlarini ko‘pincha boshqa muhitda joylashgan datchiklardan izolyasiyalashga to‘g‘ri keladi. Mazkur holatda optronlardan foydalanish yoki foto iste’molchilar bilan optik tolali liniyalar orqali bog‘langan boshqa svetodatchiklardan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Fotodiordan iste’molchi sifatida foydalanilgan o‘lchagichning sxemasi quyidagi 152–rasmda tasvirlangan.

Unda operatsion kuchaytirgichning(OU) kirishlari oralig‘ida mazkur yoritilganlikda toki 5 mA ni tashkil etadigan fotodatchik FD ulangan. Fotodatchik sifatida svetodiiod yoki AOD 101A rusumli optronli diod yoki AOU 103 rusumli optronli tiristordan foydalanilishi mumkin.

Kirishdagi ma’lum  $U_{vx} = 2,5$  V kuchlanishda chiqishda  $U_{вых} = 10$  V kuchlanishni olish uchun teskari aloqa zanjirida rezistorga ega kirishida fotodatchikli o‘lchovchi kuchaytirgichni ishslash sharoitlari bo‘yicha hisoblash zarur deb faraz qilaylik.

Hisoblash tartibi(ketma-ketligi) quyidagicha.

- O‘lhash xatoligini kamaytirish va manbadan kam energiya iste’mol qilish uchun kirishda katta qarshilikli maydonli tranzistorga ega K140UD8 rusumli operatsion kuchaytirgich tanlanadi.

- Kirish qarshiligining qiymati quyidagicha aniqlanadi (o‘lchov birligi Om):

$$R_{bx} = \frac{U_{bx}}{I_{fd}} = \frac{2,5}{5 \cdot 10^{-3}} = 500$$

Bu yerda,  $I_{fd}$  – o‘lhash uchun qabul qilingan fotodiiodning toki; topshiriq bo‘yicha 5 mA ni tashkil etadi.

- Kuchlanish bo‘yicha kuchaytirish koeffitsienti

$$K_U = \frac{R_{oc}}{R_{bx}} = \frac{U_{вых}}{U_{bx}} = \frac{10}{2,5} = 4$$

- Teskari aloqa(bog‘lanish) qarshiligi (o‘lchov birligi kOm):

$$R_{oc} = R_{bx} K_u = 4 \cdot 0.5 = 2$$



## Mavzuga oid pedtexnologiya

### O‘z-o‘zini nazorat qilish savollari

1. O‘zgaruvchan tok podstansiyasidagi tortish(tyagovoy) transformatorining holatini diagnostikalash usullarini ayting.
2. Bir fazali ko‘prik asosidagi harorat datchiklarining sxemasini chizing va afzalliklarini sanang.
3. O‘lchashlarning absolyut, nisbiy xatoliklariga ta’rif bering. Nima uchun K140UD8 mikrosxemasidan foydalanilgan o‘lchash uskunasida xatolik K140UD708 dagiga taqqoslaganda kichik bo‘ladi ?
4. Elektroenergetikada va temir yo‘l transportida optoelektronli uskunalar asosidagi o‘lchash datchiklarini qo‘llash mumkin bo‘lgan sohalarini ayting.

## **22-bob Kuchlanish va tokni stabillash(barqarorlashtirish) tushunchasi.**

### **22.1 Kuchlanishni stabillashda(barqarorlashtirishda) ishlataladigan asboblarni o‘rganish.**

#### **22.1 Kuchlanishni stabillashda (barqarorlashtirishda) ishlataladigan asboblarni o‘rganish.**

Zamonaviy dunyoda inson faoliyatining biron bir sohasi elektr jihozlaridan foydalanmasdan qila olmaydi. Ushbu qurilmalar ishda ham, uyda ham qo‘llaniladi. Ba’zi elektr jihozlari ma’lum diapazonlarda barqaror kuchlanishni saqlashni talab qiladi. Buning uchun kuchlanish stabilizatori ishlataladi.

Barcha elektr jihozlari elektr ta’minoti sohasida belgilangan standartlarga mos keladigan xususiyatlarga ega ishlab chiqariladi. Sobiq ittifoq davlatlarida ushbu standartlar GOST 13109-97 tomonidan tartibga solinadi.

Elektr jihozlarining samarali uzluksiz ishlashi uchun va ularning xizmat qilish muddatini uzaytirish uchun elektr tokining doimiy kuchlanishini ta’minlash kerak. Ammo turli sabablarga ko‘ra, elektr energiyasini yetkazib berishda GOST 13109-97 har doim ham kuzatilmaydi. Stabilizatorlar quvvat kuchlanishini bartaraf etish uchun ishlataladi.

Texnik xususiyatlariga qarab, ushbu qurilmalar quyidagi maqsadlarda qo‘llaniladi:

- past sifatli elektr tarmoqlarining kuchlanishini barqarorlashtirish;
- noldan past haroratlarda elektr jihozlarini ishlatalishda;
- uy-ro‘zg‘or va kasbiy jihozlarni elektr kuchlanishidan himoya qilish;
- sezgir elektr jihozlarini elektr uzelishi ta’siridan himoya qilish;
- uskunani kritik yuklamalarrdan himoya qilish.

Uy sharoitida stabilizatordan foydalanish elektr jihozlari va maishiy texnikaning barqaror ishlashini ta’minlash imkonini beradi.

Ofisda ushbu qurilmadan foydalanish muhim hujjatlarni keyinchalik yo‘qotish bilan orgtexnika ishdan chiqishi xavfini bartaraf qiladi.

Ishlab chiqarish sharoitida stabilizatorlardan foydalanish baxtsiz hodisalar xavfini, shuningdek, elektr jihozlarining ishlashidagi nosozliklarni kamaytirishga yordam beradi.

Stabilizatorlarning turlari:

Ishlash printsipiga ko‘ra, kuchlanish stabilizatorlari quyidagi turlarga bo‘linadi:

- qadamli(pog‘onali);

- elektromexanik;
- ferrorezonansli;
- gibrild;
- transformatorning magnitlanishi bilan;
- energiyani ikki marta ozgartirish bilan;
- yuqori chastotali tranzistor rostlagichlari.

Energiyani Ikki marta o‘zgartirishga ega bo‘lgan stabilizatorlar va yuqori chastotali tranzistorli rostlagichlari hozirda ishlab chiqilmoqda va keng tarqalgan emas.

Transformator moyilligi bo‘lgan stabilizatorlar muhim kamchilikka ega - sozlash oralig‘ini cheklaydi. Shu munosabat bilan ular iste’molchilar orasida past talabga ega.

Fazalar soni bo‘yicha kuchlanish stabilizatorlari quyidagi turlarga bo‘linadi:

- bir fazali - maishiy sharoitda qo‘llaniladi;
- uch fazali - ishlab chiqarishda barqaror tok ta’minotini talab qiladigan asbob-uskunalarini himoya qilish uchun ishlatiladi.

Quvvatiga ko‘ra, maishiy stabilizatorlar bir necha turlarga bo‘linadi:

1. Kam quvvatli - bir yoki ikkita elektr jihozlariga, masalan, faqat televizorga yoki kompyuterga va monitorga ulanish uchun.

2. O‘rtacha quvvat - elektr jihozlarining kichik guruhiga, masalan, maishiy texnikaga ulanish uchun.

3. Kuchli - umuman yashash maydoni uchun. Ushbu qurilmalar simlarning uyga yoki kvartiraga kiradigan joyiga o‘rnataladi. Shunday qilib, xonaning butun elektr tizimi kuchlanish o‘zgarishidan himoyalangan.

Stabilizatorlarning bir nechta eng keng tarqalgan turlari mavjud:

1. Releyli. Ushbu turdagi qurilmalar pog‘onali kuchlanishni tartibga solishni ta’minlaydi. Releyli tuzilmalari transformator va quvvat releylidan iborat. Ular past quvvatli va sifatsiz elektr tarmoqlariga ega uskunalar uchun, shuningdek, noldan past haroratlarda ishlash uchun eng mos keladi. Barqaror kirish kuchlanishida 9-10 kVt gacha bo‘lgan yuklamalarga bardosh beradi. Ular ishonchsizlik, komponentlarni tez-tez almashtirish zarurati va sozlashning past aniqligi bilan ajralib turadi. Ushbu kamchiliklarni bartaraf etish uchun transformatorning dizaynnini murakkablashtirish mumkin, ammo bu stabilizator narxining oshishiga olib keladi.

2. Simistrli yoki elektronli. Ushbu turdagи stabilizatorlar Releyli modellari printsipi asosida ishlaydi. Farqi shundaki, ularda mexanik Rele yo‘q. Buning o‘rniga simistrlar ishlatiladi. Bunday qurilmalar yanada ishonchli. Bundan tashqari, ular kamroq shovqin yaratadilar. Ammo xuddi releyli kabi, elektron stabilizatorlar

kuchlanishni aniq tartibga solishga qodir emas. Ishlashning yuqori tezligi ushbu qurilmalarga tez-tez kichik kuchlanish tushishini samarali ravishda oldini olishga imkon beradi. Xususiyatlari tufayli elektron stabilizatorlar sezgir uskunalarini, shu jumladan elektronika, kompyuterlar, gazli qozonlarni va boshqalarni himoya qilish uchun ishlatiladi, ular ishonchli va texnik xizmat ko'rsatish va ishlatish uchun qulaydir. Ularning xizmat qilish muddati o'rtacha 10-15 yil.

3. Elektromexanik yoki servo boshqariladigan. Ushbu qurilmalar reostat printsipi asosida ishlaydi. Shu sababli, ular chiqish kuchlanishini muammosiz o'zgartirishi va keng kirish diapazonini saqlab turishi mumkin. Elektromexanik stabilizatorlar shovqinning yuqori darajasi bilan ajralib turadi, shuning uchun ularni uyda ishlatish mumkin emas. Bunday uskunalar odatda keskin kuchlanish pasayishi bo'lmagan tarmoqlar uchun ishlatiladi.

### **Ishlash printsipi va sxemasi**

Stabilizatorlarning ishlash printsipi chiqishda keyingi sozlash bilan kirishdagi kuchlanish darajasini aniqlashdan iborat. Qurilmaning ishlash algoritmi quyidagicha:

1. Kirishdagi kuchlanishni o'lhash. O'rtacha, bu protsedura elektron modellar uchun taxminan 20 millisekundni va elektromexanik modellar uchun taxminan 50 millisekundni oladi.

2. 220 V gacha kuchlanish ko'rsatkichlarini tekislash. Agar kirishdagi ko'rsatkichlar kamaytirilgan qiymatga ega bo'lsa, stabilizator ularni chiqishda uskunaning kuchi imkon qadar oshiradi. Agar kuchlanish standartdan yuqori bo'lsa, stabilizator kuchlanish ta'minotini bloklaydi. Ushbu qurilmaning vazifasi elektr jihozlarining impulsli kuchlanish bilan aloqa qilishini oldini olishdir.



**22.1–rasm. Shaxsiy kompyuterni stabilizator yordamida ulanishi**


Ferromagnit o'zakli g'altakdan tuzilgan nochiziqli elektr zanjirlarida mazkur g'altaklarning induktivligini ulardagi kuchlanish yoki tokning qiymatlari va shakllariga yaqqol bog'liqligi kuzatiladi. Ko'pincha ferrorezonans hodisasi ko'plab avtomatlashtirish qurilmalarini yaratishda foydalaniladi va ferrorezonansli stabilizatorlar qurilmasida ham Kuchlanishi stabillash qiziqish uyg'otadi.

### Ferrorezonansli zanjir

Ferrorezonansli zanjir quyidagilardan iborat bo'lgan sxema ferromagnitli o'zakga ega nochiziqli induktiv g'altak va kondansator iborat nochiziqli bo'lgan bunday zanjirdagi element kuchli ferromagnit bo'lishi mumkin uning o'zagi to'yingan magnitlanish holatidadir.


Ketma-ket va parallel ulanishli induktiv g'altak va kondensator zanjirda ferrorezonans xodisasi yuz berishi mumkin.

Oddiylik uchun biz buni ferrorezonansda deb hisoblaymiz, kondensator zanjirlari mavjud doimiy sig'im va sinusoidal bo'limgan tok ekvivalent sinusoida bilan almashtiriladi.



**22.2–rasm. Zanjir elementlaridagi kuchlanishning va effektiv kuchlanishning tokga bog'liqlik tavsifi**


Zanjir elementlaridagi kuchlanishning va effektiv kuchlanishning tokga bog'liqligi:  $U_C$ -kondensattordagi kuchlanish;  $U_L$  - g'altakdagagi kuchlanish;  $U'$  - g'altak va kondensatordagi kuchlanish farqi;  $U$  - zanjirning kirish qismidagi nuqtalar orasidagi effektiv kuchlanish;  $I_0$  - kuchlanish rezonansining nuqtasi.



**22.3–rasm. Uchta  $I_a$ ,  $I_b$  va  $I_c$  tok qiymati  $U(I)$  tavsifi**

Uchta  $I_a$ ,  $I_b$  va  $I_c$  tok qiymati  $U(I)$  tavsifi bo‘yicha manba kuchlanishining ma’lum bir  $U_2$  qiymatiga to‘g‘ri keladi.(a) nuqta kuchlanish  $U_3$  dan pastroq qiymatdan ko‘tarilganda zanjirda oqayotgan tokga mos keladi. (c) nuqtasiga kuchlanishni  $U_1$  dan kattaroq qiymatdan  $U_2$  qiymatigacha kamaytirish orqali olingan tok mos keladi. Tokning sakrab o‘zgarish nuqtalari (1 va 4 nuqtalar) orasidagi bo‘shliqda joylashgan (b) nuqtaga, sakrab o‘zgarishga olib bo‘lmaydigan kuchlanish manbasidan quvvat olishi bilan erishib bo‘lmaydi. Barcha tok qiymatlarida xarakterli  $U(I)$  ni, kuchlanish manbasidan emas, balki tok manbaidan quvvat olinishi mumkin.

Zanjirning kirish qismlaridagi effektiv kuchlanishning tokga bog‘liq amaldagi(haqiqiy) egri chizig‘i. Tokni stabillashda induktiv g‘altakdan, kuchlanishni stabillashda esa kondensator qurilmasidan foydalilanildi.



### Mavzuga oid pedtexnologiya

### **O‘z-o‘zini nazorat qilish savollari**

1. Elektr energiyasining sifat ko‘rsatkichlari haqida nimalarni bilasiz?
2. Nima uchun sifat ko‘rsatkichlari nazorat qilinadi?
3. Elektr tarmog‘ining kuchlanishi qanday stabillanadi?
4. Elektr tarmog‘ining toki qanday stabillanadi?
5. Ferrorezonansli zanjir haqida nimalarni bilasiz?
6. GOST 13109-97 qanday standart hisoblanadi ?

## 23 -bob Filtrlar va ularning qo‘llanilishi.

### 23.1 Passiv va aktiv filtrlar haqida tushuncha.

### 23.2 Filtrlarning tuzilishi va elektr sxemalari.

#### 23.1 Passiv va aktiv filtrlar haqida tushuncha.


Axborotlarni (malumotlarni) yetkazuvchilar.

- O‘zgaruvchan tok, impuls, video impuls, radio impuls, chastota oraliqlari haqida tushinchalar.



- Impulslar va videoIpuslarning asosiy xarateristikalar.

Filtrlar:



- a) past chastotali; b) yuqori chastotali; c) polosali(poyonli);




a



b




c




23.1-rasm. Past, yuqori chastotali va polosali(poyonli) filtrlar

d) to'suvchi filtr; e) past chastotali RC filtri;



23.2–rasm. To'suvchi LC va past chastotali RC filtrlar



Mavzuga oid pedtexnologiya

## O‘z-o‘zini nazorat qilish savollari

1. Filtrlarning vazifasi nima?
2. Past chastotali filtrning sxemasini tasvirlang?
3. Yuqori chastotali filtrning sxemasini tasvirlang?
4. Polosali(poyonli) filtrning sxemasini tasvirlang?
5. To‘suvchi filtr qanday sxemaga ega?
6. Past chastotali RC filtri qanday ishlaydi ?

## 24 -bob Signal generatorlari

### 24.1 Generatorlarning tasnifi. Qurilmasi.

### 24.2 Signal generatorlarining qo‘llanishi.

#### 24.1 Generatorlarning tasnifi. Qurilmasi.

##### Signal generatorlari - qurilmalarning turlari va xususiyatlari

Signallar generatori elektronika va aloqa sohasidagi eng muhim texnologik elementlardan biridir. Sinov, muammolarni bartaraf etish va dizayn kabi turli xil signallar va chastotalarni yaratish uchun ishlatiladi. Standart generator turli amplitudalar, chastotalar va to‘lqin shakllari signallarini ishlab chiqarishga qodir bo‘lsada, bozorda bir nechta turli xil qurilmalar mavjud. Turi, maqsadi va qo‘llanilishiga qarab, ularning funksionalligi farqlanadi. Ko‘pgina qurilmalarda ovozli modulyatsiya va hatto elektron raqs musiqasini yaratish kabi maxsus ilovalar mavjud.

Standart signal generatori hali ham elektronika dizayni sohasida qo‘llaniladi va o‘tgan asrda ko‘plab o‘zgarishlarga duch keldi. Keling, signal generatorlarining eng keng tarqalgan turlarini ko‘rib chiqaylik.



APSIN6010

#### 24.1–rasm. Funktsiyalar generatori

Har xil amplituda va shakldagi takroriy va takrorlanmaydigan signallarni yaratadigan generatorlarning eng keng tarqalgan sinfi. Chiqish signallarining umumiy turlari turli xil to‘lqinlarni o‘z ichiga oladi:

to‘rtburchakli,

sinusoidal,

chiziqli yoki uchburchak,


pulsli,

yurak urish tezligiga mos,

gauss pulsi,

ehtiyoriy.

Ushbu to‘lqin shakllari sinov sxemasiga kiritilishi va qurilmaning to‘g‘ri ishlashini tasdiqlash uchun tahlil qilinishi mumkin.



#### 24.2–rasm. Tektronixning AFG seriyali signal generatorlari

Standart to‘lqin shakllarini, o‘zi paydo bo‘ladigan to‘lqin shakllarini va signalni pasaytirish imkoniyatlarini qo‘llab-quvvatlaydigan Tektronixning AFG seriyali signal generatorlari keng ko‘lamli ilovalarni bajarishga qodir.

Ko‘proq moslashuvchanlik uchun ko‘plab to‘lqin shakllari qadam sifatida yuklanishi va har bir qadamning takrorlanish tartibi hamda sonini aniqlash uchun takrorlashlar, o‘tishlar va triggerlarni o‘z ichiga olgan ketma-ketlikda ijro etilishi mumkin. O‘zi paydo bo‘ladigan va ketma-ket to‘lqin shakllarining kombinatsiyasidan foydalanib, juda murakkab va dinamik to‘lqin shakllarini ko‘paytirishga erishish mumkin. Ular ko‘pincha universitetlarda o‘quv maqsadlarida qo‘llaniladi.

Turli xil to‘lqin shakllari (arra tishlari, qadam, zarba va uchburchak to‘lqinlar), past tarmoqli kengligi darajalari va cheklangan chastota diapazoni bundan mustasno, standart funktsiya generatoriga o‘xshaydi. Qurilma, shuningdek,


ishlab chiqarishi mumkin bo‘lgan signallarning oldindan o‘rnatilgan ro‘yxatiga ega va foydalanuvchi ijro etish tezligi, amplituda va ofset kabi parametrlarini o‘zgartirishi, asosiy buzilish yoki modulyatsiyani qo‘sishi mumkin.



**24.3–rasm. Operatorning ish o‘rni**



**24.4–rasm. Signal generatorlarining zamonaviy turlari**



### **Mavzuga oid pedtexnologiya**

#### **O‘z-o‘zini nazorat qilish savollari**

1. Signallar generatori qaysi sohalarda ko‘proq ishlatiladi ?
2. Signallar generatorining asosiy funktsiyasi nimadan iborat?
3. Chiqish signallarining umumiyligini ayting?
4. Tektronixning AFG seriyali signal generatorlari nima maqsadda ishlatiladi?
5. Qanday zamonaviy signallar generatori bilasiz?

## **25 -bob Muqobil elektr stantsiyalar va muntazam takrorlanuvchi energiya manbaalari**

### **25.1 Mikrogidroelektr stantsiyalari**

### **25.2 Shamol elektr qurilmalari**

### **25.3 Quyosh elektr stantsiyalari**

### **25.4 Kimyoviy elektr stantsiyalar**

### **25.5 Avtonom dizel elektr stantsiyalari**

### **25.6 Zamonaviy invertorlar**

#### **25.1 Mikrogidroelektr stantsiyalari**

Respublikada iqtisodiy va texnika taraqqiyotining va rivojlanishning mustahkam poydevorini yanada mustahkamlash va bugungi kunda mamlakatimizda elektr energetikaga bo‘lgan talabdan kelib chiqib arzon, foydali va ekologik toza elektr energiyasiga bo‘lgan ehtiyoj yanada ortib bormoqda. Mazkur ehtiyojni qondirish uchun esa elektr tokini ishlab chiqaruvchi turli usullardan keng foydalanib kelinmoqda. **GES - SUV oqimining energiyasini** elektr energiyasiga aylantirib beradigan qurilma. Energiyani o‘zgartirish nuqtai nazardan gidroenergetika bu juda yuqori FIKga ega bo‘lgan texnologiyadir, ko‘p hollarda oddiy issiqlik elektrostansiyalarga qaraganda FIK ikki martadan katta bo‘ladi [1].

Ishlab chiqarishda turli xil generatorlar mavjud [6]:

- Eksenel-radial kontaktsiz;
- Reduktorsiz past tezlikda ishlaydigan shamol tegirmonlari uchun;
- Mikro va mini GES lar uchun generatorlar;
- Akkumulyatorni zaryadlash uchun generatorlar;
- Maxsus dizaynli generatorlar;
- Past tezlikda ishlaydigan generatorlar;
- SUV ostida ishlaydigan generatorlar;

Aylanish tezligi ( $n$ ) o‘zgarmas bo‘lib, stator tokining chastotasi  $f = np/60$  nisbat orqali bog‘liq bo‘lgan o‘zgaruvchan tok mashinasi sinxron mashina deb ataladi. Sinxron mashinalar, asosan, barcha elektr stansiyalarda uch fazali elektr generatorlari sifatida ishlatilmoqda.

Ayon qutbli sinxron mashinalarni tayyorlash texnologiyasini hamda konstruksiyasining mexanik mustahkamligini ta'minlash uchun ularni aylanish tezligi 1000 ayl/min dan kam bo'lgan hollarda ishlatish uchun tavsiya etiladi. Ayon qutbli generatorlar ko'pincha, gidravlik turbinada ishlatiladi. Shuning uchun bunday generatorlar gidrogeneratorlar deb ataladi, ularning aylanish tezligi 60 dan 750 ayl/min oralig'ida bo'ladi. Tezlikning bunday katta oraliqda o'zgarishi gidrostansiyalarda suv bosimi va isrofining turlicha bo'lishi bilan bog'liqdir.

Gidrogenerator qutblarining ayonligi gidroturbinaning tezligiga bog'liq holda bir necha o'ntagacha bo'lishi mumkin. Masalan, turbinaning aylanish tezligi 75 ayl/min va standart chastota 50 Gts bo'lganda  $p = 60f/n_2 = 60 \cdot 50/75 = 40$  juft qutb yoki 80 ta qutb bo'ladi. Yaqqol ko'rinnmaydigan qutbli mashinalar, acosan, rotoring aylanish tezligi katta 1500, 3000 ayl/min bo'lganda qo'llaniladi. Bunday mashina rotorining konstruksiyasi bo'rtib chiqmagan qutb sifatida, ya'ni uyg'otish chulg'ami joylashtiriladigan pazli silindrsimon shaklda yasaladi. Yaqqol ko'rinnmaydigan qutbli generatorlarning birlamchi dvigateeli sifatida bug' turbinasi qo'llanilgani uchun bunday generatorlar turbogeneratorlar deb ataladi.

O'zgaruvchan tok generatorlarining afzallik tomonlaridan biri, to'g'rilaqich diodlari akkumulatorlar batareyasini stator chulg'amlari orqali razryad bo'lishiga yo'l qo'ymaydi. Bu generator bilan teskari tok relesini ishlatish zarurati yo'qoladi va rostlagich tuzilishi ancha soddalashadi.


